5. Saidov A.A. Axborot ishonchliligini nazorat qilishning mumtoz usullari va uni bojxona ishiga qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari // Monografiya. –Toshkent. –2021. – 498b.
6. Катенко Ю.В., Петренко С.А. Концепция контроля достоверности информации в профессиональной социальной сети с применением сверточной нейронной сети // Сборник докладов XXIII международной конференции по мягким вычислениям и измерениям. Санкт-Петербург. «ЛЕТИ». — 2019. -С. 344–347.
7. Морозова. А. А. Достоверность информации в социальных сетях и критерии ее верификации (на примере «ВКонтакте») // Вестник Челябинского государственного университета. -2017. -№ 6 (402). — вып. 106. -С. 75-83.
8. Xin Luna Dong and others. Knowledge-Based Trust: Estimating the Trustworthiness of Web Sources // -URL:https://www.cornell.edu/ arxiv.org/abs/1502.03519. arXiv:1502.03519v1 [cs.DB].-2015. (murojaat sanasi: 12.08.2021)
9. Muxammad Yusuf M. Mustalaxul hadis// Monografiya. Toshkent. – 2011y, -322 b.
10. Доклад руководителя ФТС России В.И. Булавина «О проекте Стратегии развития таможенной службой Российской Федерации до 2030 года» // https://glasnarod.ru/vlast/proekt-strategii-razvitiya-rossijskoj-tamozhni-do-2030-goda-rassmotren-biznes-soobshhestvom.



ZAMONAVIY BOJXONA-LOGISTIKA TERMINALLARI TASHKIL ETISH: CHEGARADA XALQARO YUKLAR HARAKATINI TEZLATISH CHORASI SIFATIDA

R.Xabibov - Bojxona instituti boshlig'i o'rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada chegarada yuk tashuvlari tirbandligini oldini olish maqsadida amalga oshirilayotgan choralar yetarli emasligi muammosi tahlil qilinib, bojxona-logistika terminallarini tashkil etish bojxona rasmiylashtiruvini tezlashishiga, logistika tizimi rivojlanishiga ta'siri yoritilgan. Maqolada masalani yanada chuqurroq o'rganish talab etiladigan jihatlari bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: chegarada tirbandlik, bojxona-logistika terminali, bojxona posti, bojxona rasmiylashtiruvi

Аннотация: В данной статье рассмотрена проблема недостаточности принимаемых мер по предотвращению транспортных очередей на границе, анализируется влияние таможенно-логистических терминалов на ускорение таможенного оформления и развитие логистической системы. В статье предложены аспекты, требующие более глубокого изучения.

Ключевые слова: скопление на границе, таможенно-логистический терминал, таможенный пост, таможенное оформление.

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishi uchun eksport salohiyatini oshirish, importni mahalliyashtirishda ishlatiladigan xom-ashyo va yangi texnologiyalarni keltirish zarur va bu o'z navbatida tashqi savdo hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatadi.

Avtotransport tashuvlari yukni tez va istalgan manzilga yetkazib bera olish jihatdan juda qulay. Davlat chegara o'tkazish punktlarida bojxona postlari tunu kun ishlashiga qaramay, arxitekturasini jihatdan o'tkazish qobiliyati cheklangan, rasmiylashtiruv jarayoni yetarli vaqt talab etadi, yuklarni chegarada navbatda turib qolish holatlari uchrab turadi. Chegarada "qizil" yo'lakka tushgan yukni tushirish, qayta yuklash, bojxona ko'rigi, sarflangan vaqt va xarajat tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga ma'qul kelavermaydi.

Masalan, respublika ochiq ma'lumotlar portaliga bojxona organlari tomonidan joylashtirilgan tahlil ma'lumotiga ko'ra, 2021-yil iyun oyida eng yirik o'tkazish punktlari hisoblangan "Yallama", "Dovut-ota", "Oybek", "Navoiy", "S.Najimov" chegara bojxona postlari orqali harakatlangan yuk avtotransport vositalari bojxona rasmiylashtiruviga o'rtacha 45 daqiqadan 1 soat 51 daqiqagacha tashkil etganligi qayd qilingan [15] (1-jadval).

Tirbandlik muammosini oldini olish uchun bojxona organlari yuk va transport vositasi haqida avvaldan ma'lumot jo'natish, avtomatlashtirilgan chiqarib yuborish, masofaviy elektron deklaratsiyalash, xavfni boshqarish, yuk chiqarib yuborilganidan keyin bojxona nazorati, "Yagona darcha" bojxona axborot tizimlari kabi yangi bojxona texnologiyalarini joriy etmoqda. Biroq, masalaga bir tomonlama yondashib yoki o'tkazish

punkti hududini kengaytirish orqali ham muammoga to'liq yechim topib bo'lmaydi. Chegara nazorati uning hududida minimal shaxslar harakatlanishini talab etadi, qo'shni davlat o'tkazish punkti bunga huquqiy va texnik tayyor emas. O'tkazish punktini "bo'shatish" istiqbolli taklif hisoblanadi. Buning uchun bojxona rasmiylashtiruvining asosiy qismini punktdan tashqariga vaqtincha saqlash omboriga olib chiqiladi. Natijada, tirbandlik oldi olinadi, yuk bojxona rasmiylashtiruvidan to'liq o'tib qabul qiluvchiga to'g'ri boradi, oraliq bojxona postiga kirishga zarurat qolmaydi. Barcha ruxsatnomalar olinishi va xizmatlar bir joyda ko'rsatilishi ta'minlanadi.

Bojxona-logistika terminallarini (BLT) ilmiy tadqiq qilishda, tahlil, solishtirish, sintez va statistik usullaridan foydalanilgan.

"2020-2023-yillarda bojxona ma'muriyatchiligini isloh qilish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish Konsepsiyasi"da bojxona operatsiyalarini amalga oshirishga ko'p vaqt sarflanayotganligi, chegara o'tkazish punktlarining o'tkazish qobiliyati past darajada ekanligi, o'tkazuvchanlik imkoniyatini 3 barobarga oshirish, bojxona rasmiylashtiruvi uchun sarflanadigan vaqtni eksportda 5 barobarga, importda 2 barobarga qisqartirish chora-tadbirlari belgilangan [1].

Hurmatli Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2021-yil 14-dekabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida poytaxtga kuniga 130 ming tonna yuklar katta hajmli mashinalarda kirishi tirbandlik, yo'llar sifati va havoning tozaligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi ta'kidlagan. Buning uchun yuk taqsimlovchi yirik

1-jadval

2021-yil iyun oyida ayrim chegara bojxona postlari orqali harakatlangan yuk avtotransport vositalari bojxona rasmiylashtiruviga o'rtacha sarflangan vaqt tahlili

Bojxona posti	Joylashgan viloyati	Chegaradagi davlat	Jami transport	O'rtacha vaqt
"Yallama"	Toshkent viloyati	Qozog'iston	3096	1:51:07
"Dovut-ota"	Qoraqalpog'iston	Qozog'iston	2927	1:50:56
"Oybek"	Toshkent viloyati	Tojikiston	460	1:06:39
"Navoiy"	Toshkent viloyati	Qozog'iston	796	0:57:18
"S.Najimov"	Toshkent viloyati	Qozog'iston	94	0:45:17
"Ayritom"	Surxondaryo	Afg'oniston	371	0:22:03
"Sirdaryo"	Sirdaryo	Qozog'iston	1318	0:20:29
Andarxon	Farg'ona	Qirg'iziston	5	0:21:40
"O'zbekiston"	Farg'ona	Qirg'iziston	165	0:14:10
"Sariosiyo"	Surxondaryo	Tojikiston	316	0:10:30
"Qarshi-Kerki"	Qashqadaryo	Turkmaniston	97	0:04:00

ulgurji savdo logistika markazlarini qurish topshirig'i berilgan [14].

Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan Strategiyasi"da 8 ta viloyatda zamonaviy laboratoriyalar, sanitar-epidemiologik, fitosanitar, karantin, veterinariya nazorati va bojxona terminallari xizmatlari yo'lga qo'yilgan agrologistika komplekslarini qurib ishga tushirish rejalashtirilgan [2], [3].

"Raqamli O'zbekiston-2030" Strategiyasida, bosqichma-bosqich logistika markazlarini yaratish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini qulay va o'z vaqtida eksport qilishni ta'minlash vazifasi amalga oshirilishi belgilangan [4].

Ta'kidlash joizki, bojxona organlari tizimida 2021-yil 1-oktyabrdan boshlab Toshkent, Sirdaryo, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida "Masofaviy elektron deklaratsiyalash" bojxona postlari faoliyati ishga tushirildi. Istiqbolda bojxona rasmiylashtiruv uchun shaharlarda joylashgan tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona postlariga borishga hojat qolmaydi, eksportda esa, yuk hujjatiga chegarada muhr bosib chiqarib yuboriladi [5]. Demak, bu ob'ektiv sharoit, yuklarni bojxona rasmiylashtiruvini davlat chegara o'tkazish punktiga yaqin joyda tashkil etiladigan BLTda amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi.


2019-2020-yillarda "Yallama" va "S.Najimov" (Toshkent v.), "Do'stlik" (Andijon v.), "Olot" (Buxoro v.), 2020-2021-yillarda "Dovut-ota" (QR), "Madaniyat" (Andijon v.), "O'zbekiston" (Farg'ona v.), "G'ishtko'prik" va "Oybek" (Toshkent v.) bojxona postlari hududlariga tutash hududlarda 9 ta

BLT qurish rejalashtirilgan edi. Biroq, loyihaning texnik-iqtisodiy asosini yaratish, investorlarni jalb etish, kredit manbaalarni aniqlash va umuman davlat-xususiy sherikchilik munosabatlari va tavakkalchilik xatarlari ishonchli kafolatlari to'liq shakllanib ulgurmaganligi sababli, jarayon sust bormoqda [6].

BLTlarni tashkil etish O'zbekiston uchun yangi amaliyot va bu borada tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O'z o'rnida MDH davlatlari tajribasini misol keltirsak, masalan, Rossiya Federatsiyasida 2011-yildan buyon 53 ta BLT tashkil qilingan. Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Norvegiya, Daniya va Finlyandiyada yarim asrlik tajribaga ega. Mazkur masala zamonaviy iqtisodiy modellar izlayotgan davlatlar va ilmiy tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. JTS hamda Butunjahon bojxona tashkilotlari tavsiyalarida alohida o'rin tutadi.

Xo'sh BLT o'zi nima? va u qanday funksiyani o'taydi? — degan savol tug'ilishi tabiiy. BLT - chegara o'tkazish punktlariga yaqin joylashgan, atrofi o'ralgan maydonda, tovarlarni, ularni bojxona rasmiylashtiruvdan o'tkazilguniga qadar, bojxona nazorati ostida vaqtincha saqlash joyi [7],[8],[9] (1-rasm).

Tashqi savdo faoliyat samaradorligi oshishiga bevosita ikki omil ta'sir qiladi: birinchisi, TIF ishtirokchilari yuklarini yetkazib berish operatsiyalari bilan bog'liq xarajatlarini kamayishi, ikkinchisi, bojxona nazoratida shaffof, tez, sodda yangi bojxona texnologiyalari qo'llanilishi. Bularning barchasini tovarlar BLTda turgan vaqtida amalga oshirish yoki qo'llash imkoniyati mavjud. Tovar saqlashdan toki



1-rasm. BLTning bojxona va logistika tizimida o‘rni

rasmiylashtiruvgacha bo‘lgan jarayonga kiruvchi barcha xizmatlardan foydalanishga sharoit bir joyda yaratiladi. TIF ishtirokchisi manfaatiga mos kelishi bilan birga, bojxona nazorati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [10].

BLT asosan ikki funksiyani bajaradi: TIF ishtirokchilariga qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatish (tashuvlarni amalga oshirish, saqlash va bojxona brokeri, dastlabki ma‘lumotlarni jo‘natish xizmati, omborlar, ofislar, avtoturargohlar, ovqatlanish, mehmonxona, sug‘urtalash, ta‘mirlash va boshqalar) va bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini (nazorat, fiskal, axborot tahlil) amalga oshirish. Bojxona xodimlari bojxona maqsadlarida yuklarni bojxona ko‘rigidan o‘tkazadilar, namunalar oladilar. Shuningdek, BLTdan tovarlarni sotuvga tayyorlash maqsadida ham foydalanish mumkin: yukni qismlarga bo‘lish, qadoqlash, jo‘natish yoki turli davlatlardan kelgan yuklarni qayta partiyalarga taqsimlash [8].

Ta‘kidlash joizki, BLTning o‘ziga xos afzallik va kamchiliklari ham mavjud. Masalan, kirib kelayotgan yuklar oqimi ko‘p qismini bojxona nazoratiga olish imkoniyati ko‘payadi, bojxona qonunchiligiga rioya qilinishini ta‘minlash darajasi oshadi, bojxona samaradorligiga ta‘sir etmagan holda bojxona rasmiylashtiruv vaqti qisqaradi, chegara o‘tkazish punktlari rekonstruksiyasiga xarajat qilinmaydi, yuklarni qayta tashish soni qisqaradi, yetkazish vaqti va tashish qiymati pasayadi, chegara hududlarda xizmat ko‘rsatish va bandlik kabi masalalarni hal qilish imkoniyati yaratiladi [11].

Shu bilan birga, BLT o‘tkazishligi punktiga bog‘liqligi, munosib investor topish qiyinligi, investor tomonidan xizmatlar tarifini haddan ziyod oshirilishi, investor tomonidan zarur infrastruktura yaratilmasligi, malakali kadrlarni chegara hududlariga jalb qilish qiyinligi, olis joyda xodimlar yashashi uchun zarur sharoit yo‘qligi, TIF ishtirokchisi boshqa bojxona omboriga yukni tushirish istagi uni amalga oshishiga to‘siq bo‘lishi mumkin [7].


BLT faoliyati qancha yuk va transport vositasiga

xizmat ko‘rsatganligi, yuklar chegarada turib qolmaganligi kabi mezonlar asosida baholanadi. Rivojlangan BLTlari istiqbolda xalqaro yirik savdo transport xalqasini tutashtiruvchi bo‘g‘inga aylanishi mumkin [12].

BLTga barcha tovarlar ham joylashtirilmasligi va ularga nisbatan amaldagi bojxona rasmiylashtiruv tartibi saqlanib qolinishini ham yodda tutish joiz. Jumladan, sanoat korxonalari ishlab chiqarishida uzilish bo‘lmasligi maqsadida yetkazilayotgan xomashyolar, ekspres pochta jo‘natmalari, madaniy boyliklar, tirik hayvonlar, ko‘rgazma yuklari, davlat investitsiya loyihalari ko‘magida olib kelinayotgan yoki soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirish ko‘zda tutilgan TIF ishtirokchilari nomiga kelayotgan tovarlar, qimmatbaho tosh va metallar, radioaktiv materiallar, zaharli va kimyoviy moddalar, jismoniy shaxslar tomonidan olib kelinayotgan yoki ular nomiga xalqaro pochta kelgan tovarlar, qayta ishlash, vaqtincha olib kirish, erkin bojxona zonasi bojxona rejimlariga tushadigan tovarlar, harbiy-fazoviy yuklar, favqulodda holatlarni bartaraf etish maqsadida olib kelinadigan insonparvarlik yoki texnik yuklari [13].

Xo‘sh, BLT bojxona va TIF qatnashchilari uchun qanday qiyinchilik tug‘dirishi mumkin? Deyarli yo‘q va tajribada kuzatilmagan. Ma‘lumki, transport harakati ikki nuqtada amalga oshadi, chegaradan - iste‘molchiga. Bojxona odatda bugungi kunda oxirgi nuqta tomonida joylashgan. Uning boshlang‘ich nuqtaga joylashishi tashish zanjiriga deyarli ta‘sir qilmaydi, yuklarni nazorat qilish jihatidan ham, yuklar iste‘molchiga qo‘shimcha manzil orqali borishini kamayishi jihatdan ham afzal va “eshikdan-eshikka” printsiplida tashuv amalga oshiriladi. Bojxona postini qabul qiluvchi manzili hududida tashkil etishning istiqboli yo‘q, chunki TIF bilan shug‘ullanuvchilar soni yildan-yilga ko‘paymoqda, qisqa vaqtdan keyin tugatilayotgani ham undan kam emas. Shu sababli, chegara yonida tashkil etiladigan BLTlarda bojxona rasmiylashtiruvini o‘tkazish afzal hisoblanadi deb o‘ylaymiz [13]. (2-rasm.)

Yuqoridagilardan kelib chiqib, BLTlarni tashkil



2-rasm. Bojxona rasmiylashtiruvining amaldagi va taklifdagi bosqichlari

etishning obyektiv sabablarini shartli 3 guruhga ajratish mumkin deb hisoblaymiz:

1) biznes hamjamiyati maqsadida: xalqaro integratsiya, tashqi savdoni rivojlanishi, chegara o'tkazish punktlaridagi avtotransportlar tirbandligi, TIF ishtirokchilarining sarf-xarajatini qisqartirish, talabga javob beradigan va maxsus omborlar yetishmasligi, xalqaro yuk tashish yirik yo'laklariga qo'shilish;

2) bojxona maqsadida: hozirgi chegara bojxona postlari talabga javob bermasligi, yuklarni ichkaridagi manziliga yetib borishga qadar yo'qolishi, bojxona rasmiylashtiruvini bir joyda amalga oshirish, bojxona nazorati bir marta amalga oshirish, masofaviy elektron deklaratsiyalash;

3) shaharsozlik arxitekturasi maqsadida: shaharlarga katta yuk avtotransport vositalari kirishini qisqartirish, ekologik muhitni yaxshilash va texnik shovqinni qisqartirish, avtopark, omborlar o'rniga maktab, shifoxona, bolalar bog'chalari, yangi uy-joy va xiyobonlar qurish.

BLTlarni tashkil etishda quyidagi asosiy prinsiplarga e'tibor qaratish muhim:

1) Umumiy tusdagi maqsadlarda: davlat chegara o'tkazish punktiga yaqin joyda joylashishi, bino, inshoot, texnika yaxlit va yagona o'ralgan hududda joylashishi, tovarlar saqlanadigan maxsus jihozlangan omborlar mavjudligi, qo'riqlanadigan rejimli obyekt bo'lishi, barcha xizmatlar faoliyati uchun ma'muriy xonalar bo'lishi, transport vositalari to'xtab turish uchun alohida maydon bo'lishi va ularning erkin kirib-chiqishi uchun yetarli kenglikda yo'laklar bo'lishi yuklar bilan ishlaydigan maxsus texnikalar mavjudligi, davlat-xususiy sherikchilik asosida qurilishi, qoidaga ko'ra vaqtincha saqlash 3 oydan oshmasligi;

2) TIF ishtirokchilari maqsadlarida: omborlarning yetarli bo'lish, maxsus va muzlatgich omborlar bo'lishi, yuklar javobgarlik ostida buzilmaydigan va xavfsiz saqlanishi kafolatlanishi, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish uchun brokerlik va konsultativ xizmatlar mavjudligi, servis xizmatlar mavjudligi (oshxona, mehmonxona, kutish, yuvinish, ta'mirlash).

3) Bojxona maqsadlarida: elektron deklaratsiyalash, xavfni boshqarish tizimi qo'llanilishi, dastlabki ma'lumotlar elektron yuborilishi, bojxona rasmiylashtiruviga tegishli barcha ruxsat berish va sertifikatlash organlari "yagona darcha"ga integratsiyalashgan bo'lishi, bojxona nazoratining texnik vositalari va texnologiyalari mavjudligi, yuk va transport vositalar ro'yxatga olinishi, bojxona nazorati ostida bo'lishi, "broker+bojxonachi" korrupsion zanjirni uzish uchun masofaviy elektron deklaratsiyalash.

BLTlar tadbirkorlar uchun katta sarmoya kiritishni talab etishi bilan murakkab ko'rinsada, barqarorlik va dolzarblik jihatdan tadbirkorlik uchun juda yaxshi imkoniyat hisoblanadi. Chunki, har bir davlat uchun tashqi savdo iqtisodiyotning muhim tayanchi, uni rivojlantirishga bo'lgan intilish doimiy va obyektiv zarurat, bojxona nazorati tashqi savdoni tartibga soluvchi muhim instrument hisoblanadi.

BLTning tijoriy qismi xususiy kapitaldan shakllanishi sababli shubhasiz loyiha foyda ko'rishga qaratilgan bo'ladi, uning boshqaruvi xususiy shaklda tashkil etiladi. Davlatning xususiy sherigi – BLTda ombor egasi doimiy yuklar bilan to'la bo'lishi va ko'proq foyda ko'rishdan manfaatdor. TIF ishtirokchilari tezroq bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, xarajatlarni kamaytirishdan manfaatdor. Mohiyatan bir-biriga teskari manfaatlar

bo'lsada, vakolatli iqtisodiy operatorlar (bojxona brokerlari, mamlakat bo'ylab tarmoqlashgan savdo nuqtalariga ega yirik tadbirkorlik sub'ektlari, xalqaro yuklarni tashuvchi yirik transport-ekspeditorlik kompaniyalari, xalqaro pochta va kur'erlik jo'natmalari operator va provayderlari, tekstil mahsulotlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi yirik eksporter klasterlar, elektron tijorat operatorlar) uchun juda yaxshi imkoniyat deb hisoblaymiz.

Tahlillar ko'rsatmoqdagi, tadqiqotchilar yuk qabul qiluvchi bojxona omboriga yaqin joylashganligi sababli unga amaldagi bojxona rasmiylashtiruv qoniqtirishi holatini inkor etmaydilar. Aksincha, bojxona omborlaridagi TIF bojxona postlari istisno holatlar uchun o'z faoliyatini saqlab qolishi mumkin deb hisoblaydilar. Shunday ekan, quyidagi e'tibordan chetda qolgan masalalar yanada chuqurroq o'rganish zarur:

1) TIF posti qoldiriladigan bo'lsa, texnik-iqtisodiy hisob-kitob asoslarida BLTda bojxona posti ochish kerak yoki kerak emasligini o'rganish;

2) Bojxona omborlaridan TIF bojxona postlari chiqib ketadigan bo'lsa, ombor egalari kiritgan sarmoyani qanday tartibda qoplanishini belgilash;

3) BLTlarni tashkil qilinishida davlat va xususiy

ulush miqdori qancha bo'lishi, qaysi tomon qaysi yo'nalishga mablag' ajratish masalasini o'rganish;

4) BLTda ko'rsatiladigan xizmatlar tarifi qanday va qaysi idora tomonidan belgilanishini o'rganish.

5) BLT texnologiyasi modelini yaratib, barcha ishtirokchi organlarning funksiyalari algoritmi va vaqt reglamentini belgilash, sinovdan o'tkazish kerak.

Aniq texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar asosida BLTlarni yaratish masalasi, respublikamizda yuklar logistikasi xizmatini rivojlanishiga, bojxona rasmiylashtiruv qulay va tez amalga oshishiga, chegara o'tish punktlarida tirbandlik oldi olinishiga, mamlakatimiz xalqaro yirik yuk tashuv yo'lagi zanjiriga qo'shilishiga imkoniyat yaratiladi.

Xulosa qilishimiz mumkinki, logistika va bojxonaning bir zanjirda va uyg'unlashtirilgan infratuzilmada faoliyat olib borishi ob'ektiv zarurat va afzallik jihatlari ko'p. Mohiyatan, logistika yuklarni arzon va qulay harakatga keltiradi, bojxona nazorati ularni bojxona qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlaydi, logistika bilan bojxona uchrashadigan joy bojxona chegarasi, ularni o'zaro birga va hamkor qilishga tortadigan omil xalqaro integratsiya va tashqi savdo hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi PF-6005-son "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni 1-ilovasi // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni 1-ilovasi // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyuldagi PF-4406-son "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni 2-ilovasi // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston-2030" Strategiyasi 2-bob. 23.3-bandi // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-sentyabrdagi PF-6310-son "Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va Davlat bojxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni 1, 2-bandlari // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrdagi PF-5582-son "Bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni 1-bandi // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.

7. Смирнова Е.А., Таможенно-логистический терминал как ключевой вектор развития таможенного контроля и учета в РФ. Наука сегодня: теоретические и практические аспекты. Материалы международной научно-практической конференции, г. Вологда, 27 декабря 2017 г.: в 2 частях. Часть 1. – Вологда: ООО «Маркер», 2018. – 200 с.

8. Тихомиров М.Е., Понятие и сущность таможенно-логистического терминала. Меж.науч. журн. №3(05)/2016. С.97.

9. Абакаров Р.Г., Роль таможенно-логистических терминалов в ускорении перемещения товаров / Р. Г. Абакаров // Неделя науки — 2015: Сборник тезисов докладов XXXVI итоговой научно-технической конференции преподавателей, сотрудников, аспирантов и студентов ФГБОУ ВО «Дагестанский государственный технический университет», Махачкала, 21–25 апреля 2015 года / Под ред. Т.А. Исмаилова. – Махачкала: Издательство КИТ, 2015. – С. 312-313.

10. Шатохина О.С. Важность развития таможенно-логистического терминала. Белгородский гос.нац.исслед.университет. Научно-практический электронный журнал Аллея Науки. №9. 2017 www.alley-science.ru

11. Басарева, К. В. Таможенные процедуры в таможенном союзе ЕврАзЭС (учебное пособие) / К.В.Басарева, В. В. Чемодуров, М. Е. Тихомиров, И. В. Минакова, В.В.Коварда // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. - 2014 - № 3-2. - с. 236–237.

12. Терехова, Е. А. Таможенно-логистический терминал как место реализации таможенных услуг / Е. А. Терехова // Актуальные вопросы экономики и управления в российских организациях в инновационной экономике: Материалы Всероссийской заочной научно-практической конференции, Астрахань, 15 декабря 2017 года. – Астрахань: Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего профессионального образования «Астраханский государственный университет», 2017. – С. 332-335.

13. Архипов А.Ю. Институты особой экономической зоны и приграничной торговли как структуры эффективного развития международной инвестиционной деятельности: монография / А.Ю. Архипов, П.В. Павлов, А.В. Татарова // Таганрог: изд-во ТТИ ЮФУ, 2011. – 294 с.

14. Протокол № 6 Заседания Общ. консул. совета по тамож. политике при ФТС России. 18.12.2008. Из доклада нач. анал. управ. ФТС Ивина В.В. сайт ФТС России. <https://customs.gov.ru/folder/88681/document/88682>.

15. «Prezident Toshkentdagi tirbandlik muammosini hal qilish chorasi haqida gapirdi». Internet axborot resurs. <https://kun.uz/news/2021/12/14/prezident-toshkentdagi-tirbandlik-muammosini-hal-qilish-chorasi-haqida-gapirdi>.

16. O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portali. Chegara bojxona postlari orqali harakatlangan yuk avtotransport vositalari bojxona rasmiylashtiruviga sarflangan o'rtacha vaqt tahlili (2021-yil iyun oyi bo'yicha). <https://data.gov.uz/uz/datasets/9140>.



XORIY AVTOTRANSPORT VOSITALARINI O'ZBEKISTONGA FUQAROLAR TOMONIDAN NOTIJORAT MAQSADIDA VAQTINCHA OLIB KIRISH TARTIBOTLARINI XALQARO NORMALARGA MUVOFIQLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

O.Ibragimov - Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy avtotransport vositalarini O'zbekistonga fuqarolar tomonidan vaqtincha olib kirish bilan bog'liq tartibotlar bojxonaga oid xorijiy amaliyot va xalqaro normalar asosida tahlil qilingan, milliy qonunchilik normalarini ularga muvofiqlashtirish yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: bojxona, vaqtincha olib kirish, davriy bojxona to'lovlari, avtotransport vositasini qaytarib olib chiqish to'g'risidagi majburiyatnoma, konvensiya, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Yevropa ittifoqi.

Аннотация: В статье, основываясь на зарубежную практику и международные нормы в сфере таможенного дела, проведен анализ порядка временного ввоза иностранных транспортных средств в Узбекистан. Внесены предложения по имплементации с ними норм национального законодательства.

Ключевые слова: таможня, временный ввоз, периодические таможенные платежи, обязательство по вывозу автотранспортного средства, конвенция, Евразийский экономический союз, Европейский союз.

Bugungi kunda mamlakatimiz **Prezidenti Sh.Mirziyoyev** tashabbuslari bilan Yangi O'zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi iqtisodiy faoliyatini yuritish borasidagi oqilona siyosat, amalga oshirilayotgan juda keng ko'lamli islohotlar va ulkan o'zgarishlar, ishlab chiqilayotgan Yo'l xaritalari, qabul qilinayotgan Konsepsiya va Strategiyalar, belgilanayotgan chora-tadbirlar jahon hamjamiyati tomonidan **yuksak darajada** e'tirof etilmoqda. Bular, o'z navbatida mamlakatda tashqi savdo jarayonlarini yanada erkinlashtirish, o'zaro manfaatli xalqaro iqtisodiy integratsiyani jadallashtirish, bojxona nazorat va rasmiylashtiruv bilan bog'liq tartib-taomillarning optimal shaffof mexanizmini yaratish, chegara bojxona postlari faoliyati hamda bojxonaoldi va logistika infratuzilmasini xalqaro standart talablariga javob beradigan jahondagi yetakchi mamlakatlar darajasiga olib chiqish, TIF subyektlari uchun qulay tranzit koridorlarini yaratish, investitsion jozibadorlikni ta'minlash, har qanday qonuniy biznes yuritish uchun qulay bo'lgan oshkora muhitni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, mamlakatimizga fuqarolar tomonidan xorijiy avtotransport vositalarini o'z ehtiyojlarida foydalanish maqsadida vaqtinchalik olib kirish bilan bog'liq tartib-taomillarda, uning to'laqonli nazoratini ta'minlashda milliy normativ-huquqiy hujjatlarda bir qator nazariy, amaliy, metodologik bo'shliqlar hanuzgacha saqlanib qolayotganligi, bu borada uning ilmiy asoslangan yechimini topish har qanday ilmiy tadqiqotchidan

chuqur fikr va mulohaza yuritishni taqozo etadi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Avtotransport vositalarining ichki bozorini rivojlantirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" **2022-yil 22-fevraldagi PQ-137-son** qarori bu boradagi mavjud muammolarni hal etishda yana bir muhim qadam bo'ldi.

Mazkur hujjatga muvofiq, yangi – ishlab chiqarilgan sanasidan O'zbekiston bojxona chegarasini kesib o'tgan kungacha **1 yildan ortiq** vaqt o'tmagan avtomobillarni import qilishda bojxona boji **2 bosqichda** pasaytiriladi. Jumladan:

birinchi bosqichda – 2022-yil 23-fevraldan boshlab bojxona bojining **advalor stavkasi 30 foizdan 15 foizga** pasaytirildi;

ikkinchi bosqichda – 2023-yil 1-yanvardan boshlab dvigatel quvvatining har bir kub santimetri uchun belgilangan qo'shimcha koeffitsientlar **2 barobar** va undan ko'proqqa kamaytiriladi.

Biroq, qonunchilikda avtotransport vositalarini vaqtincha olib kirish bo'yicha xalqaro huquqni qo'llash amaliyotida hanuzgacha **nomuvofiq normalarning mavjudligi**, bu borada zarur islohotlar qilishni taqozo etmoqda.

Jumladan, qonunchilik hujjatlariga muvofiq, faqat **chet el fuqarolari** va **O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning** shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun olib kiriladigan avtotransport vositalari vaqtincha olib kirilishi mumkin [1].

Bunda, xorijiy avtotransport vositasi chegaradan respublikamizga kirishida bojxona organi tomonidan “Avtotransport vositasini qaytarib olib chiqish to‘g‘risida **majburiyatnoma**” (keyingi o‘rinlarda – “majburiyatnoma”) rasmiylashtiriladi.

2021-yilda respublikamizga chet el fuqarolarining jami **63 331 ta** yengil avtotransport vositalari **73 ta** davlatdan vaqtincha olib kirish uchun majburiyatnomalar rasmiylashtirilgan bo‘lib, ularning **99 foizi 5 ta** davlat, ya‘ni **Qirg‘iziston** (27 014 ta), **Qozog‘iston** (24 977 ta), **Tojikiston** (6 952 ta), **Afg‘oniston** (2 224 ta) va **Rossiya** (1 705 ta) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Chet ellik fuqarolar tomonidan notijorat maqsadlarda vaqtincha olib kirilgan avtotransportning bojxona hududida bo‘lishining umumiy muddati kalendar yil mobaynida jami **90 kalendar kundan oshmasligi lozim**. Majburiyatnoma avtotransport vositasi **bojxona bojlari va soliqlardan to‘liq ozod etilgan muddatda** amal qiladi.

Majburiyatnomani rasmiylashtirish uchun xorijiy avtotransport egasi (haydovchisi) tomonidan taqdim etilgan fuqarolik pasporti, avtotransport vositasini qayd etish guvohnomasi va og‘zaki ma‘lumotlar asos bo‘ladi. Avtotransport egasi (haydovchisi) o‘zi bilan birga majburiyatnomani olib yurishi shart.

Bunda avtotransport vositasini Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan yig‘imni to‘lagan holda yuqorida ko‘rsatilgan muddatdan ortiqroq muddatga vaqtincha olib kirishga yo‘l qo‘yiladi.

Xususan, Hukumat qaroriga asosan avtotransport vositasini bir kalendar yil davomida **90 kalendar kundan** ortiq muddatga vaqtinchalik olib kirganlik uchun olib chiqib ketish muddatining o‘tkazib yuborilgan har kuni uchun avtotransport vositasining har bir ot kuchidan BHMning **0,7 foizi** miqdorida yig‘im undiriladi [2]. Bunda, umumiy hisoblangan yig‘imlar qiymati, avtotransport vositasini “erkin muomalaga chiqarish” rejimiga joylashtirganda to‘lanishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlari summasidan oshmasligi shart.

Misol uchun, Qozog‘iston fuqarosi **150 ot kuchiga**, Qozog‘iston davlat raqamiga ega bo‘lgan avtotransport vositasini O‘zbekiston hududida

kalendar yili davomida **90 kalendar kunigacha** bepul minib yurishi mumkin. Agar **90 kundan** oshsa, har bir kun uchun **283 500** (150x1 890) so‘m miqdorida yig‘im to‘lashi lozim.

Agar **90 kunlik** muddat o‘tsada, ammo avtotransport vositasi O‘zbekiston hududidan **olib chiqilmasdan** va **yig‘im to‘lamasdan yurilsa**, ushbu avtotransport vositasi Davlat yo‘l harakati

xavfsizligi organlari tomonidan aniqlanadi hamda vakolatli shaxsga nisbatan qonuniy chora ko‘riladi.

Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 227¹⁶-moddasida xorijiy avtotransport vositasini respublika hududidan qaytarib olib chiqish muddatini buzganlik uchun ma‘muriy javobgarlik belgilangan.

Bugungi kunda, ushbu qonun bilan ma‘muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxslar belgilangan yig‘imni bir kun muddatda to‘lagan taqdirda, ma‘muriy javobgarlikdan ozod etiladi.

Bundan tashqari, chet el fuqarosi vaqtincha olib kirilgan xorijiy avtotransport vositasini faoliyat hududida joylashgan TIF bojxona posti orqali **bojxona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirib**, ya‘ni **davriy bojxona to‘lovini** to‘lagan holda erkin muomalaga chiqarish imkoniyati ham mavjud.

Buning uchun avtotransport vositasining bojxona rasmiylashtiruvida bojxona organlariga Hukumatning “Eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda davlat bojxona xizmati organlariga taqdim etiladigan hujjatlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” 2015-yil 20-iyuldagi 197-sonli qaroriga asosan tegishli hujjatlar taqdim etiladi.

Bunda, davriy bojxona to‘lovlari avtotransport vositasi vaqtincha olib kirilgan har bir to‘liq va to‘liq bo‘lmagan **kalendar oy** uchun, uni vaqtincha olib kirish rejimiga joylashtirilgan kunda erkin muomalaga chiqarish (import) rejimiga joylashtirilganda to‘lanishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlari summasining **5 foizi** miqdoridagi mablag‘ chet el valyutasida hisoblanadi va milliy valyutada undiriladi. Shaxs to‘lanishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlarining umumiy summasini to‘lashi yoki tegishli davr boshlanguniga qadar davriy bojxona to‘lovlari **har oyda** yoxud yilning **har choragida** to‘lash huquqiga ega.

To‘lanadigan davriy bojxona to‘lovlarining umumiy summasi avtotransport vositasini vaqtincha olib kirish rejimiga rasmiylashtirilgan kuni erkin muomalaga chiqarish (import) rejimiga joylashtirilganda to‘lanishi lozim bo‘lgan, bojxona to‘lovlarining summasidan **ortiq bo‘lmasligi lozim**.

Vaqtincha olib kirilgan yengil avtotransport vositalaridan **355 tasi** “erkin muomalaga chiqarish (import)” rejimiga **2021-yilda** rasmiylashtirilib, **34,2 milliard** so‘m miqdorida davriy bojxona to‘lovlari va utilizatsiya yig‘imi undirilgan.

Chet davlatda ro‘yxatda o‘tgan avtotransport vositalarini O‘zbekiston fuqarolari vaqtincha olib kirishi mumkinmi degan savolga **javob aniq**, chunki qonunchilikda ushbu tartibotni taqiqlovchi norma mavjud.

Xususan, Bojxona kodeksining 62-moddasiga

muvofiq, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan chet el avtotransport vositalarini shaxsiy ehtiyojda foydalanish uchun **vaqtincha olib kirishga ruxsat etilmaydi**.

Vaholanki, O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida tashqi iqtisodiy faoliyatdagi **tenglik prinsipi** nazarda tutilgan.

Shuningdek, xalqaro amaliyotni o'rganish natijalari, ayrim davlatlarda o'z fuqarolari tomonidan shaxsiy ehtiyoj uchun vaqtincha olib kiriladigan avtotransport vositalari uchun **qulay tartib o'rnatilganligini ko'rsatmoqda**.

Masalan, **Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi** (*Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qig'iziston, Rossiya*) Bojxona kodeksiga ko'ra [3], a'zo davlatlarning jismoniy shaxslari tomonidan ittifoq a'zosi hisoblanmagan davlatda ro'yxatdan o'tgan shaxsiy ehtiyojda foydalanish uchun avtotransport vositalarini **1 yildan ortiq** bo'lmagan muddatda **bojxona to'lovlari va soliqlarsiz** vaqtincha olib kirishga ruxsat etilgan.

Bunda, shaxsiy foylanish uchun avtotransport vositalarini bojxona hududiga olib kirishda **naqd pul, bank kafolati, kafillik yoki mulk garovi** asosida bojxona to'lovlari to'lash majburiyatini bajarishi shart [4].

Avtotransport vositalaridan vaqtincha foydalanish mumkin bo'lgan muddat tugaganidan so'ng bunday avtotransport vositalari bojxona hududidan olib chiqilishi yoki Bojxona kodeksida belgilangan tartibda tegishli bojxona rejimiga joylashtirishi lozim (erkin muomalaga chiqarish (import), davlat egaligiga o'tkazish va h.k.lar).

Yevropa ittifoqining 2454/93-sonli Reglamentiga ko'ra, ittifoq bojxona hududi **rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar** tomonidan shaxsiy maqsadlarda avtotransport vositalarini vaqtincha olib kirish rejimida foydalanishga faqat quyidagi hollarda ruxsat etiladi:

- ish joyidan (Yevropa ittifoqdan tashqarida) **xodimning yashash joyiga (Yevropa ittifoqiga) borish va aksincha;**

- Yevropa ittifoqi doirasida xodimning kasbiy majburiyatlarini bajarish maqsadida harakatlanish.

Avtotransport vositasidan yuqoridagi holatlardan boshqa hollarda foydalanish uchun bojxona to'lovlari to'lash orqali uni erkin muomalaga chiqarish talab etiladi.

"Vaqtincha olib kirish to'g'risida"gi konvensiya (Istambul,

1990-yil iyun) 1 yil muddatgacha amal qiluvchi imtiyozlarni tatbiq etish uchun shaxsiy

foydalanishdagi transport vositalari vaqtincha olib kirish hududidan tashqarida joylashgan yoki undan tashqarida yashovchi shaxs nomiga ro'yxatga olingan bo'lishi, olib kirilishi va ushbu hududda yashovchi shaxslar tomonidan foydalanilishi kerak [5].

Ushbu konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-apreldagi PQ-4694-son qarori bilan a'zo bo'lganmiz, biroq uning "S", ya'ni transport vositalari bilan bog'liq ilovasi qabul qilinmagan.

Ta'kidlash joizki, mazkur xalqaro standartda chet el fuqarosi emas, hududdan tashqarida yashovchi shaxs nazarda tutilgan.

Yana bir muhim jihat, amaldagi qonunchilikda, dastlab vaqtincha olib kirilib, keyinchalik "erkin muomalaga chiqarish (import)" joylashtirilgan avtoransport vositasini boshqa shaxsga o'tkazish tartibi mavjud va bu Bojxona kodeksining 67-moddasi bilan tartibga solingan.

Bunda, vaqtincha olib kirilgan tovardan foydalanish va (yoki) uni tasarruf etish huquqini vaqtincha olib kirish rejimining amal qilishi tugaguniga qadar boshqa shaxsga o'tkazishga, basharti ushbu shaxs bojxona organlari oldida vaqtincha olib kirish rejimi shartlariga bundan buyon ham rioya etilishi bo'yicha yozma majburiyatlarni o'z zimmasiga olsa, yo'l qo'yiladi.

Biroq, majburiyatnoma asosida vaqtincha olib kirilgan avtoransport vositalarini boshqa shaxsga o'tkazish masalasi qonunchilik bilan tartibga solinmagan.

Vaholanki, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 21-dekabrda

O'RQ-654 Qonuni bilan qabul qilingan "Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risida"gi xalqaro Konvensiyaning (Kioto, 1973-yil 18-may, 1999-yil 26-iyunda qabul qilingan o'zgartirishlar bilan) **"G" maxsus ilovasiga** ko'ra, bojxona organi vaqtincha olib kirilgan avtotransport vositasini, agar belgilangan shartlarga mos bo'lsa va shaxs avtotransport vositasini vaqtincha olib kirgan birinchi shaxsning majburiyatlarini o'ziga olsa, istalgan boshqa shaxsga o'tkazishi shart.

Shuningdek, **"Vaqtincha olib kirish to'g'risida"**gi konvensiya (Istambul, 1990-yil 26-iyun) ga asosan shaxsiy foydalanish uchun avtotransport vositalaridan vaqtincha olib kirish huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan tegishli ravishda vakolat berilgan uchinchi shaxslar foydalanishi mumkin. Har bir Ahdlashuvchi tomon o'z hududida yashovchi shaxsga transport vositasidan foydalanishga, agar bu shaxs transport vositasidan

vaqtincha olib kirish huquqiga ega bo'lsa va uning nomidan foydalansa, ruxsat berishi mumkin [6].

Majburiyatnoma asosida vaqtincha olib kirilgan avtotransport vositalarini boshqa shaxsga o'tkazish masalasining **tartibga solinmaganligi**, respublika hududiga dastlab chet el fuqarosi nomiga vaqtincha olib kirish rejimiga majburiyatnoma asosida avtotransportlarni rasmiylashtirish va keyinchalik **O'zbekiston fuqarolari tomonidan** (xorijda rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida) ichki hududda boshqarish holatlarini ortib borayotganligiga sabab bo'lmoqda.

Amaldagi qonunchilik talabiga ko'ra, **jismoniy shaxslar respublika hududida** yangi import avtomobillari bilan chakana savdo qilish huquqiga ega bo'lmaganligi sababli, chet el fuqarosi nomiga rasmiylashtirilgan avtotransport vositalarini O'zbekiston fuqarolari tomonidan ichki hududda foydalanib yurishi xufyona iqtisodiyotning bir turiga aylanayotganligi ham ayni **haqiqat**.

Yengil avtotransport vositalarini vaqtincha olib kirish huquqini O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga ham berilsa, respublikada mavjud avtomobil yo'llarining infratuzilmasi bunga bardosh bera olmaydi. Sababi, xorijiy avtotransport vositalarini ko'payishi respublika hududida

tirbandliklar oshishiga olib keladi.

Shu sababli, xorijiy amaliyot va xalqaro qoidalarni inobatga olgan holda:

1) **yangi**, ya'ni ishlab chiqarilgan sanasidan O'zbekiston bojxona chegarasini kesib o'tgan kungacha **3 yildan** ortiq vaqt o'tmagan xorijiy yengil avtotransport vositalarini **xorijiy davlatlarda qonuniy mehnat qilayotgan, o'sha davlatda vaqtincha yashayotgan O'zbekiston fuqarolariga 1 kalendar yili mobaynida 90 kalendar kuni** muddatiga majburiyatnoma va Bojxona kodeksining 47-bobiga muvofiq bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash sharti bilan olib kirishga ruxsat berish;

2) avtotransport vositasini vaqtincha olib kirgan chet ellik fuqaroning majburiyatnoma va bojxona rejimi bilan bog'liq majburiyatlarini o'z zimmasiga olsa, O'zbekiston **fuqarosiga o'tkazish imkoniyatlarini** milliy qonunchilik bilan tartibga solish, maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi takliflar, fuqarolarimiz uchun nafaqat **qulay tashqi savdo muhitini shakllanishiga** asos bo'ladi, balki **qonuniy migratsiyani rag'batlantiradi** va vaqtincha olib kirish bojxona rejimi hisobidan **byudjet mablag'lari tushumini ortishiga** xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bojxona chegarasidan olib o'tilayotgan avtotransport vositalarini bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010-yil 19-noyabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2156)], 2-band // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrdagi "Bojxona yig'implari stavkalarini tasdiqlash to'g'risida" 700-son qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.

3. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi Bojxona kodeksining 266-moddasi. <https://www.alta.ru/codex-2018/R5/GL37/ST266/>

4. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi Bojxona kodeksining 264-moddasi. <https://www.alta.ru/codex-2018/R5/GL37/ST264/>

5. "Vaqtincha olib kirish to'g'risida"gi konvensiya "S" ilovasining 3-bob, 5-modda, "b" kichik bandi. <https://normativ.kontur.ru/document?moduleId=1&documentId=17501>

6. "Vaqtincha olib kirish to'g'risida"gi konvensiya "S" ilovasining 3-bob, 7-modda, "b" kichik bandi. <https://normativ.kontur.ru/document?moduleId=1&documentId=17501>



TEMIR YO'L TRANSPORTIDA YO'LOVCHILARNI TASHISHDA BOJXONA NAZORATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MATEMATIK MODELLASHTIRISH MASALALARI

B.Otaniyozov - Bojxona instituti fakulteti boshlig'i,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,
S.Ergashev - Bojxona instituti markaz inspektori

Annotatsiya: Ushbu maqolada temir yo'l transportida yo'lovchilarni tashishda bojxona nazorati samaradorligini oshirish bo'yicha xalqaro tajribalar hamda ushbu sohaga matematik apparatni qo'llash ahamiyati yoritilgan, shuningdek olib borilgan tadqiqot jarayonlari asosida kerakli amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Matematik modellashtirish, xavfni boshqarish tizimi, PNR va API texnologiyalari.

Аннотация: В статье освещается международный опыт повышения эффективности таможенного контроля при перевозке пассажиров по железной дороге, а также важность использования математического аппарата в этой области, а также разработанные необходимые практические рекомендации.

Ключевые слова: математическое моделирование, система управления рисками, технологии API и PNR.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi bojxona tizimida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bojxona organlari faoliyati samaradorligini oshirishda zamonaviy raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining o'rni va ahamiyati juda yuqori. Shu sababli bojxona organlari faoliyatiga sohaga matematik apparatni tatbiq qilish asosida tizimdagi barcha jarayonlarni raqamlashtirish – avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minot yaratish orqali "raqamli bojxona"ni tashkil etish zamon talablaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, 2016-yil Butunjahon bojxona tashkiloti tomonidan "Raqamli bojxona yili" deb e'lon qilingan edi. Shu o'rinda tabiiy savol tug'ilishi mumkin. Raqamli bojxona tizimi o'zi nima? Raqamli bojxona bu, sohaga matematik apparatni keng tatbiq qilgan holda axborot — kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, ma'lumotlar bazasi, giperaloqa, internet tarmog'idan foydalangan holda elektron bojxona texnologiyalari orqali ma'lumotlarni qayta ishlash (*Big data*), telematika (*informatikaning bir qismi bo'lib, ma'lumotlar yig'indisi, masofadan boshqarish va masofadan nazorat qilish*), bulutli texnologiyalar, transport telematikasi (*transportlarni sputnik orqali monitoring qilish*) demakdir.

Rivojlangan davlatlar qatori O'zbekiston bojxona organlariga keng miqyosda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi sohada katta o'zgarishlarga olib keldi. Xususan,

bojxona organlarida hozirgi vaqtda 40 dan ortiq DBQ YAAT dasturlari ishlatilayotganligi bojxona organlari faoliyat samaradorligining oshishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 5-iyundagi "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni [1] mamlakatimizda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda, O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan izchil islohotlarni amalga oshirish uchun yana bir katta qadam bo'ldi. Ushbu farmon bilan bojxonada xavflarni boshqarish tizimini bosqichma-bosqich avtomobil, temir yo'l va avia chegara bojxona postlariga joriy etish hamda bojxona qonun hujjatlari buzilishining oldini olish maqsadida, xavflarni boshqarish tizimi va xavflarni kamaytirish metodikasini amaliyotga samarali qo'llash belgilab berildi.

Shunga asosan, ushbu maqolada temir yo'l transporti orqali yo'lovchilarni tashishda ularning bojxona qonunchiligiga itoatkorligini o'rganish, ular haqidagi tegishli bojxona statistikasi ma'lumotlarini tahlil qilish, shuningdek yo'lovchilarga tegishli ma'lumotlarni identifikatsiya qilish va shu asosda xavflarni baholash hamda boshqarish yordamida bojxona nazorati samaradorligiga erishish masalasi bo'yicha fikr yuritimiz.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, yuqorida qayd etilgan masalani hal qilishimiz uchun:

temir yo'l transportida yo'lovchilarni tashishda milliy bojxona nazoratining bugungi kundagi ahvolini o'rganish;

temir yo'l transportida yo'lovchilar tashishda bojxona nazoratini tashkil etishning xorij tajribalarini o'rganish;

ushbu yo'nalishdagi xorijiy tajribalarning milliy qonunchiligimizga mos keluvchi qismlarini O'zbekiston Respublikasida bojxona sohasiga keng joriy qilish;

temir yo'l transporti orqali harakatlanayotgan yo'lovchilarni identifikatsiyalashning matematik modelini yaratish asosida xavflarni boshqarish, bojxona qonunchiligining samaradorligini oshirish;

matematik modellashtirish asosida temir yo'l transporti orqali yo'lovchilarni tashishda bojxona nazoratini samarali tashkil etishning milliy modelini ishlab chiqish talab etiladi.

Bugungi kunda temir yo'l transporti orqali mamlakatimizga kirib kelayotgan yo'lovchilar uchun bojxona nazorati tartib-tamoyillarini belgilash bo'yicha asosiy hujjatlar sifati O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 2-mayda ro'yxatdan o'tgan "Temir yo'l transporti yo'lovchilarining qo'l yukini, bagajini, valyutasini va valyuta boyliklarini bojxona nazoratidan o'tkazish va rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 3233 sonli nizom [2] hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-noyabrda "O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida chegara, bojxona, sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazoratini tashkil etish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 912-son qarori [3] xizmat qilmoqda.

Ushbu hujjatlarga asosan, O'zbekiston Respublikasiga kirishda temir yo'l nazorat o'tkazish punktlarida qo'yidagicha tartib-tamoyillar o'rnatilgan.

1. Poyezdlardan yo'lovchilarni tushirib nazoratdan o'tkazish punktlarida: yo'lovchilar, odatda, vagonlar, lokomotivlar, temir yo'l vokzali binosida yoki buning uchun maxsus ajratilgan boshqa joylarda chegara, bojxona, sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazoratidan o'tkaziladilar.

2. Poyezdlardan yo'lovchilar tushirilmaydigan o'tkazish punktlarida:

- qo'shma naryad ichki ishlar organlari bilan birgalikda o'tkazish punktida zarur rejim cheklovlari bajarilishini ta'minlaydi;

- chegara nazorati bo'linmasi, bojxona organi

va sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazorati xodimlari temir yo'l tarkibiga yuboriladi va tekshiruvlarni amalga oshiradilar.

Shuningdek, yo'lovchilarni va ularning bagajlarini bojxona nazoratidan o'tkazish bo'yicha qo'yidagi vaqt normalari belgilangan:

- bitta yo'lovchining qo'l yuki, bagaji, valyuta va valyuta qimmatliklarining bojxona ko'rigi, bojxona ko'zdan kechiruvi hamda yo'lovchi bojxona deklaratsiyasini rasmiylashtirish vaqti **1,5 daqiqa** ichida;

- yo'lovchini shaxsiy ko'rikdan o'tkazish vaqti **30 daqiqa** ichida;


- bitta bagajning bojxona ko'rigi va (yoki) bojxona ko'zdan kechiruvi **10 daqiqa** va alohida kuzatib boriladigan (bagaj, pochta va (yoki) pochta-bagaj vagonlaridagi) bagajni — **30 daqiqa** ichida amalga oshirilishi kerak.

Ushbu yo'nalishda yo'lovchilarga nisbatan xavfni boshqarish tizimi keng joriy qilinmaganligi yo'lovchilarni yalpi bojxona nazoratidan o'tkazishga sabab bo'lmoqda, bu esa bojxona nazorati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mavzu yuzasidan chet el tajribalari o'rganib tahlil qilindi.

Mavzu doirasida xalqaro tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tomonidan bugungi kunda PNR (Passenger name record) va API (Advance passenger information) texnologiyalaridan keng foydalanib kelinmoqda (1-chizma).

2016-yil 27-aprelda Yevropa Ittifoqi Parlamenti tomonidan PNRdan foydalanish bo'yicha Direktiva [4] (Yevropa Ittifoqi Parlamenti tomonidan qabul qilinadigan akt) qabul qilingan va unga ko'ra yo'lovchi PNRda 19 turdagi (*PNR yozilgan lokatsiya, bron qilingan sana, mo'ljallangan sayohat sanasi, yo'lovchi ismi, manzil hamda kontakt ma'lumotlari, to'lov ma'lumotlari, sayohat agentligi, yo'lovchi sayohati holati va uning tasdiqlanganligi, bilet ma'lumotlari, o'rindiqlik raqami, barcha bagaj ma'lumotlari, API va h.k*) ma'lumot bo'lishi lozim. Ushbu ma'lumotlar asosida yo'lovchilar amalda davlat chegarasiga yetib kelgunlariga qadar ularni xavf darajasi bo'yicha tekshirish imkoniyati paydo bo'ladi.

AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Norvegiya kabi mamlakatlarning tajribalarini ko'radigan bo'lsak, ushbu mamlakatlarda yo'lovchilarni maqsadli davlat nazoratidan o'tkazish va ularga qo'shimcha qulayliklar yaratish uchun mobil ilovalar ishlab chiqilgan. Ushbu mobil ilovalar orqali yo'lovchilar tegishli nazorat zonasiga yetib



1-чизма. PNRning ishlash mexanizmi.

kelgunlariga qadar o'zlari kelayotganliklari va oldindan tayyorlangan nazorat savollariga javob bergan holda belgilangan nazorat turlaridan tez va samarali o'tishlari uchun imkoniyatlar yaratilgan.

Temir yo'l transportida yo'lovchilarni tashishda bojxona nazorati samaradorligiga erishishimiz uchun:

— yo'lovchilar haqidagi ma'lumotlarni (*poyezd raqami, vagon raqami, vagon rusumi, yo'lovchining pasport seriyasi, ismi va sharifi, tug'ilgan sanasi, jinsi, millati, jo'nash stansiyasi, kelish stansiyasi va boshqalar*) yig'ish, qayta ishlash va matematik modellashtirish usullari yordamida ularni kodlashtirish (raqamlashtirish) va shu asosda xavfni baholash bo'yicha filtrlash funksiyalarini yaratish hamda barcha jarayonlarni to'liq avtomatlashtirish (*dasturiy ta'minotini yaratish*);

- temir yo'l vokzallarida yoki maxsus zonalarda bojxona nazorati hududlarini tashkil etish;

- boshqa vazirlik va idoralar, organlar bilan yo'lovchilar haqidagi ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish;

- temir yo'l transportida yo'lovchilarni tashishda xavfni boshqarish tizimi samaradorligini oshirish;

- temir yo'l vokzallari yoki maxsus hududlarda tashkil etilgan bojxona nazorati punktlarida "yashil" va "qizil" yo'laklarni tashkil etish;

- bojxona nazoratidan o'tkazilayotgan yo'lovchilarni ular haqidagi ma'lumotlar asosida "yashil" va "qizil" yo'laklarga avtomatik tarzda yo'naltirishni amalga oshirishimiz zarur bo'ladi.

Shuningdek, hozirgi kunda bojxona sohasining rivojlanishi, undagi tashkiliy jarayonlarning murakkablashuvi, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi oqimiga kirib borishi tizimda zamonga mos, bojxona nazorati

samaradorligini oshiruvchi puxta ishlangan, matematik modellashtirish asosiga qurilgan tizimni ishlab chiqish talabini qo'ymoqda. Shu sababli, temir yo'l transporti orqali yo'lovchilarni tashishda ularga tegishli ma'lumotlar bazasini matematik modellashtirishimiz hamda bu yo'lovchilarga nisbatan xavfni boshqarish tizimini yo'lga qo'yishimiz zarur bo'ladi.

Temir yo'l transportida yo'lovchilarni tashishda bojxona nazorati samaradorligini oshirishning matematik modellashtirish masalalari deganda, temir yo'l transportida yo'lovchilarni tashishga oid ma'lumotlarni matematik modellashtirish asosida raqamlashtirish, ularni tahlil qilish va o'rganish hamda xavflarni baholash va boshqarishning matematik usullarini ishlab chiqish jarayonlari tushuniladi.

Ushbu masalani hal qilish uchun esa, temir yo'l transportida yo'lovchilarni tashishda bojxona nazorati samaradorligini oshirishning matematik modeli hamda uning dasturiy ta'minoti yaratilishi zarur bo'ladi. Buning uchun:

- DBQning axborot tizimlarida yo'lovchilarga tegishli bo'lgan ma'lumotlar bazasini yig'ish;

- kerakli ma'lumotlar tahlil qilinish va baholash;

- bojxona nazoratidan o'tkazishning dasturiy ta'minoti ishlab chiqish talab etiladi.

Temir yo'l transportida yo'lovchilarni tashishda bojxona nazorati samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar beriladi:

- yo'lovchilar haqidagi ma'lumotlarni (*poyezd raqami, vagon raqami, vagon rusumi, yo'lovchining pasport seriyasi, ismi va sharifi, tug'ilgan sanasi, jinsi, millati, jo'nash stansiyasi, kelish stansiyasi va boshqalar*) yig'ish, qayta ishlash va matematik

modellashtirish usullari yordamida ularni kodlashtirish (*raqamlashtirish*) va shu asosda xavfni baholash bo'yicha filtrlash funksiyalarini yaratish hamda barcha jarayonlarni to'liq avtomatlashtirishga qaratilgan dasturiy ta'minotni ishlab chiqish hamda uni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish;

- O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali harakatlanayotgan yo'lovchilarning bojxona nazoratidan o'tkazish vaqtini qisqartirish, ularga qo'shimcha qulaylik yaratish hamda yo'lovchilarga nisbatan xavfni baholash mexanizmini yanada

soddalashtirish imkoniyatini yaratuvchi mobil ilova ishlab chiqish (1-rasm);

- "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tomonidan bojxona organlariga berilayotgan yo'lovchilarga doir ma'lumotlardagi kamchilik va xatoliklarni bartaraf etish, shuningdek, IIVning axborot tizimlarida O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga tegishli bo'lgan quyidagi ma'lumotlarni DQB YAAT dasturlarga integratsiya qilish lozim bo'ladi.

Mavzuni o'rganish natijalaridan ko'rinib turibdiki, temir yo'l transportida yo'lovchilarni tashishda



1-rasm. Mobil ilovaning umumiy ko'rinishi.

bojxona nazorati samaradorligini oshirishning ***matematik modellash*** ***tirish masalalari*** [5] deganda, temir yoʻl transportida yoʻlovchilarni tashishga oid maʼlumotlarni matematik modellash tirish asosida raqamlashtirish, kodlashtirish, ularni tahlil qilish va oʻrganish hamda xavflarni baholash va boshqarishning matematik usullarini ishlab chiqish jarayonlari tushuniladi.

Ushbu muammoni ijobiy hal qilishimiz uchun:

- temir yo‘l transportida yo‘lovchilarni tashishda milliy bojxona nazoratining bugungi kundagi ahvolini chuqur o‘rganish;

- O'zbekiston sharoitida temir yo'l transportida yo'lovchilarni tashishda bojxona nazoratining xorijiy tajribalarini o'rganish va ularni milliy bojxona tizimiga qo'llash;

- temir yoʻl transportida yoʻlovchilarni tashishda bojxona nazoratini samarali tashkil etishda qoʻllaniladigan matematik modellashirish usullarini oʻrganish;

- xorijiy tajribalardan va milliy bo'jxona qonunchiligidan kelib chiqqan holda yo'lovchilar haqidagi ma'lumotlar bazasini matematik modellashirish asosida bo'jxona nazorati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi dasturiy ta'minot ishlab chiqish;

- shaxsni maqsadli nazoratdan o'tkazishning mobil ilovasini yaratish;

- tadqiqot jarayonida olingan natijalarni va ishlab chiqilgan dasturiy ta'minotni amaliyotga tatbiq etish

va uni takomillashtirish, xatoliklar ustida ishlash;

- bo'jxona qonunchiligiga tegishli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqish kabi jarayonlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek, yuqorida keltirilgan jarayonlarni amalga oshirishimiz uchun davlatlar, vazirliklar va idoralararo temir yoʻl transportida harakatlanuvchi yoʻlovchilar haqidagi maʼlumotlar almashinuvini talab darajasida yoʻlga qoʻyish lozim boʻladi.

Yuqorida qayd etilgan jarayonlarni ijobiy hal etish orqali:

- yo'lovchilar haqidagi ma'lumotlar bazasini matematik modellashirish asosida bojxona nazoratini tashkil etishni qisman avtomatlashtirish;

- yo'lovchilar haqidagi ma'lumotlar bazasini matematik modellashdirish asosida xavflarni baholash;

- DBQ Xavfni boshqarish tizimi uchun fuqarolarning xavflilik darajalari bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

- xavfni baholash asosida yo'lovchilarni bojxona nazoratidan o'tkazish samaradorligini oshirish;

- yo'lovchilarni bojxona nazoratidan o'tkazishga sarflanadigan vaqtni qisqartirish;

- Respublikamizda temir yoʻl transportida yoʻlovchilar uchun boʻxona nazoratini oʻtkazish jarayonlarini jahon standartlariga integrallashuvini amalga oshirishda erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6005 son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.

2. “Temir yoʻl transporti yoʻlovchilarining qoʻl yukini, bagajini, valyutasini va valyuta boyliklarini bojxona nazoratidan oʻtkazish va rasmiylashtirish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 3233-sonli nizom.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-noyabrdagi "O'zbekiston respublikasining davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida chegara, bojxona, sanitariya-karantin, fitosanitariya va veterinariya nazoratini tashkil etish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida" 912- son qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.

4. https://ec.europa.eu/home-affairs/what-we-do/policies/law-enforcement-cooperation/information-exchange/pnr_en

5. B.J.Otaniyozov, S.Ergashev. Davlat bojxona qo‘mitasining Bojxona institutida 2021-yil 20-aprel kuni o‘tkazilgan “Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv sharoitida O‘zbekiston tashqi savdosini rivojlantirishning dolzarb muammolari va istiqbollari” ilmiy anjuman. Temir yo‘l transportida yo‘lovchilarni tashishda bojxona nazorati samaradorligini oshirishda matematik modellashirishning ahamiyati mavzusidagi tezis.



СОВРЕМЕННЫЕ РЕШЕНИЯ ПО ЭФФЕКТИВНОМУ ПРИМЕНЕНИЮ ИНСПЕКЦИОННО-ДОСМОТРОВЫХ КОМПЛЕКСОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТАМОЖНИ

*У.Ибрахимов - старший преподаватель
кафедры Таможенного института*

Annotasiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan qo'llaniladigan bojxona nazoratining texnik vositalarini, shu jumladan inspeksion ko'rik majmualarini yagona tizimga integratsiya qilish orqali bojxona nazorati jarayonida inspeksion ko'rik majmualarini samarali qo'llash, inson omilini kamaytirish masalalari xafi jarayonni yanada takomillashtirish istiqbollari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: bojxona organlari, bojxona ko'zdan kechiruv, inspeksion ko'rik majmualari, bojxona nazoratining texnik vositalari.

Аннотация: В статье исследованы перспективы эффективного применения инспекционно-досмотровых комплексов в процессе таможенного контроля путем интеграции технических средств таможенного контроля, в том числе инспекционно-досмотровых комплексов, используемых таможенными органами Республики Узбекистан в единую систему, а также разработанные предложения по снижению человеческого фактора и дальнейшему совершенствованию процесса.

Ключевые слова: таможенные органы, таможенный осмотр, инспекционно-досмотровые комплексы, технические средства таможенного контроля.

Процветание и перспективы развития Республики Узбекистан, успех проводимых широкомасштабных реформ напрямую зависят от внедрения новых инноваций в национальную экономику. Поэтому важное значение имеет внедрение и совершенствование цифровой экономики во всех секторах экономики, в том числе и в сфере таможни.

В Послании к Олий Мажлису Президентом Республики Узбекистан Ш.Мирзиёевом 24 января 2020 года были отмечены наиболее важные задачи, такие как «*Завершение и внедрение в двух месячный срок разработку программы «Цифровой Узбекистан – 2030»*» [1], которая предусматривает развитие всех секторов экономики на основе цифровых технологий.

На сегодняшний день внедрение цифровых технологий в национальную экономику поднимается до государственного уровня, и в этом направлении реализуются широкомасштабные меры по цифровизации всех отраслей. В частности, совершенствуется нормативно-правовая база, развиваются системы электронных платежей - созданные для осуществления электронной коммерции, внедряются системы электронного документооборота.

Всемирной таможенной организацией (ВТО) 2016 год был объявлен годом «Цифровой таможни». В 2016 году таможенные органы должны были активно демонстрировать

использование современных информационных и коммуникационных технологий в целях правильного исчисления и обеспечения гарантии уплаты таможенных пошлин, качественного осуществления контроля перемещения товаров, транспортных средств, а также для обеспечения безопасности трансграничной торговли [2]. ВТО под девизом Цифровая Таможня - прогрессивное взаимодействие, объявило о стремлении к дальнейшему развитию внедрения цифровых решений и услуг, в целях модернизации и оптимизации методов работы таможни.

«Цифровую» таможню можно считать логической последовательной цепочкой для достижения «Умной» (Smart) таможни, развитием «безбумажной таможни» и «электронной таможни». Эволюцию этих четырех понятий условно можно сформулировать следующим образом: «безбумажный» – «электронный» – «цифровой» – «умный». В целях ускорения перевода таможенных операций и процедур в электронную среду во Всемирной таможенной организации разработаны Методические рекомендации по расширению использования информационных технологий должностными лицами таможни и ведутся работы по созданию ИТ-инструментов, обеспечивающих дальнейшую поддержку электронной деятельности таможенных органов [3]. В понятие «электронная таможня» входят элементы, охватывающие важнейшие этапы тамо-

женной очистки, производимые с помощью информационно-коммуникационных технологий (ИКТ).

Термин «Цифровая таможня» подразумевает широкое применение информационно-коммуникационных технологий, банка данных, облачных технологий, объединяющее и обрабатывающее информацию, полученную посредством технологий электронной таможни, а также глобальной сети Интернет и сотовых сетей [4].

Президент Республики Узбекистана Шавкат Мирзиёев на своём выступлении 5 февраля 2020 года поручил наладить систему, при которой контроль осуществляется не на границе, а до прибытия груза на границу или после выпуска продукции в свободное обращение. Президент также, отметил необходимость искоренения коррупции и незаконного оборота товаров посредством минимизации человеческого фактора, путём внедрения цифровых технологий. Перемещение импортируемой продукции от границы до конечного потребителя должно контролироваться через единую электронную систему таможенными и налоговыми органами.

Для обеспечения минимизации человеческого фактора в процессе таможенного контроля и оформления, необходимо увеличивать уровень и охват автоматизации системы управления рисками, минимизировать количества неавтоматизированных профилей рисков, применять комплексные современные алгоритмы сравнительного анализа различных информационных ресурсов со сведениями о перемещаемых товарах, транспортных средствах и о результатах совершенных таможенных операций, начиная с поступления предварительной информации о товаре и заканчивая конечными результатами таможенного аудита после выпуска товаров в свободное обращение.

Важным процессом в этой цепочке операций таможенного контроля является фактический осмотр товаров и транспортных средств на границе. При ввозе товаров на транспортных средствах, на границе таможенный осмотр проводится должностными лицами таможенных органов и от принятого решения должностного лица зависит дальнейшее передвижение транспортного средства.

Таможенный осмотр подразумевает внешнее исследование осматриваемого объекта и не предполагает вскрытия транспортного средства либо его грузовых помещений и нарушения упаковки товаров. Установлено, что целью выделе-

ния таможенного осмотра товаров в отдельную форму таможенного контроля является выявление окончательных (а не промежуточных, как имеет место быть при полноценном таможенном досмотре) результатов такого осмотра в самостоятельном первом процессуальном документе — акте таможенного осмотра. Как правило, таможенный осмотр предшествует таможенному досмотру.

Осмотр товаров и транспортных средств должен быть произведен как можно быстрее, в разумные сроки, но не в ущерб в качество осмотра. По мере накопления-опыта и с учетом стремительно развивающегося технического прогресса важным моментом должно стать регулярное обновление техническую составляющую таможенного осмотра. В процессе таможенного осмотра товаров и транспортных средств принципиальным является выполнение всех требований процедур, гарантирующих независимость, целостность, отсутствие внешних признаков сокрытия, и при этом обеспечивая безопасность и сохранность каждого груза, транспортных средств.

Одним из определяющих качество контроля и являющийся неотъемлемым элементом, в повседневной службе оперативных-сотрудников таможни является эффективное применение ими технических средств таможенного контроля, без использования которых в настоящее время невозможно обеспечить своевременность, качество и эффективность таможенного контроля.

На сегодняшний день вопросы разработки стандартов для определенных видов технических средств таможенного контроля, используемых в процессе таможенного контроля, имеют особое значение. Разработка стандартов технических средств таможенного контроля требует кропотливой работы, но разработка и внедрение позволит решить конкретные проблемы, в том числе вопросы, направленные на повышение эффективности использования технических средств таможенного контроля.

Современные и быстро развивающиеся таможенные технологии, прочно интегрированы в процесс таможенного контроля, как неотъемлемая часть. В последние годы органы таможенной службы Республики Узбекистан добились значительных успехов в разработке и широком применении таможенных технологий в области таможенного оформления и таможенного контроля. Таким образом, модернизация процесса таможенного осмотра товаров и транспортных средств, с использованием самых

современных технических средств таможенного контроля не только ускорит таможенное оформление, но и обеспечит соблюдение таможенного законодательства всеми участниками внешней торговли.

Путём автоматизации и внедрения информационных технологий в процесс таможенного осмотра можно обеспечить прозрачность и эффективность процесса таможенного осмотра.

В мировой практике самым эффективным средством таможенного осмотра является Инспекционно-досмотровые комплексы (далее - ИДК). С применением ИДК можно визуально увидеть не только структуру и состав товара, но и строение транспортного средства. Таким образом, можно не только идентифицировать товар по количеству и составу, но и можно выявлять сокрытые предметы внутри товара, а также в конструкции автотранспортного средства.

Кроме ИДК, приграничные таможенные посты оснащены электронными весами для взвешивания автотранспортных средств, системой автоматической регистрации номеров, системой радиационного контроля, системой видео наблюдения и другими средствами таможенного контроля. Но, не все эти средства контроля интегрированы в единую систему и тем более к системе СУР таможенных органов. Учитывая, что приграничные таможенные посты оснащены мобильными ИДК, в связи с этим сканирование и ввод в базу данных рентгеновского изображения конкретного транспортного средства зависит от человеческого фактора.

В будущем при модернизации приграничных таможенных постов и создании многоканальных таможенных постов следует учесть следующие моменты:

1. Нужно применить метод “Системы тотального автоматизированного пассивного осмотра (далее - СТАПО)” и сбора данных. При прохождении транспортного средства без остановки через систему радиационного контроля, одновременно фиксируется масса транспортного средства, проводится рентгеновский контроль, автофиксация номеров транспортного средства и фото сканирование автотранспортного средства из четырёх ракурсов (При этом перевозчик не теряет время, практически не ощущает этот контроль, нет лишних манёвров транспортного средства в зоне таможенного контроля).

2. Целесообразно интеграция базы данных СТАПО в систему СУР таможенных органов (Может служить в качестве оперативной инфор-

мации).

3. На основании предварительной информации и информации полученной СТАПО системой СУР должно приниматься решение о пропуске или решение произвести таможенный досмотр на месте;

4. Учитывая, что в данное время на таможенном посту в одной смене действует один специалист, который ответственный за применение ИДК и принятие решения относительно товара и транспортного средства, поэтому предлагается создать централизованный Центр анализа рентгеновского изображения (ЦАРИ), поступающий от всех таможенных постов.

В ЦАРИ будет поступать вся информация, а также полученная посредством СТАПО, а также будет функционировать профессиональные операторы ИДК. СУР таможенных органов будет назначать автоматически оператору задание по анализу изображения, предоставляя максимальную информацию об объекте, данные исследования могут способствовать выявлению правонарушений. Этим можно решить проблему нехватки кадров, равномерно распределять нагрузку на операторов, учитывать требования эффективной организации труда, исключить некоторые отрицательные человеческие факторы, которые могут влиять на качество анализа и достоверность решения. Системой СУР можно будет применять дублирование заданий операторам для перепроверки и увеличения достоверности решений операторов.

Внедрение ЦАРИ в разы увеличит количество выявления фактов правонарушения и при этом не будет препятствовать развитию внешней торговли, обеспечит прозрачность процесса и максимально снизит воздействия человеческого фактора при принятии достоверного решения в отношении товаров и транспортных средств при пересечении границы.



Рис.-1. Механизм управления системой СУР процессом таможенного контроля товаров и транспортных средств с применением ИДК

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР:

1. Послание-2020: главные тезисы из речи президента: https://www.norma.uz/nashi_obzori/poslanie-2020_glavnye_tezisy_iz_rechi_prezidenta.
2. Таможенный кодекс Республики Узбекистан утверждённый Законом от 20 января 2016 года № ЗРУ-400 «Об утверждении Таможенного кодекса Республики Узбекистан» // Национальная база данных Законодательства Республики Узбекистан, www.lex.uz.
3. Implications of Big Data for Customs. How It Can Support Risk Management Capabilities. – Официальный сайт ВТО. URL: <http://www.wcoomd.org/~media/wco/public/global/pdf/about-us/international-customs-day/2016/wco-sg-message-icd-2016-en.pdf?db=webb> (13.04.2017).
4. Сомов Ю.И., Ткаченко И.Е. Деятельность таможенных органов в условиях расширения электронной трансграничной торговли. – Вестник Российской таможенной академии, 2016. №4. – С. 44–49.



IQTISODIY INTEGRATSION JARAYONLARNING O‘ZBEKISTON EKSPORTINI RAG‘BATLANTIRISHGA TA’SIRI

A.A.Shadmankulov – Bojxona instituti kafedrası boshlig‘i, i.f.n., dotsent

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiy integratsiyaning O‘zbekiston Respublikasi eksportiga ta’siri, jumladan, Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayonlari hamda Yevropa Ittifoqining kengaytirilgan savdo preferensiyalari tizimini mamlakatimizga tatbiq etish masalalari ilmiy tahlil qilingan va asoslangan xulosa berilgan.

Аннотация: в статье исследовано научный анализ и обоснованны выводы по влиянию экономической интеграции на экспорт Республики Узбекистан, в том числе, изучен процесс вступления во Всемирную торговую организацию и вопросы применения расширенных системы торговых преференций Европейского Союза.

Kalit so‘zlar: eksport, tashqi savdo, integratsiya, preferensiya, erkin savdo zonasi, MDH, YeI, JST.

Ключевые слова: экспорт, внешняя торговля, интеграция, преференция, зона свободной торговли, СНГ, ЕС, ВТО.

O‘zbekiston Respublikasi dunyodagi geografik jihatdan eng qulay sharoitga hamda mo‘tadil iqlimga ega bo‘lgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Uning hududi yer osti foydali qazilmalariga va tabiiy resurslarga boy. Ayniqsa, tuproq unumdorligidan samarali foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va uni qayta ishlash sanoati uchun ulkan salohiyatga ega. Shu jumladan o‘z ehtiyojini qondirgan holda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini xorijiy bozorlarga eksport qilish uchun ham yetarli imkoniyatlar mavjud.

Eksport faoliyati iqtisodiyotni asosiy rivojlanish manba‘laridan biri sanaladi. Mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda xorijiy bozorlarga sotish mamlakatning yanada taraqqiy topishi va aholining turmush tarzini o‘shirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxonalarining barqaror rivojlanishiga va iqtisodiy samaraga erishishiga tashqi savdo yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini yanada oshirishga imkon yaratadi. Tashqi bozorlarga chiqish ishlab chiqaruvchilarga xorijiy bozorda o‘z mahsulotlari va xizmatlarining raqobatbardoshligini ta‘minlashga ko‘mak beradi. Bundan tashqari doimiy raqobat muhiti, qo‘shimcha sarmoyalar, innovatsiyalar va yangi ish o‘rinlari yaratishni rag‘batlantiradi.

Mamlakat qazilma boyliklari va homashyosiga nisbatan birinchi o‘rinda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan tovarlarning eksportni rag‘batlantirishga katta ahamiyat berishi kerak[1]. Umuman olganda, eksport faoliyatining rivojlanishi

mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘shirishini ta‘minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tashqi savdo tarkibida eksport hissasining kupayishi mamlakatning rivojlanganlik darajasini ham belgilayotgan ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor tovarlarni ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo‘llab – quvvatlash natijasida eksportning tarkibida sifat jihatidan o‘zgarishlarga erishilmoqda.

O‘tgan yillar davomida qayta ishlashni tashkil qilish natijasida eksport tarkibida homashyo hisoblangan paxta tolasining ulushi qisqartirilib, uning o‘rniga tayyor to‘qimachilik mahsulotining ulushi oshdi. Qishloq xo‘jaligida miqyosida klaster usulida qayta ishlashni tashkil qilish orqali kelgusi 10 yil davomida yetishtiriladigan paxta tolasini to‘liq qayta ishlangan va tayyor to‘qimachilik mahsulot holatida eksportga ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, yangi uzilgan, yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining qo‘shilgan qiymatini oshirish maqsadida klaster usulida qayta ishlashga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Xorijiy bozorlarga quritilgan va konservalangan mahsulotlarni yuborishni ortishi evaziga eksport tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining hissasi oshdi. Yaqin yillar ichida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini to‘liq qayta ishlangan va tayyor oziq-ovqat holida eksport qilishga o‘tish rejalashtirilgan.

Eksportni rivojlanishi uchun xorijiy bozorlarni topish bilan bir qatorda davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda eksportni tartibga solishni

liberallashtirish hamda rag'batlantirish jarayonlari bosqichma-bosqich hamda izchil tarzda mantiqiy ketma-ketlikda amalga oshirilmoqda.

Barcha mamlakatlar kabi O'zbekistonda ham tashqi savdo tarif hamda notarif usullardan foydalangan holda davlat tomonidan tartibga solinadi. Ushbu jarayonda bojxona to'lovlaridan oqilona foydalanish muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki davrlarida eksport hajmi minimal darajada bo'lgan bo'lsa-da, uning tarkibida asosiy qismini hom-ashyo tashkil qilgan. Ushbu davrda ichki bozorni tovarlar bilan to'yintirishga qaratilgan tadbirlar ustivor vazifa bo'lib hisoblanib, eksport bojlari ham qo'llanilgan hamda 1997-yildan boshlab ushbu boj turini qo'llash tajribasidan voz kechilgan. Bu esa, davlat tomonidan eksportni qo'llab quvvatlashga qaratilgan ilk qadamlardan biri bo'lgan. Mamlakat qonunchiligi bo'yicha 4 turdagi (import, eksport, alohida va mavsumiy) bojxona bojlari mavjud bo'lsa-da hozirgi kunda ulardan faqatgina 1 turi (import bojxona boji) amalda qo'llanilmoqda[2].

Ma'lumot uchun: *hozirgi kunda dunyoning ayrim davlatlarida foydali qazilma boyliklarni xorijiy bozorlarga sotishda hanuzgacha eksport bojlarini undirish tajribasi qo'llanilib kelinmoqda.*

O'zbekiston eksportining 1/3 qismini Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga (MDH) a'zo bo'lgan mamlakatlar tomonidan import qilinadi. 1993-yilda tuzilgan "MDHda Erkin savdo zonasini tashkil qilish to'g'risida"gi Kelishuvga a'zo bo'lgan davlatlar o'zaro tovar ayirboshlashda bojxona bojini undirish shartlarini qo'llaydi. O'zbekiston ham mazkur kelishuv ishtirokchisi bo'lib, uning tovarlarini MDH davlatlari bozorlariga olib kirish jarayonida preferensiya qo'llanilgan holda import bojxona bojini to'lashdan to'liq ozod qilingan. Bu esa, O'zbekiston tovarlarini asosiy maqsadli segmenti bo'lgan xorijiy bozorlarga kirib borishida qo'shimcha ustunlik va imkoniyat beradi.

Shuningdek, mamlakatda ishlab chiqarilgan hamda eksportga yo'naltirilayotgan tovarlarni mahalliy soliqlarning ayrim turlaridan ozod qilish imtiyozlari qo'llanilmoqda. Bu esa, ichki bozorga nisbatan xorijiy mamlakatlar bozori uchun mo'ljallab ishlab chiqarishni tashkil qilishga bo'lgan tadbirkorlarning qiziqishini ortishiga sabab bo'ldi.

Shu bilan birga, eksportga mo'ljallangan iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan xom ashyo, materiallar va butlovchi buyumlarning importi bo'yicha bojxona to'lovlaridan imtiyozlar qo'llanila boshlandi. Buning natijasida import o'rnini bosadigan hamda xorijiy bozor uchun ishlab

chiqarishni tashkil qilishga yo'naltirilgan choralarni yanada kuchayishiga olib keldi.

Mamlakatda eksport operatsiyalarini rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarga uyg'un ravishda bojxona yig'im stavkasi ham optimallashtirildi va bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqib undirilishi yo'lga qo'yildi [4].

Xorijiy mamlakatlar va integratsion tuzilmalar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni yanada mustahkamlashga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Yevropa Ittifoqi tuzilmalari bilan yaqin hamkorlikda mamlakatimizga kengaytirilgan savdo preferensiyalari (GSP+) tizimini tatbiq etish bo'yicha muhim qadamlar tashlandi. Ushbu tizim respublikamizda ishlab chiqariladigan 6000dan ziyod turdagi mahsulotlarni Yevropa bozoriga boj to'lamasdan olib kirish imkonini beradi.

Yuqorida sanab o'tilgan eksport bojxona bojini bekor qilish, imtiyoz va preferensiyalar ko'lamini kengaytirish, yig'im stavkalarini optimallashtirish, natijasidamahalliy tadbirkorlarning xorijiy bozorlarga chiqish hamda o'z o'rnini mustahkamlashga muhim hissa qo'shildi.

Globalashuv jarayonida dunyo miqyosida tovar bozori konyunkturasi shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Bu jarayonda iqtisodiyotni, shu jumladan, eksport faoliyatini xalqaro bozor konyunkturasining tezkor o'zgarishlariga mos ravishda qo'llab-quvvatlash uchun davlat ichki boshqaruv tizimini, xususan, bojxona xizmatini mobil tarzda moslashtirib borish bo'yicha zarur choralarni ko'rib borishni taqozo qiladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarda bojxona to'lovlarini optimallashtirish orqali eksport faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarning retrospektiv tahlili keltirildi. Shuningdek, eksportni yanada rivojlantirish xalqaro iqtisodiy integratsion jarayonlariga ham bevosita bog'liq.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish masalasidagi mahalliy olim va mutaxassislarning fikri shartli ravishda ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhdagilar savdoni erkinlashtirish uchun mazkur tashkilotga a'zo bo'lish tarafdori bo'lsa, ikkinchi guruhda bunga qarama-qarshi fikr bildiruvchilar bo'lib, ular ichki bozorni himoyalashni (proteksionizm) davom ettirishni qo'llab-quvvatlovchilarni tashkil etadi [6].

Ma'lumot uchun. *JST – 1995-yilda tashkil etilgan xalqaro tashkilot bo'lib, a'zo davlatlar o'rtasidagi o'zaro savdoni uslubiy jihatdan tartibga soladi. Dunyodagi 164 ta davlat ushbu tashkilot*

a'zosi. O'zbekistonning yirik savdo sheriklari bo'lgan Rossiya Federatsiyasi va Xitoy Xalq Respublikasi, shuningdek chegaradosh davlatlardan Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari ham ushbu tashkilotning a'zosi hisoblanadi. O'zbekiston mazkur tashkilotning yig'ilishlarida kuzatuvchi maqomida ishtirok etib kelmoqda.

JST — a'zo davlatlarga o'zaro erkin savdoni tashkil qilish uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Shuningdek, savdoda davlatlarning o'zaro diskriminatsiyalashga yo'l qo'ymaslik, ochiqlik hamda adolatlilik shartlariga rioya qilishni nazorat qiladi. Uning asosiy faoliyati tovarlarni import qilishda miqdoriy cheklavlarni hamda savdo to'siqlarini qisqartirishga qaratilgan. JSTga a'zo davlatlar o'rtasida Eng qo'p qulaylik berish (EKQB) rejimini qo'llash orqali belgilangan stavkalar bo'yicha bojxona bojini undirish nazarda tutilgan.

Dunyo miqyosida eng yirik iqtisodiy integratsion tashkilot hisoblangan JSTning talablarini O'zbekistonda joriy qilish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. JSTga a'zo bo'lish borasida tahliliy ishlarni olib borish bo'yicha O'zbekistonda ishchi guruh tashkil etilgan.

Muammo. O'zbekistonga olib kiriladigan tovarlarga nisbatan ichki bozorni himoyalash uchun zarur bo'lgan tarif va notarif cheklavlarni qo'llash imkoniyatlari qisqaradi.

JSTning boj stavkalariga belgilangan talablarini amalga oshirish natijasida, qisqa fursatlar ichida O'zbekistonda ishlab chiqarish ehtiyoji uchun foydalaniladigan hom-ashyo va materiallarga import boji stavkalari 0 ga tenglashtirildi, ayrim tayyor iste'mol tovarlarga nisbatan eng ko'pi bilan 30 %gacha bo'lgan stavkalar belgilandi. Import bojining advalor o'rtacha arifmetik stavkasi 8.2 %ni


tashkil etmoqda.

O'zbekiston tashqi savdosining tarkibida 2/3 qismi JSTga a'zo mamlakatlarning hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekistonning JSTga a'zo davlatlar bilan tashqi savdosining hajmi yil sayin oshib kelmoqda (rasm). Shujumladan, 2018-yilganisbatan 2019-yilda eksport hajmi 2,5 mlrd. import hajmi esa 3,8 mlrd. AQSH dollariga oshgan. Bu esa O'zbekiston uchun JSTga a'zo davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlab borish nechog'lik dolzarb ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

JSTga a'zo mamlakatlarning 46 tasi bilan O'zbekiston o'rtasida o'zaro savdo-iqtisodiy munosabatlarda EKQBni qo'llash bo'yicha kelishuv imzolangan. Mazkur kelishuvga qo'shilgan davlatlar o'rtasida o'zaro tovar ayirboshlashda belgilangan stavkalarda import boji bir barobar miqdorda qo'llanilgan holda preferensial rejim taqdim etiladi. Ushbu 46 ta mamlakatdan 2019-yilda O'zbekistonning importi 3.9 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan. O'zbekiston JSTga a'zo bo'lgan taqdirda qo'shimcha ravishda 100dan ortiq davlatlarning tovarlariga EKQBni qo'llash majburiyatini o'z zimasiga oladi. Eng muhimi, buning natijasida mamlakat eksportini rivojlantirish va dunyodagi yangi bozor segmentlarini egallashga imkoniyatlar yanada kengayadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkin-ki, O'zbekistonda bojxona to'lovlarini takomillashtirish va eksportni rag'batlantirib borishning kelajakdagi istiqbollari ko'p jihatdan xalqaro iqtisodiy integratsion tashkilotlarga a'zo bo'lish masalasiga bog'liq bo'ladi.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



1-Rasm. 2016-2019-yillarda O'zbekistonning JSTga a'zo (MDHdan tashqari) mamlakatlar bilan tashqi savdosining tarkibi (mlrd. AQSH doll.).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Оганесян Г.О. Механизмы стимулирования экспортной деятельности . Ж.: Проблемы экономики и юридической практики. 2017. №4. С. 39-41.
2. А.Шадманкулов. Процесс формирования таможенных платежей в Узбекистане: история, реформы, прогнозы. Ж.: Таможенный вестник Узбекистана. 2019 г. №1 с. 19-25.
3. А.Шадманкулов. От регулирования до стимулирования экспорта: опыт узбекской таможни и приоритетные направления. Ж.: «Экономика и Юриспруденция» 2020. №6
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrdagi “Bojxona yig‘imlari stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 700-sonli qarori // O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.
5. Сирожиддинов Н.. Что даст Узбекистану вступление в ВТО. Газета.уз 22.01.2018 г.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari // www.stat.uz



O‘ZBEKISTONDA EKSPORTNI RIVOJLANTIRISHDAGI SA‘Y-HARAKATLAR

*O.Aripov - Namangan muhandislik-qurilish instituti
kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori,*

*M.Murodova - “Namangan aeroport” chegara bojxona
posti inspektori*

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasi tahlil etilib, eksportni rivojlantirish uchun iqtisodiyot tarmoqlarida diversifikatsiya qilishni jadallashtirish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni qo‘llab quvvatlash va eksportni diversifikatsiya qilishga erishish masalalari ko‘rilgan

Kalit so‘zlar: tashqi savdo aylanmasi, eksport, raqobat muhiti, ehtiyojlar, mahalliy resurs va mahsulot onlayn bozorlari

Аннотация: В статье проанализирован внешнеторговый оборот Узбекистана, рассмотрены вопросы ускорения диверсификации отраслей экономики для развития экспорта, поддержки производства импортозамещающей продукции и достижения диверсификации экспорта.

Ключевые слова: внешнеторговый оборот, экспорт, конкурентная среда, потребности, местные ресурсы и онлайн-рынки продуктов.

Agar rivojlangan mamlakatlar tajribasiga nazar solinsa, iqtisodiy taraqqiyotda muvaffaqiyatlarga erishish yo‘li iqtisodiyotni erkinlashtirish tufayli ekanligini anglash mumkin. Osiyoning Gonkong, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya va Tayvan singari yangi sanoatlashgan mamlakatlari eksportni rivojlantirishga jiddiy e‘tibor qaratib, iqtisodiyotni erkinlashtirish strategiyasi asosida, so‘nggi 30 yil ichida sezilarli darajada iqtisodiy yutuqlarga erishdilar.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida ham eksportni rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategik maqsadlar milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar eksportini tashkil etish va hajmini ko‘paytirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Shumaqsadda, eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish va xarid qilish bo‘yicha yagona tizimni shakllantirish maqsadida savdogarlar, sanoatchilar va dehqonlarimizga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Tashqi savdo va eksport ko‘rsatkichlari sur‘atining umumiy ijobiy dinamikasidan kelib chiqib, uning hajmlari, shuningdek tarmoqlardagi eksport hajmlarining amalda o‘shish sur‘atlarini oshirishni davom ettirish maqsadga muvofiq bo‘lmoqda.

Xususan, 2021-yilning yanvar-mart oylarida O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasida eng katta ulushga ega bo‘lgan davlat – Xitoy Xalq Respublikasi

bo‘lib, bu davlat bilan yurtimiz o‘rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 1421,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan 471,0 mln. AQSH dollarlik eksport amallari va 950,4 mln. AQSH dollarlik import amallari bajarildi (1-jadval).

Shu bilan bir qatorda, Xitoy O‘zbekiston iqtisodiyotiga eng ko‘p investitsiya kiritayotgan davlatlardan biridir. Mamlakatimizda Xitoy kapitali ishtirokidagi 700 dan ziyod kompaniya va korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘tgan yillar davomida xitoylik sarmoyadorlar O‘zbekiston iqtisodiyotiga qariyb 7,8 milliard dollar miqdorida investitsiya kiritgan[1]. Shuningdek, Xitoy bozorida O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan to‘qimachilik mahsulotlari, plastmassa buyumlar, qishloq xo‘jaligi va boshqa tovarlarga talab katta.

Fikrimizcha, O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va sanoatning eksport salohiyatini yuksaltirishda Xitoy faol ishtirok etmoqda.

O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushni egallagan ikkinchi davlat Rossiya Federatsiyasi bo‘lib, 2021-yilning yanvar-mart oylarida bu mamlakat bilan 1277,5 mln. AQSH dollarlik tashqi savdo aylanmasiga erishildi. Jumladan, 361,0 mln. AQSH dollarlik eksport va 916,4 mln. AQSH dollarlik import amallari bajarildi.

1-jadval

**O'zbekiston Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi eng
yuqori ulushga ega bo'lgan davlatlar [2]
(2021-yil yanvar-mart, mln. AQSH dollari)**

Mamlakatlar	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Eksportning ulushi
Xitoy Xalq Respublikasi	1421,4	471,0	950,4	33,1%
Rossiya Federatsiyasi	1277,5	361,1	916,4	28,3%
Qozog'iston Respublikasi	866,7	247,6	619,1	28,5%
Turkiya	653,3	373,3	280,0	57,1%
Koreya Respublikasi	408,3	9,3	399,0	2,3%
Qirg'iziston Respublikasi	187,9	146,2	41,7	77,8%
Afg'oniston	165,6	165,4	0,3	99,8%
Ukraina	130,1	41,0	89,1	31,5%
Germaniya	121,3	9,6	111,7	7,9%
Hindiston	117,7	7,1	110,6	6,0%

Izoh: Jadval mualliflar tomonidan www.stat.uz saytida berilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan

Shuningdek, O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi ulushida eng yuqori mamlakatlar qatorida Qozog'iston (866,7 mln. AQSH dollari), Turkiya (653,3 mln. AQSH dollari), Koreya Respublikasi (408,3 mln. AQSH dollari), Qirg'iziston Respublikasi (187,9 mln. AQSH dollari), Afg'oniston (165,6 mln. AQSH dollari), Ukraina (130,1 mln. AQSH dollari), Germaniya (121,3 mln. AQSH dollari), Hindiston (117,7 mln. AQSH dollari) kabi davlatlarni ko'rish mumkin (1-jadvalga qarang).

Ushbu 1-jadval tahlillaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston-Afg'oniston o'rtasidagi 165,4 mln. AQSH dollariga teng eksport amallari bajarilgan bo'lib, tashqi savdo aylanmasining 99,8 foizini tashkil etgan. Xuddi shunday Qirg'iziston Respublikasi (146,2 mln. AQSH dollari yoki 77,8%), Turkiya (373,3 mln. AQSH dollari yoki 57,1%), kabi mamlakatlarda eksport ulushi importdan yuqori bo'lgan. Qolgan davlatlar bilan amalga oshirilgan tashqi savdo aylanmasida import ulushi eksportdan katta bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (44,7 %), Qozog'iston (30,3 %), Qirg'iziston Respublikasi (6,6 %), Ukraina (4,5 %) va Tojikiston (3,6 %) davlatlari bilan qayd etildi.

Umuman olganda, O'zbekistonning olib borgan

tashqi iqtisodiy faoliyatida 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan faqat oltita davlatda, xususan, Afg'oniston (165,1 mln. AQSH dollari), Qirg'iziston Respublikasi (104,4 mln. AQSH dollari), Turkiya (93,4 mln. AQSH dollari), Tojikiston (75,8 mln. AQSH dollari), Kanada (41,0 mln. AQSH dollari) va Eron (15,8 mln. AQSH dollari) kabi davlatlarda faol tashqi savdo balansi kuzatildi. Qolgan 14 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda. Boshqacha aytganda, aksariyat davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar amalga oshirilganda, O'zbekistonning eksport hajmi import hajmidan kam bo'lmoqda.

Fikrimizcha eksportning importga nisbatan pastligi import mahsulotlariga bo'lgan talab bilan bog'liq. Ya'ni O'zbekiston uchun asosiy import mahsuloti asbob-uskunalar va mashinalar (44 foiz) hisoblanadi. Bugungi kunda ishlab chiqarishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Shu bois ishlab chiqarishga kiritilayotgan sarmoyalar o'z-o'zidan zamonaviy asboblardan va qurilmalarni olib kirishga yo'naltirilmoqda.

Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlarida diversifikatsiya qilishni jadallashtirish va raqobat muhitini yaratish asosida innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullarini qo'llab taqozo etilmoqda. Mahalliy resurslardan maksimal darajada foydalanish tufayli

tayyor mahsulot yaratishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni qo'llash zarur. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021-yilning yanvar-mart oylariga kelib, mamlakatimiz hududlaridagi tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'atlari ayniqsa Sirdaryo (179,1%), Xorazm (145,0%), Surxondaryo (123,3%) viloyatlarida sezilarli bo'ldi. Tashqi savdo aylanmasi bo'yicha o'sish sur'atlari Qashqadaryo viloyatida 65% eng past bo'lganligini 2-jadvaldan ko'rish mumkin. Shuningdek, Jizzax (96,3%), Navoiy (99,5%) kabi viloyatlarda ham tashqi savdo aylanmasi bo'yicha keltirilgan o'sish sur'atlari boshqa viloyatlarga nisbatan past darajada (2-jadval).

Umuman olganda O'zbekiston bo'yicha tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati 88,4 foizni tashkil etib, bu borada qator muammolar o'z yechimiga ega bo'lmayotganligini alohida qayd etish mumkin.

Shunga qaramay, "...iqtisodiyot tizimida mahsulotlar tayyorlash jarayonini optimallashtirish va ishlab chiqarishni mahalliylashtirish darajasini muttasil oshirish, import o'rni bosish jarayonlarini

yanada chuqurlashtirish, 2026-yilgacha sanoat korxonalaridagi 51 mingdan ziyod uskunalarini zamonaviylariga almashtirish hamda shu asosda, jumladan, qo'shilgan qiymat yaratishning yagona zanjirini hosil qilish, respublikada ishlab chiqarilayotgan ip kalavaning butun hajmini qayta ishlash hisobidan to'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmini 7 milliard AQSH dollariga yetkazish bilan bog'liq vazifalar dolzarbligini saqlab qolmoqda" [3].

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda eksport munosabatlarini amalga oshirish jarayonlari jadallashtirish talab etiladi. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining o'rni sezilmayapti. Aslida aynan kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari faoliyati asosida eksportni jadal rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

Umuman olganda O'zbekistonda eksportni rivojlantirish borasida yuzaga kelgan muammolar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, O'zbekiston ichida eksportbop mahsulot topishning o'zi katta muammo hisoblanadi. Chunki ayni axborot texnologiyalari rivojlangan bir davrda O'zbekistonda onlayn bozorlar ulushi yuqori

2-jadval

O'zbekiston Respublikasining hududlar kesimida tashqi savdo aylanmasi [4] (yanvar-mart, mln. AQSH dollari)

Hududlar	Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, %da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	153,1	123,8
viloyatlar:		
Andijon	666,0	100,5
Buxoro	215,5	104,5
Jizzax	89,4	96,3
Qashqadaryo	85,0	65,2
Navoiy	263,6	99,5
Namangan	213,7	109,1
Samarqand	376,2	108,9
Surxondaryo	108,7	123,3
Sirdaryo	176,7	179,1
Toshkent	1076,4	105,3
Farg'ona	321,9	115,1
Xorazm	140,1	145,0
Toshkent sh.	2930,2	111,1
O'zbekiston bo'yicha	6816,5	88,4

Izoh: Jadval mualliflar tomonidan www.stat.uz saytida berilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan

emas. Ya'ni, ulgurji-ko'tara mahsulotlar sotiladigan onlayn bozorlar mavjud emas. Qolaversa, ishlab chiqarilgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish masalalariga doir muammolarni ham hal etish kerak.

Ikkinchidan, logistika sohasi yaxshi rivojlanmayapti. Logistika nafaqat yuklarni uzoq va yaqin manzillarga tashish sohasi, balki butun bir tarmoqlarni o'zaro bog'liqligini ta'minlaydigan soha hisoblanadi. Hamkorlar o'rtasidagi bog'lanish, ya'ni zamonaviy logistika shakllanmagan. Misol uchun mamlakat ichi bo'ylab eksportbop mahsulot izlanganda, tadbirkorlar mahsulot ishlab chiqaruvchisini izlab topishi kerak bo'ladi. Aksariyat holatlarda esa o'rtada o'z foydasini qo'shadigan dallollarga duch kelinadi. Bu esa mahsulotlar narxini sun'iy oshishiga olib keladi.

Uchinchidan, eksportni rivojlantirish uchun, bozorning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish zarur. Shuningdek, onlayn qidiruv bozorlar bazasini shakllantirish muhim vazifalardandir. Eksportyorlar uchun zamonaviy sharoitlar yaratilmagan.

To'rtinchidan, mahsulot uchun beriladigan fitosanitar sertifikatni olish jarayonlarida muammolar mavjud. Xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda bu kabi muammolar sezilarlidir. Masalan, qishloq xo'jaligida Farg'ona vodiysida yetishtirilgan ma'lum bir qishloq xo'jaligi mahsuloti uchun fitosanitar sertifikatni Jizzaxdan olish kerak bo'ladi.

Bu kabi muammolar eksport munosabatlarini jadal rivojlanishiga sun'iy to'siqlar keltirib chiqaradi. Shuning uchun ularni hal etish choralari shu kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Shu maqsadda 2020-yilning 21-oktyabrida "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6091-sonli farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra, Respublika ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida eksport hajmlarini ko'paytirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, tayyor mahsulot yetkazib beruvchilarni qo'shimcha moliyaviy va tashkiliy rag'batlantirish, shuningdek, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan vazifalarni bajarish maqsad qilib olindi. Unga muvofiq 2022-yil 1-yanvarga qadar Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi eksport qiluvchilarga, shu jumladan asosiy faoliyat turi savdo-vositachilik bo'lgan eksport qiluvchilarga:

- eksportoldi moliyalashtirish, shu jumladan aylanma mablag'lar uchun ajratiladigan kreditlar bo'yicha tijorat banki tomonidan belgilangan kredit foiz stavkasi va miqdoridan qat'i nazar;

- milliy valyutadagi kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarining 50 foizigacha, biroq 10 foiz banddan ko'p bo'lmagan miqdorda;

- chet el valyutasidagi kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarining 50 foizigacha, biroq 5 foiz banddan ko'p bo'lmagan miqdorda kompensatsiyalar taqdim etadi;

- tijorat banklarining eksportoldi moliyalashtirish, shu jumladan aylanma mablag'lari uchun beriladigan kreditlari bo'yicha kredit summasining 50 foizigacha, biroq 8 milliard so'mdan oshmagan miqdorda kafillik beradi;

- ijobiy kredit tarixiga ega bo'lsa, avval olgan kreditlari bo'yicha qarzdorligi bo'lishidan qat'i nazar, eksportoldi moliyalashtirish, shu jumladan aylanma mablag'lar uchun qo'shimcha olinadigan kreditlari bo'yicha mazkur bandda belgilangan miqdorlar va shartlarda kompensatsiya va (yoki) kafilliklar taqdim etadi;


- taqdim etiladigan kafilliklar bo'yicha komissiya to'lovlarini ikki baravarga kamaytirilgan miqdorda undiradi.

Qolaversa, 2021-yilning 30-martida "O'zbekiston Respublikasida eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra 2021-yil 1-apreldan mahalliy eksportchi korxonalarning savdo uylarini ochish va saqlash, ofis, savdo va ombor binolarini ijaraga olish, shuningdek, reklama kompaniyalarini tashkil qilish bilan bog'liq chet eldagi xarajatlarining 50 foizi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi mablag'lari hisobidan qoplab berilishi joriy etildi [3].

Ushbu chora-tadbirlar O'zbekistonda eksportni rivojlanishiga turtki beradi. Bu kabi me'yoriy hujjatlar mahalliy mahsulotlarni jahon bozorida o'z o'rnini topib olishi uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston-Xitoy: Strategik sheriklik va do'stlik munosabatlarini yanada rivojlantirish yo'lida. <https://old.xs.uz/index.php/homepage/rasmij/item/10154>-
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi –T.: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. 133 bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-oktyabrdagi “Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-6091-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.



TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI NOTARIF TARTIBGA SOLISHNI XALQARO TAJRIBALARI

*K.Karimkulov - Bojxona instituti kafedra boshlig'i,
Texnika fanlari doktori, professor*

Annotatsiya: Maqolada tashqi iqtisodiy faoliyatni notarif tartibga solish usullari, ushbu usullarni amalda tatbiq etish samarasi, tashqi iqtisodiy faoliyatni notarif tartibga solishning xorijiy mamlakatlar tajribalarini amaliyotga joriy qilinishi, uning yutuq va kamchiliklari tadqiq etilgan. Tashqi iqtisodiy faoliyatni notarif tartibga solishni takomillashtirish yuzasidan takliflar berilgan.

Tayanch so'zlar: tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF)ni tarif va notarif tartibga solish, tashqi savdo, raqamli bojxona, Jahon savdo tashkiloti, Yagona darcha, bojxona.

Аннотация: В статье рассмотрены методы нетарифного регулирования внешнеэкономической деятельности, эффективность внедрения этих методов на практике, внедрение в практику зарубежного опыта нетарифного регулирования внешнеэкономической деятельности, его достижения и недостатки. Внесены предложения по совершенствованию нетарифного регулирования внешнеэкономической деятельности.

Ключевые слова: тарифное и нетарифное регулирование внешнеэкономической деятельности (ВЭД), внешнеторговая деятельность, цифровая таможня, Всемирная торговая организация, Единое окно, таможня.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni (TIF) amalga oshirishda xo'jalik yurituvchi subyektlarga qulay shart-sharoitlar yaratish, tashqi savdoni tartibga solishda ma'muriy usullarini optimallashtirish va soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida, bojxona xizmati organlari ham tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bojxona biznesni rivojlantirishda indikator vazifasini bajarishini inobatga olib, amaldagi normativ hujjatlarni takomillashtirish, TIF ishtirokchilariga qulayliklar yaratish va bojxona rasmiylashtiruvdagi tartib tamoyillarni jahon andozalariga moslashtirish muhim vazifalardan sanaladi. Tovarlarni bojxonada rasmiylashtirish uchun TIF qatnashchilari tovarlar bo'yicha muayyan ruxsatnoma hujjatlari olinishi talab etiladi. Ushbu hujjatlarni olish uchun TIF qatnashchilariga elektron axborot xizmatlarini taklif qilish, ularni o'z ofislaridan turib amalga oshirish imkoniyatini taqdim qilish bugungi kundagi "Raqamli bojxona" ning asosiy dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi [1].

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni notarif usulda tartibga solishning muammo va istiqbollari mavzusi bo'yicha mahalliy va xorijiy mamlakatlarning bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, monografiya va maqolalar tahlil qilindi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat tushunchasi, uni davlat tomonidan notarif usulda tartibga solishning shakllanish qonuniyatlari va tendensiyalarini – I.I.Dyumulen va N.E.Chagunovalarning tadqiqot ishlarida yoritilgan. Ichki bozorni boj tarifi orqali tartibga solishda proteksionizm siyosatini qo'llash maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan.

Xorijiy davlatlarning tajribalari va qonunchiligida tashqi iqtisodiy faoliyat mamlakatda tashqi savdoni amalga oshirishda asosiy omil sifatida qaralishini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Rossiya Federatsiyasida «Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish asoslari to'g'risida» 164-FZ-sonli Federal qonuni 2003-yil 8-dekabrda qabul qilingan. Mazkur qonunga muvofiq, TIFni tartibga solish usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bojxona-tariflarini tartibga solish;
- notarif tartibga solish;
- xizmatlar va intellektual mulk obyektlarining tashqi savdosini taqiqlash va cheklashlar;
- tashqi savdo faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashuvchi va ushbu Federal qonunda nazarda tutilgan iqtisodiy va ma'muriy xarakterdagi chora-tadbirlar.

Shuningdek, Tashqi savdoni tartibga solishda yuqorida keltirilgan boshqa usullardan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi qonun bilan belgilangan.

Qozog‘iston Respublikasida tashqi savdo faoliyati sohasidagi davlatlararo munosabatlarni, shuningdek, uni davlat tomonidan tartibga solish tamoyillari va tashkiliy asoslarini belgilovchi munosabatlarni tartibga solish maqsadida, 2004-yil 12-aprelda “Savdo faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida”gi №544-II-sonli Qonuni qabul qilingan.

Mamlakatda tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- tashqi savdo faoliyatini bojxona-tariflari orqali tartibga solish;
- tashqi savdo faoliyatini notarif tartibga solish;
- Qozog‘iston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda tovar sotishni to‘xtatib turish va (yoki) taqiqlash;
- maxsus himoya, antidemping va kompensatsiya choralarini qo‘llash;
- xalqaro iqtisodiy sanksiyalarda ishtirok yetish;
- javob choralarini qo‘llash;
- taqiq va cheklovlarining maxsus turlarini qo‘llash.

Qozog‘iston Respublikasida tashqi savdo faoliyatini davlat tomonidan bojxona-tariflari hamda notarif usullar orqali tartibga solish quyidagi 1 - rasmda o‘z aksini topgan.


O‘zbekistonda bosqichma – bosqich amalga oshirilayotgan TIFni erkinlashtirilishi natijasida, tashqi savdo rejimi xalqaro amaliyot me‘yorlariga va talablariga muvofiq, litsenziyalanadigan tovarlar ro‘yxati qisqardi, miqdoriy cheklovlar borgan sari tariflar asosida tartibga solinmoqda, erkin konvertatsiya qilinadigan valyuta o‘zi ishlab

chiqargan raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni eksport qiluvchi korxonalar uchun, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni ishlab chiqarish sohasi, ayniqsa, katta salohiyatiga ega bo‘lgan tarmoqlarga jalb qilishni rag‘batlantiruvchi imtiyozlar tizimi uzluksiz ravishda takomillashib bormoqda.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan investitsiya faoliyati doirasida o‘zaro hamkorlik kengaydi. Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveysariya, Italiya, Belgiya, Fransiya, Turkiya kabi mamlakatlar bilan tovarlar nomenklaturasiga kiruvchi turli xillari bo‘yicha o‘zaro tovar ayirboshlash yo‘lga qo‘yildi.

Osiyoda O‘zbekistonning Xitoy, Koreya, Singapur, Hindiston, Yaponiya davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi oshgani kuzatildi, investitsiyaviy, ilmiy-texnik faoliyatning kengaytirilishi, gumanitar doiradagi hamkorlikning keyingi davrda rivojlanishi ta‘minlandi.

Bugungi kunda xalqaro ekspertlar aniq notarif usullarining soni va ularni tasniflashi bo‘yicha ma‘lumotga ega emas. Xalqaro ekspertlarning fikriga ko‘ra, har 15 yilda dunyo mamlakatlari tomonidan notarif boshqaruvini amalda qo‘llanilishi 15 marta ortmoqda. Xalqaro savdoda hujjatlar almashinuvi va notarif usullari ham ortib bormoqda. Milliy va xalqaro qonunchilik yo‘llari bilan bugungi kunda dunyo mamlakatlari tomonidan 800 dan ortiq notarif cheklov usullari amaliyotga joriy etilgan. Bugun mutaxassislar tomonidan TIFni notarif tartibga solish usullarini ta‘qiqlash emas, balkim notarif usullarni bir xilda tasniflash va bir xil qoidalar asosida talqin etish masalasi turibdi [2,3].



1-rasm. Qozog‘iston Respublikasida tashqi savdo faoliyatini davlat tomonidan bojxona-tariflari hamda notarif usullar orqali tartibga solish usullari

Ko'plab mamlakatlar ichki ishlab chiqaruvchilarini himoya qilish maqsadida, import va eksport jarayonlarida notarif tartibga solish usullarini, ta'qiq va cheklovlarni qo'llaydi va tovarlarni kirib kelishiga ta'qiqlar kiritadi. Masalan, Argentina Xitoy mahsulotlaridan ichki bozorini himoya qilish maqsadida, 120 ta tovar pozitsiyasidagi tovarlarga notarif usulini qo'llagan yoki import tovarlar uchun 1200 ta tovar pozitsiyadagi tovarlarga (velosiped, oyoq kiyimlar va elektr tovarlar) litsenziya joriy etilgan.

Hindiston mamlakati ichki bozorini Rossiya tovarlaridan himoya qilish maqsadida, import tovarlarni, qora metallurgiya, kimyo sanoati mahsulotlari uchun bir qator antidemping choralarini kiritgan. Antidemping va kompensatsiya bojlarini kiritilishi esa, dunyo bozorida tovarlarni erkin harakatlanishiga va tashqi savdoga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Jahon savdo tashkilotning ma'lumotlariga ko'ra, erkin savdoni ta'qiqlash natijasida dunyo mamlakatlari tomonidan bir yilda 1200 dan ortiq turli xil ko'rinishdagi notarif usullari, ta'qiqar va cheklovlar joriy etilgan, natijada $\frac{3}{4}$ -qismi xalqaro savdoni, $\frac{1}{4}$ qismi - esa importni cheklagan [4,5].

Jahon savdo tashkiloti – tarif va savdo bo'yicha Bosh bitim (GATT) 1995-yil yanvardan beri faoliyat ko'rsatib kelmoqda. TIFni davlat tomonidan tartibga solish vositalarini tarif va notarifga sinflash birinchi marta tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuv Kotibiyati tomonidan XX-asrning 60-yillari oxirida taklif etilgan. GATTning asosiy faoliyati shu tashkilotga a'zo bo'lgan mamlakatlar o'rtasida bojxona tariflarini va notarif to'siqlarni kamaytirish maqsadida ko'ptomonlama raund va muzokaralar o'tkazishdan iborat. Shartnoma shartlariga ko'ra bunday muzokaralarda ishtirok etayotgan davlatlar ma'lum davr ichida barcha tarif stavkalarini ma'lum foizga kamaytiradilar. Savdoda ishtirok etayotgan mahsulotlar soni juda ham ko'p bo'lib, har bir mahsulot bo'yicha muzokaralar olib borish undan tashqari har bir davlat bilan ana shu mahsulotlar bo'yicha kelishuvlar o'tkazish ham juda og'irdir. Shuning uchun davlatlar o'rasidagi muzokara ma'lum bir mahsulotlar xususida bo'ladi. Bojxona tariflarini kamaytirilganligi muzokarada qatnashayotgan davlatlarning savdoni erkinlashtirishga bo'lgan intilishlarini ko'rsatgan. Masalan, Tokio raundi AQSH bilan Yevropa Ittifoqi davlatlari o'rtasida bojxona tariflari 35%ga, AQSH Yaponiyadan import qilganida bojxona tarifi esa 40%ga kamaytirilgan. Tokio raundi o'z kuchini asosan muhim notarif to'siqlarni bartaraf etishga qaratgan.

GATT tomonidan taklif qilingan bitimga notarif usuli xalqaro savdo harakatiga to'sqinlik qiluvchi harakatlar sifatida kiritilgan edi. XX asr 70-yillarning boshida GATT/JST kotibiyati tomonidan notarif cheklovlarni sinflashning uslublari ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi **vaqtda 800 dan** ortiq notarif ta'qiq va cheklovlarni o'z ichiga oladi va ularni 5 toifaga bo'lish mumkin:

1. Davlatning tashqi savdo operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan cheklovlar. Ularga eksportyorlarga va importning o'rni bosuvchi sohalarga beriladigan imtiyoz hamda preferensiyalar kiradi.

2. Import va eksportga nisbatan ma'muriy rasmiyatchiliklarni, ya'ni bojxona rasmiylashtiruvining murakkablashtirilgan jarayonini qo'llash, shuningdek, bojxona qiymatini baholash va tovar ishlab chiqarilgan mamlakatni aniqlash usullaridan foydalanib taqdim etiladigan hujjatlarni ko'paytirish.

3. Savdoda texnik to'siqlar, bularga standartlar va talablar, ekologiya, sanitariya, veterinariya hamda fitosanitariya normalariga bog'liq standartlar, tovarlarni sertifikatlash qoida va talablari.

4. Miqdoriy va shu bilan bir qatorda, ma'muriy choralar, import kvotalari, eksport cheklovlari, litsenziyalash, ta'qiqar va valyuta cheklovlari.

5. To'lovlarni ta'minlashga qaratilgan cheklovlar, soliqlar, yig'imlar, import depozitlari, dempingga qarshi va kompensatsiya bojlar.

Ushbu notarif cheklovlar klassifikatsiyasi va uning asosida tuzilgan katalog xalqaro savdo muzokaralarida keng ishlatiladi hamda boshqa xalqaro tashkilotlar bilan tizimning shakllanishida nazariy baza sifatida qo'llaniladi.

Hozirgi kunda dunyoda 5 ta asosiy iqtisodiy blok mavjud bo'lib, ular **Yevropa Ittifoqi, MERCOSUR** - Janubiy Amerika davlatlarining davlatlararo iqtisodiy birlashmasi, **NAFTA** – Shimoliy Amerika erkin savdo zonasi, **ACEAN** – Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (**YEOII**) hisoblanadi.

Xalqaro tajribada rivojlangan mamlakatlarda aksiz solig'i davlat byudjeti uchun daromad manbai hisoblanadi. Bunda, aksiz solig'i tovarning mahalliy ishlab chiqarilganligi yoki importda keltirilganligidan qat'iy nazar yagona stavkada belgilanadi. Shu bilan birga, aksiz solig'ini har xil darajada belgilash tajribasi Belorussiya va Qozog'istonda kuzatildi. Bunda, iste'molchilar uchun narxni oshishiga yo'l qo'yimaslik va aksincha arzonlashtirish yoki tadbirkorlik subyektlariga teng sharoit yaratish nuqtayi nazardan amalga oshirilgan. Masalan, Belorussiyada 28-fevraldan 31-dekabrga qadar

mahalliy benzin ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan benzinni realizatsiya qilganda, aksiz solig'i to'lovchilariga 0,25 koeffitsiyent miqdorida imtiyoz qo'llanilishi belgilangan. Ya'ni, iste'molchilar manfaatlarini ustuvorligini ta'minlagan holda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida import benzinning aksizini ko'tarmasdan, balki mahalliy benzin uchun aksiz solig'iga imtiyoz qo'llanilgan.

Shuningdek, Qozog'istonda benzin defitsitining oldini olish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan benzin narxini arzon ushlash maqsadida avval import benzin uchun aksiz solig'i mahalliy benzininga nisbatan deyarli uch baravar kam bo'lgan. Lekin, 2018-yildan boshlab bozor ishtirokchilariga teng sharoit yaratish maqsadida aksiz miqdori tenglashtirildi.

O'zbekiston tajribasida, asosan, davlat tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarishga bevosita aloqador bo'lgan ikki yo'nalish ajralib turadi:

- TIFni davlat aralashuvi orqali boshqarish;
- TIFni bozor munosabatlari aralashuvi orqali boshqarish.

Tashqi savdo, ko'p hollarda davlatning tashqi siyosiy maqsadlariga xizmat qilgani tufayli, tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan boshqarilishi hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

TIFni erkinlashtirish borasida, iqtisodiy va ijtimoiy holatni hisobga olgan holda, TIFni tartibga solishning chuqur ilmiy tahlil qilingan davlat strategiyasini ishlab chiqish lozim.

TIFni tartibga solish strategiyasi davlat iqtisodiy siyosatining umumiy tamoyillari va valyuta talablari asosida shakllanadi. Ushbu strategiya mamlakat iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat siyosati bo'lib, mohiyatiga ko'ra, tashqi iqtisodiy faoliyatda ishtirok etuvchi subyektlar faolligini rag'batlantiradi, milliy iqtisodiy manfaatlarini himoya qilib, import jarayoniga aralashadi, xalqaro iqtisodiy aloqalarning dunyo hamjamiyati me'yorlari va qonun-qoidalari asosida bajarilishini nazorat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzurida Tarif va notarif tartibga solish Kengashi tashkil etilgan. *Kengashning asosiy vazifalari qo'yadigilar hisoblanadi:*

- bo'jxona bojlari stavkalarini belgilash va tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishda notarif tartibga solish chora-tadbirlarini qo'llash bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish hamda takliflarni ishlab chiqish;

- ichki va tashqi bozorlarda yuzaga kelayotgan vaziyatdan kelib chiqib tarif va notarif tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, shuningdek, bo'jxona to'lovlari

bo'yicha amaldagi imtiyozlar tizimiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarni shakllantirishda ishtirok etish.

TIFni tartibga solishda davlat rag'batlantirish, cheklash va taqiqlash, nazorat qilish funksiyalarini amalga oshiradi (2-rasm).

Iqtisodiy choralar bo'jxona qiymati nazoratini, valyuta nazoratini, moliyaviy choralar va qo'shimcha bo'jxona bojiga tortishlarni o'z ichiga olgan usullardan tashkil topadi (3-rasm).

Notarif cheklovlarining ma'muriy choralari klassifikatsiyasini quyidagi chizmada ko'rishimiz mumkin (4-rasm):

Notarif tartibga solishning texnik choralari quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin (5-rasm):


Texnik to'siqlar har doim ham proteksionistik usul sifatida namoyon bo'lmaydi, ba'zan, esa ularning qo'llanilishi aholining iste'molchi sifatidagi huquqini himoya qilishga qaratilgan bo'ladi.

XULOSA


1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish borasida, iqtisodiy va ijtimoiy holatni hisobga olgan holda, TIFni tartibga solishning ilmiy tahlil qilingan davlat strategiyasini ishlab chiqish;

2. TIFni notarif tartibga solish usullarini qo'llashning xalqaro amaliyotiga, rivojlangan mamlakatlarning notarif tartibga solish tizimi, uni amalga oshirish mexanizmlari, ahamiyati, rivojlanayotgan mamlakatlarning ichki ishlab chiqarishni himoya qilish usullarini, shuningdek, tashqi iqtisodiy siyosat konsepsiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.


Barcha mamlakatlar savdoga o'z ta'sirlarini o'tkazishga intiladi va har bir mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy maqsadlarni ko'zlaydi. Importni cheklash salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, boshqa mamlakatlarga javoban chora tadbirlarni qo'llash, chet eldan kelayotgan butlovchi mahsulotlar narxini oshirilishi tufayli eksport sohasida ishlayotgan ish joylarining kamayishiga olib keladi.



2 –Rasm. Notarif tartibga solish usullari



3-rasm. Notarif cheklovlarning iqtisodiy choralari



4-rasm. Notarif cheklovlarning ma'muriy choralari va importni taqiqlash (embargo)


Notarif tartibga solishning texnik choralari

Ruxsat beruvchi tizim	Maxsus talablar	Qo'shimcha shart-sharoitlar
• Davlat apparati nazorati • Radioelektron vositalarni olib kirish, olib chiqish • Madaniy boyliklarni olib kirish va olib chiqish • SITES obyektlarini olib kirish va olib chiqish	• Sifat nazorati sertifikatitsiya • Veterinariya nazorati • Fitosanitariya nazorati • Sanitariya epidemiologiya talablar	• Raqamli identifikatsiyalash vositalari orqali markirovkalash • Bojxona ekspertizasi • Intellektual mulk huquqi • Boshqalar

5-rasm. Notarif tartibga solishning texnik choralari

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 22-fevraldagi Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasi - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti- <https://president.uz>
2. Маркович, Е. Нетарифные барьеры в системе современного протекционизма в период мирового финансового кризиса / Е.П. Маркович // Экономика и управление [Эл. ресурс]. –2010. – № 3. Режим доступа: http://media.miu.by/files/store/items/eiup/23/eiu_23_2010_3.pdf. – Дата доступа: 02.05.2012.
3. Дюмулен, И.И. Всемирная торговая организация / И.И.Дюмулен. – Москва: ЗАО Издательство «Экономика», 2003.
4. Import Protection Update: Antidumping, Safeguards, and Temporary Trade Barriers through 2011 / Chad P. Bown // Trade and International Integration Monitoring Reports. [Elektr. resurs]. Режим доступа: <http://www.voxeu.org/article/import-protection-update-antidumping-safeguardsand-temporary-trade-barriers-through-2011>. – Дата доступа: 02.05.2012.
5. Temporary Trade Barriers and the Global Economic Crisis / Chad P. Bown // The World Bank resources [Elektr. resurs]. Режим доступа: http://siteresources.worldbank.org/INTRANETTRADE/Resources/Internal-Training/287823-1229467556379/5686527-1272924815630/Chad_Bown_May10_2010.pdf. – Дата доступа: 02.05.2012.



IMPORTNI OPTIMALLASHTIRISHDA TARIF KVOTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

B.Qurbonov - “Toshkent” xalqaro aeroporti” chegara bojxona postining inspektori

Аннотация: Ushbu maqolada importni optimallashtirishda tarif kvotasini amaliyotga joriy etishning bugungi kundagi dolzarbligi haqida soʻz yuritiladi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot elementlaridan foydalangan holda importni optimallashtirishda tarif kvotasini amaliyotga joriy etish boʻyicha xorijiy davlatlar tajribasi oʻrganilgan.


Калит сўзлар: tarif kvotasi, importni optimallashtirish, bojxona imtiyozlari, bojxona toʻlovlari, “Erga omnes” mamlakatlar.

Аннотация: В статье рассматривается актуальность введения тарифных квот при оптимизации импорта. При этом изучен опыт зарубежных стран по реализации тарифных квот при оптимизации импорта с использованием элементов цифровой экономики.

Ключевые слова: тарифная квота, оптимизация импорта, таможенные преференции, таможенные пошлины, страны «Erga omnes».

Bugungi kunda mamlakatimizda importni optimallashtirish va eksportni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashga katta eʼtibor qaratilmoqda. Bu kabi vazifalarni bajarishda mamlakat tashqi savdo tarkibini oʻrganish va tahlil qilish muhimdir. Tashqi savdo balansining samaradorligi aktiv yoki passiv saldo ekanligi bilan belgilanadi. Aktiv va passiv balans esa eksport va import oʻrtasidagi farq bilan ifodalanadi. Shundan kelib chiqqan xolda mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasini (keyingi oʻrinlarda — TSA) quyida keltirilgan rasm orqali bir qadar oʻrish holatlarini koʻrish mumkin (1-rasm) [1].

TSAning bu kabi keskin oʻzgarishi



1-rasm. Oʻzbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining yillar kesimida oʻzgarishi [1].

mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi nufuzini yanada oʻsishiga zamin yaratadi. Biroq TSA tarkibini tahlil qilish hamda natijalarni umumlashtirish ushbu yoʻnalishdagi sifat belgilariga baho berish imkoniyatini yaratadi.

Jumladan, 2017-yilda import hajmi eksportga nisbatan 52,7 % boʻlgan boʻlsa, 2020-yilga kelib, ushbu farq 58,3 % tashkil etdi [1]. Soʻnggi yillar davomida import hajmining eksportga nisbatan bu kabi oʻsishi mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun quyidagi bir qator tahdidlarni yuzaga keltirishi mumkin:

birinchidan, tashqi qarz yanada koʻpayadi;

ikkinchidan, mamlakatda ichki ishlab chiqarish koʻrsatkichlari pasayadi;

uchinchidan, investitsiya muhit izdan chiqadi;

toʻrtinchidan, milliy valyuta qadriining xorijiy valyutaga nisbatan tobora pasayish tendensiyasi kuzatiladi.

Undan tashqari import tarkibini optimallashtirish, yuqoridagi kabi tahdidlarni oldini olish va salbiy taʼsirini minimallashtirish maqsadida bir qator vazifalar belgilangan.

Konsepsiya bilan TIFni tarif va notarif jihatdan tartibga solishni soddalashtirish maqsadida bir nechta tadbirlarni amalga oshirish nazarda

tutilgan. Jumladan, “Normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq bojxona to‘lovlaridan imtiyoz qo‘llanilganda, tovarlarning **miqdoriy cheklovlarini (kvotalarini)** nazorat qilish mexanizmini ishlab chiqish” lozimligi belgilangan[2].

“Tarif va notarif tartibga solish kengashiga xalqaro tajribani va Jahon savdo tashkiloti kelishuvlarining qoidalarini o‘rganish asosida Vazirlar Mahkamasiga import qilinadigan tovarlarga nisbatan vaqtinchalik **tarif kvotalarini** qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash bo‘yicha hukumat qarori loyihasini kiritish ko‘rsatmasi berilgan[3].

Bular mamlakatimizda importni optimallashtirishda iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ma‘lumki, tashqi savdo tarkibidagi importni optimallashtirishning bir nechta usullari mavjud bo‘lib, bular ichida import qilinayotgan tovarlarga nisbatan tarif kvotalarini belgilash rivojlangan mamlakatlar tomonidan keng qo‘llaniladigan va samarali usul hisoblanadi.

Shunga ko‘ra, tadqiqot jarayonida Import tovarlariga nisbatan tarif kvotalarini qo‘llash bo‘yicha **Jahon Savdo Tashkiloti, Yevropa ittifoqi va Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqining** tajribasi o‘rganib chiqildi.

Jahon Savdo Tashkilotiga (keyingi o‘rinlarda — JST) a‘zo davlatlarda ushbu usuldan tashqi savdoni tartibga solishda samarali foydalanib kelinmoqda. Ushbu davlatlarning tariflarni belgilash bo‘yicha natijalariga qaraydigan bo‘lsak, tarif kvotasi asosan oziq-ovqat bozorida savdoni erkinlashtirish jarayonida

asosiy rollardan birini o‘ynaydi. Bu bir vaqtning o‘zida ichki bozorda yetishmayotgan mahsulotlar bo‘yicha bozorni to‘ldirish va mahalliy ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. **JST**ga a‘zo davlatlarning tarif kvotasiga oid ma‘lumotlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak 36 ta a‘zo davlatlar (shulardan 19 tasi rivojlanayotgan davlatlar)da tarif kvotasi bo‘yicha majburiyatlar mavjud bo‘lib ular tomonidan jami 1370 turdagi tovarlarga nisbatan tarif kvotalari ishlatiladi [4].

Yevropa ittifoqi (keyingi o‘rinlarda — YeI) tajribasini ko‘radigan bo‘lsak, a‘zo mamlakatlar uchinchi davlatlar uchun tarif kvotasi (tarif imtiyozlari)dan keng foydalanadi. Ushbu imtiyoz mamlakatda yetarli darajada ishlab chiqarilmaydigan xom ashyolar, yarim tayyor mahsulotlar va talab yuqori bo‘lgan asosiy oziq ovqat turlarini ishlab chiqarishda nisbiy afzallikka ega bo‘lgan uchinchi davlatlar bilan ikki tomonlama shartnoma asosida taqdim etiladi yoki “Erga omnes” mamlakatlariga, ya‘ni embargo choralari belgilanmagan barcha suveren davlatlarga umumiy tartibda tarif imtiyozlari belgilanadi. Tayyor mahsulotlar uchun tarif kvotasi taqdim etilmaydi.

Yuqoridagilarni tasdig‘i sifatida, baliq go‘shriga tarif kvotasi berish to‘g‘risida YeIning kengash tartibi ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra, 2018 yildan 2020 yilgacha baliq va baliq mahsulotlariga tarif imtiyozlari belgilangan (2 – jadval).

Ushbu berilgan tarif imtiyozlarini YeIga a‘zo mamlakatlar doirasida shaffof tarzda YeIning rasmiy sayti orqali nazorat qilinadi (1-rasm).

2–jadval

2020 yilgacha baliq va baliq mahsulotlariga tarif imtiyozlari

Buyurma raqami	TIF tn kodi	Tovar nomi va tavsifi	Yillik tarif kvotasi miqdori	Kvota boji	Kvota davri
092759	0302 51 10	<i>Bregmacerotidae, Gadidae, Macrouridae, Merlucciidae, Muraenolepididae...</i> baliq turlarining go‘shhti	75000 tonna	0%	01.01.2018 - 31.12.2020

Tariff publication: Search on origins

Origin: Validity period (start date in) ☐ 2020 ☐ 2019 ☒ 2018 ☐ 2017 ☐ 2016

Order number:

Critical:

Status:

Order number	Origins	Start date	End date	Balance
092759	ERGA OMNES	01-01-2018	31-12-2018	13446013.875 Kilogram [Details]

(Details qismiga o'tilsa quyidagi to'liq ma'lumotni olishimiz mumkin)

Tariff quota details

Order number	092759
Validity period	01-01-2018 - 31-12-2018
Origins	ERGA OMNES
Initial amount	75000000 Kilogram
Amount	90000000 Kilogram
Balance	13446013.875 Kilogram

2-rasm. Tarif kvotasini onlayn nazorat qilish tizimi[5]

Erga omnes (lotin tilidan hammaga taalluqli) — xalqaro huquq tushunchasi bolib, xalqaro aloqalar ishtirokchisi sifatida har qanday suveren davlatning jahon hamjamiyatidagi biror majburiyatni bajarishdagi mavjudligini anglatadi

Yel tarif kvotalarini boshqarish bo'yicha ushbu tizimi bojxona deklaratsiyalarini ro'yxatga olish ketma-ketligiga asoslangan tartibida ishlab chiqilgan. Ya'ni bunda kvotalanadigan tovarlarni erkin muomalaga chiqarish uchun deklaratsiya taqdim qilinganda, bojxona organlari komissiya tomonidan kvota ajratilganligi, mavjud kvota miqdori va holati haqida to'liq ma'lumotlarni yuqoridagi dastur orqali tekshirishi mumkin. Ushbu tizim bojxona xizmatining deklaratsiyalash tizimi bilan integratsiyalashgan bo'lib, kvotalanadigan tovar rasmiylashtirilib, chiqarib yuborilgandan keyin tizimdagi ma'lumotlar avtomatik o'zgaradi (kvota miqdori kamayadi). Ushbu tizim orqali tarif kvotasi belgilangan tovarlar importining samarali nazorati amalga oshiriladi. Undan tashqari ushbu tizimning afzalliklaridan yana biri shundaki, ushbu tizim orqali tashqi iqtisodiy faoliyat (keyingi o'rinlarda — TIF) ishtirokchilari onlayn shaklda tarif kvotasi belgilangan tovarlar to'g'risida (mavjud kvota miqdori va holati haqida) detallashtirilgan ma'lumotlarga ega bo'lishadi[6].

Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqining (keyingi o'rinlarda — YeOI) davlatlari orasida "Tarif

kvotalarini qo'llash shartlari va mexanizmlari to'g'risida" gi kelishuv 2013 yil 21 iyunda qabul qilingan bo'lib bu kelishuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Uchinchi mamlakatlardan kelib chiqqan qishloq xo'jalik tovarlarini yagona bojxona hududiga olib kirishni tartibga solishda agar xuddi shunga o'xshagan tovar yagona bojxona hududida ishlab chiqarilsa (qazib olinsa, yetishtirilsa), ularni import qilish uchun tarif kvotalarini belgilash shaklidagi imtiyozlar (preferensiyalar) berishga yo'l qo'yiladi. Mazkur belgilangan kvotadan oshsa, ularga nisbatan yagona bojxona tarifiga muvofiq import bojxona boji undiriladi. Bunda, tarif kvotasini belgilovchi mas'ul komissiya tomonidan ittifoq hududiga olib kiriladigan tovarning miqdoriy cheklovini uning hududdagi real iste'mol hajmi bilan yagona bojxona hududida o'xshash tovarlarni ishlab chiqarish miqdori o'rtasidagi farqdan kelib chiqib belgilanadi. Komissiya har bitta a'zo mamlakatning ishlab chiqarish va iste'mol hajmlari o'rtasidagi farqni hisobga olgan holda ittifoq uchun umumiy tarif kvotasi hajmini belgilaydi[7].

Yagona bojxona hududiga tarif kvotalari doirasida import qilinayotgan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi, a'zo davlatlar tomonidan TIF ishtirokchilari uchun ajratilgan miqdor doirasida amalga oshiriladi. Lekin ushbu holatda a'zo davlatning vakolatli organi tomonidan shu kabi tovarlarga beriladigan litsenziya mavjud bo'lishi shart hisoblanadi. Litsenziyalar kvotalar ajratilgan tashqi savdo faoliyati ishtirokchilarining arizalari asosida beriladi[7].

Biz quyidagi jadval orqali 2021-yilda YeOIga a'zo davlatlar hududiga olib kiriladigan tovarlar (qishloq xo'jalik mahsulotlari)ga belgilangan tarif kvotalari bo'yicha misolni ko'rishimiz mumkin (1-jadval)[8].

Tarif kvotalarini qo'llash bo'yicha ushbu xorijiy davlatlar tajribalari va mamlakatimizdagi import tarkibini optimallashtirishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etishdagi imkoniyatlardan kelib chiqqan holda quyidagi **takliflar** beriladi:

- Mamlakatning importga qaramlik darajasidan

1-jadval

Tarif kvotalari belgilangan mahsulotlar		Tarif kvotalari hajmlari (ming tonnada)				
Tovar nomi	YEOII bo'yicha TIF TN kodi	Armaniston Respublikasi	Belarusiya Respublikasi	Qozog'iston Respublikasi	Qirg'iziston Respublikasi	Rossiya Federatsiyasi
Mol go'shti, yangi yoki sovitilgan	0201100001, 0201202001	6.0	0.0	21.0	5.0	40.0
Mol go'shti, muzlatilgan	0202100001, 0202201001					530.0

kelib chiqqan holda oziq-ovqat tovarlariga nisbatan tarif kvotalarini ishlab chiqish.

(Bunda Vazirlar Mahkamasining 135-sonli *“Ichki iste'mol bozorini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori* bilan belgilangan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning prognoz hajmlari, aholining ushbu mahsulotlarga bo'lgan talabi va import asosida keltiriladigan mahsulotlarning prognoz hajmlarini hisobga olgan holda ishlab chiqish);

- O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 292-moddasida *“tarif kvotalari”* to'g'risida umumiy qoidalar qo'llanilgan va uning ishlatilish mexanizmi bo'yicha aniqroq yoritilmaganini hisobga olgan holda, Bojxona Kodeksiga ushbu mexanizm bo'yicha qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish yoki qonunosti hujjat asosida aniqlik kiritish o'rinli hisoblanadi[9];

- Tarif kvotalarini nazorat qilish maqsadida Yevropa Ittifoqining “tarif kvotalarini onlayn nazorat qilish tizimi”ni amaliyotga tatbiq etish va “Elektron bojxona rasmiylashtiruvi” AAT ga integratsiya qilish. TIF ishtirokchilariga qulaylik yaratish maqsadida ushbu tizimni “Yagona darcha” BAT tarkibiga ham kiritib qo'yish tavsiya etiladi. Bu orqali TIF ishtirokchilari onlayn shaklda tarif kvotasi belgilangan tovarlar to'g'risida (mavjud kvota miqdori va holati haqida) detallashtirilgan ma'lumotlarga ega bo'lishadi.

Tarif kvotasi amaliyotga joriy etilsa quyidagi *natijalarga* erishiladi:

- **birinchidan**, import miqdori O'zbekistondagi minimal talab darajasidan ko'payishining oldi olinadi;


- **ikkinchidan**, xom-ashyo va oziq-ovqat mahsulotlari uchun bojxona imtiyozlari zarur ehtiyojlar miqdorida maqsadli belgilanadi;

- **uchinchidan**, tarif kvotasidan oshgan tovarlardan undirilgan bojxona to'lovlari hisobiga davlat byudjetining daromadlar qismi ko'payadi.

Umuman olganda, tarif kvotasi import mahsulotlarining ichki bozorda muvozanatini ta'minlash, milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish va mahsulot importi uchun o'rnatilgan tarif stavkalarini moslashuvchan tartibga solish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti ma'lumoti asosida, URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 iyundagi "Bojxona ma'murchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6005-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi "Lex.uz", 2021
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 avgustdagi "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4812-son Qarori. // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.
4. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ning rasmiy sayti ma'lumoti asosida, URL: <http://www.fao.org/3/x7353e/X7353e05.htm>
5. Yevropa ittifoqining rasmiy sayti ma'lumoti asosida, URL: https://ec.europa.eu/taxation_customs/dds2/taric/quota_consultation
6. Yevropa ittifoqining rasmiy sayti ma'lumoti asosida, URL: <https://circabc.europa.eu/sd>
7. Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi davlatlari orasida "Tarif kvotalarini qo'llash shartlari va mexanizmlari to'g'risida"gi 2013-yil 21-iyunda qabul qilingan kelishuv
8. Yevrosiyo Iqtisodiy Komissiyasining rasmiy sayti ma'lumoti asosida, URL: <http://www.eurasiancommission.org/ru/act/trade/catr/ttr/Pages/quotas>
9. O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksi. 2016 y



УКРЕПЛЕНИЕ НАЛОГОВОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНОВ КАК ФАКТОР УКРЕПЛЕНИЯ ДОХОДНОЙ БАЗЫ МЕСТНЫХ БЮДЖЕТОВ

*Ш.Тошматов - Проректор Национального университета Узбекистана,
доктор экономических наук, профессор*

С.Гиясов - Начальник отдела Национального университета Узбекистана

Аннотация: Формирование налогового потенциала во многом является двусторонним процессом, представляющим собой отдельный вид социально-правовых налоговых отношений между государством и налогоплательщиками. Обеспечение стабильности доходов местных бюджетов, оптимизация объема трансфертов, подлежащих выделению из республиканского бюджета, и оценка налогового потенциала для эффективного прогнозирования налоговых поступлений является одной из важных научных и практических задач в области государственных финансов. В данной статье описаны методы оценки налогового потенциала регионов, результаты научных исследований по оценке налогового потенциала регионов и рассмотрены факторы, влияющие на налоговый потенциал.

Ключевые слова: налоговая система, налоговый потенциал региона, региональный валовый внутренний продукт, инвестиция, местный бюджет, бюджет, репрезентативная налоговая система, налогоплательщик, налоговая ставка.

Annotatsiya: soliq salohiyatini shakllantirish asosan davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi ijtimoiy-huquqiy soliq munosabatlarining alohida turi bo'lgan ikki tomonlama jarayondir. Mahalliy byudjetlar daromadlarining barqarorligini ta'minlash, respublika byudjetidan ajratiladigan transfertlar hajmini optimallashtirish va soliq tushumlarini samarali prognoz qilish uchun soliq salohiyatini baholash davlat moliyasi sohasidagi muhim ilmiy va amaliy vazifalardan biridir. Ushbu maqolada hududlarning soliq salohiyatini baholash usullari, hududlarning soliq salohiyatini baholash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar natijalari bayon etilgan va soliq salohiyatiga ta'sir qiluvchi omillar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot ob'ekti sifatida hududlarning soliq salohiyati tanlandi.

Kalit so'zlar: soliq tizimi, mintaqaning soliq salohiyati, mintaqaviy yalpi ichki mahsulot, investitsiya, mahalliy byudjet, byudjet, vakillik soliq tizimi, soliq to'lovchi, soliq stavkasi.

Основная часть

Сегодня приоритетными задачами являются расширение масштабов модернизации и диверсификации экономики регионов, в первую очередь повышение промышленного и экспортного потенциала, создание благоприятных условий для размещения промышленных предприятий и других производственных объектов, снижение различий в уровне социально-экономического развития регионов за счет широкого развития частного предпринимательства, дальнейшего развития и модернизации их производственных, инженерно-коммуникационных и социальных ин-

фраструктурных сетей. При этом, важно расширять доходную базу местных бюджетов, поскольку доходы местных бюджетов являются основным источником доходов, когда речь заходит о решении проблем в процессах либерализации экономики и бюджетной децентрализации. Чем выше налоговый потенциал области, тем больше возможностей для ее программ развития, а это создаст условия для роста налогового потенциала регионов, снижения уровня зависимости местных бюджетов от вышестоящего бюджета.

Объективная оценка налогового потенциала территорий в налоговой системе страны

по сбору налогов и сборов поможет скоординировать деятельность государственных органов и органов местного самоуправления всех уровней в целях финансового обеспечения. В этом процессе важен налоговый потенциал, который сегодня рекомендуется рассматривать как один из важнейших параметров стабильности и сбалансированности бюджетно-налоговых отношений в регионах. В то же время объективная оценка налогового потенциала, знание факторов воздействия к механизмам его формирования могут сыграть важную роль в повышении эффективности антикризисных мер и в определенной степени в устранении негативных социально-экономических последствий глобальной нестабильности.

В связи с этим наличие у регионов возможностей эффективно использовать свой потенциал играет важную роль в их социально - экономическом развитии. В этом направлении сегодня актуальны вопросы стабилизации поступления доходов в местные бюджеты, исключения регионов из дотаций, организации эффективного управления процессом формирования доходов местных бюджетов. Оптимальная система прогнозирования доходов местного бюджета основана на данных об уровне привлекаемых доходов, а также налоговом потенциале региона. Кроме того, совершенствование методов распределения налоговых поступлений между бюджетами разных уровней неразрывно связано с точной и объективной оценкой налогового потенциала.

В результате реформ, проведенных в 2018 году в налоговой системе, произошло резкое увеличение числа налогоплательщиков в общем порядке (таблица 1).

Согласно действующему законодательству, начиная с 2018 года налоги на отдельные виды предпринимательской деятельности, налоги на имущество физических лиц, земельные налоги с физических лиц, сборы за право торговли определенными видами токен и предоставления отдельных видов услуг перечисляются на счет поступлений из бюджетов районов в полном размере, микрофир-

мами уплачиваются в бюджет округа; налоговые поступления от доходов юридических лиц, единый налоговый платеж для предприятий торговли и общественного питания, налоги на доходы физических лиц распределяются между бюджетом Республики и местным бюджетом в соответствии с нормами.

Однако наблюдается тенденция снижения доли доходов местных бюджетов в государственном бюджете РУз. (таблица 2). Существует ряд проблем и недостатков, препятствующих к росту доходов местных бюджетов. В качестве основной причины можно привести то, что местные налоги и сборы, установленные законодательством, не дают должной степени возможности достаточного формирования доходов местных бюджетов. В частности, предоставление множество льгот по местным налогам, недостатки в обеспечении полного охвата налогоплательщиков и налоговой базы, а также решение вопросов, связанные с мерами по оценке стоимости имущества по рыночным ценам не дают должной степени возможности формировать доходы местных бюджетов. Кроме этого, низкая степень собираемости местных налогов и сборов в результате неэффективности администрирование и механизмов налогообложения, отсутствие полного учета недвижимости и земельных участков, отсутствие объективного порядка определения стоимости имущества и земли, а также необходимость изменения порядка налогообложения являются одним из актуальных задач налоговой системы на сегодняшний день. К существующим проблемам в налогообложении объектов недвижимости можно привести некоторые решения, основанные на следующих вариантах: согласно первому варианту, выбор единого комплекса земли и недвижимости в качестве основы, второй вариант заключается в раздельном расчете налога на землю и здания, третий — он предполагает разделение частной и коммерческой недвижимости.

Наиболее оптимальным вариантом является применение глобальной системы в теории налогообложения недвижимости — налогообложения земли и недвижимости без выде-

Таблица 1

Сведения по количеству налогоплательщиков

Налогоплательщики юридические лица по видам налогов	2018 год	2019 год	2020 год	Темпы роста (в 2020 году по сравнению с 2018 годом)
НДС	6 796	82 405	113 477	+ 106 681
Налог на прибыль	7 609	53 051	113 868	+ 106 259
Налог на имущество	9 261	58 334	58 856	+ 49 595
Земельный налог	12 887	70 046	155 023	+ 142 136
Налог за пользование водными ресурсами	3 443	56 024	136 366	+ 132 923

Источник: составлено авторами на основе сведений Министерства финансов.

Таблица 2

Роль местных бюджетов в доходах государственного бюджета Республики
Узбекистан

Доходы	2015	2016	2017	2018	2019
Гос.бюджет (млрд.сумов)	36 493,3	41 030,7	49684,8	79099,1	112160,4
В том числе:					
Республиканский бюджет (млрд.сумов)	20274,7	22612,7	29699,1	53613,6	81077,4
Доля в гос.бюджете (в %)	55,6	55,1	59,8	67,8	72,3
Местные бюджеты (млрд.сумов)	16218,6	18418,0	19985,7	25485,5	31083,0
Доля в гос.бюджете (в %)	44,4	44,9	40,2	32,2	27,7

Источник: составлено авторами на основе сведений Министерства финансов.

ления ее юридическим и физическим лицам. Поскольку налоговая система развитых зарубежных стран характеризуется комбинированным налогообложением земли и имущества на основе недвижимости, ее положительное значение проявляется в упрощении исчисления и взимания налогов, а также в более систематическом учете объектов, расположенных на этой территории. Налогообложение недвижимости сокращает объем работ и снижает стоимость оценки, а также предоставляет системе кадастровой оценки дополнительную информацию. Потому что в налогообложении земля и здания являются объектами с единым налоговым обязательством.

Оценка недвижимости в мире основана на различных методах определения налоговой базы: первый основан на годовой арендной

плате (Франция, некоторые штаты Австралии, Бельгия); второй обеспечивает основу капитальной стоимости недвижимости, которая определяется как рыночной стоимостью недвижимости, так и ее приблизительной стоимостью (Дания, Япония, США, Австралия, Швейцария); в-третьих, иногда налоговая база составляет лишь часть стоимости недвижимости (швеция) рынка (аренды) [Лапшина, 2018].

В целом, при определении налоговой базы существуют следующие подходы: совершенствование налогообложения на основе рыночной стоимости в отношении земельных участков или имуществ; расчет налоговой базы по годовой ставке аренды; территориальная система оценки, которая включает в себя определение стоимости путем установления налоговой ставки, которая характеризуется

уровнем стоимости на основе характеристик, относящихся к конкретному региону; расчет налоговой базы с использованием статистических моделей; налогообложение недвижимости на основе физических показателей [Логина, 2017].

Таким образом, в первую очередь требуется постоянный мониторинг цен на рынке недвижимости и обновление информации, полученной из различных источников стратификации, что позволяет достигать экономических показателей при проведении массовой оценки. Во-вторых, для повышения качества и точности результатов оценки требуются квалифицированные оценщики, ответственные за результаты оценки недвижимости в органах местного самоуправления. Целью нашей страны является обеспечение экономической стабильности на основе реформ, проводимых в налоговой сфере, создание широких возможностей для быстрого развития малого бизнеса и частного предпринимательства. Можно указать принятые меры по дальнейшему снижению налоговой нагрузки на экономику, улучшению доходной базы местных бюджетов, упрощению налогообложения и совершенствованию налогового администрирования.

В частности, в соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан была принята Концепция [Концепция, 2018] совершенствования налоговой политики Республики Узбекистан, основными направлениями которого являются следующие:

снижение уровня налоговой нагрузки на экономику, а также устранение диспропорций в уровне налогового бремени между хозяйствующими субъектами, уплачивающими налоги по упрощенной и общеустановленной системе налогообложения;

оптимизацию количества налогов путем их унификации, а также объединение налогов, имеющих схожую налогооблагаемую базу, сокращение и упрощение налоговой отчетности, минимизацию операционных расходов;

обеспечение стабильности макроэкономической ситуации, устойчивости формирования Государственного бюджета Республики

Узбекистан и его доходов;

упрощение налогового законодательства, устранение противоречий и коллизий в нормативно-правовых актах в сфере налоговых отношений, усиление защиты прав и законных интересов добросовестных налогоплательщиков;

обеспечение стабильности налогового законодательства и прямого действия норм Налогового кодекса Республики Узбекистан с максимальным ограничением отсылочных норм и подзаконных актов, регламентирующих вопросы налогообложения, в том числе установление в кодексе размеров ставок налогов и других обязательных платежей;

сохранение благоприятного режима для иностранных инвесторов и инвестиций, их всесторонней поддержки и надежной правовой защиты;

совершенствование форм и механизмов налогового контроля, в том числе за счет широкого внедрения современных информационно-коммуникационных технологий, обеспечивающих наиболее полный охват и учет объектов налогообложения и налогоплательщиков, внедрение порядка налогообложения операций, связанных с трансфертным ценообразованием.

Кроме того, оптимизируя налогов с оборота были внесены изменения в критерии общеустановленного и упрощенного порядка налогообложения, а также перехода на упрощенный порядок налогообложения. В частности, к концу прошлого года годовой оборот предприятий, превышающий 1 млрд. сумов или достигающий фиксированной предельной суммы в течение года, был переведен на общеустановленный порядок налогообложения.

При этом, предельный размер годового оборота, установленный в размере 1 млрд. сумов, пересматривается не реже одного раза в 3 года. А также для всех субъектов предпринимательства, в том числе для юридических лиц оборот, которых составляет до 1 млрд. сумов были введены налог на имущество юридических лиц, земельный налог и налог на пользование водными ресурсами. В ре-

зультате осуществления налоговых реформ 2019 году резко возросло число плательщиков НДС, земельного налога и налога на имущество, что привело к увеличению налогового потенциала (налоговых поступлений) регионов (рис.-1).

В то же время, в результате пересмотра критериев перехода на упрощенный порядок налогообложения субъектов малого предпринимательства, доля налогоплательщиков юридических лиц в общеустановленном системе налогообложения за короткий промежуток времени достигла от 2% до 26% (рис.-2).

Это, в свою очередь, привело к увеличению налоговых поступлений, в том числе поступлений из местных бюджетов (рисунок 3). В частности, НДС увеличился на 172 %, земельный налог на 154%. Рост поступлений НДС в 2019 году зависел от 12-кратного увеличения числа налогоплательщиков, а также расширение налоговой базы зависит от нижеследующего:

- изменения в критериях определения системы налогообложения;

- введение упрощенного порядка уплаты НДС для налогоплательщиков, у которых годовой налоговый оборот (поступление) составляет в размере до 3 млрд.сумов;

- отмена льгот на сельскохозяйственную и продовольственную продукцию, произведенную в Узбекистане;

- признание налогоплательщиков, чей оборот больше 1,0 млрд.сумов или площадь орошаемых сельскохозяйственных угодий которых составляет более 50 га, плательщиками НДС;

- перевод импортеров на уплату НДС независимо от объема выручки от реализации продукции.

Рост поступлений налога на ресурсы обусловлено увеличением числа налогоплательщиков (до 7 раз), в том числе:

внедрение порядка уплаты налога на имущество, земельного налога и налога за пользование водными ресурсами юридических лиц для всех хозяйствующих субъектов, включая оборот которых составляет до 1,0 млрд.сумов;

снизить налоговую ставку налога на имущество юридических лиц с 5 процентов до 2




Рис.-1. Динамика роста количества налогоплательщиков, [ГНК, 2020]



Рис.-2. Состав налогоплательщиков юридических лиц по системам налогообложения (%), [ГНК, 2020]




Рис.-3. Динамика налоговых поступлений (млрд.сумов), [ГНК, 2020]

процентов, при этом сохранив порядок расчета налоговой ставки для ранее приватизированных объектов, в том числе юридических лиц, которые используют здания и сооружения неэффективно.

Основным фактором стало увеличение числа налогоплательщиков в 5,8 раза за счет изменения критериев определения системы налогообложения для увеличения поступлений по налогу на прибыль в 2019 году, включения юридических лиц, производящих цемент (клинкер) и полиэтиленовые гранулы, в список налогоплательщиков, а также отмены обязательных взносов взимаемые в государственные целевые фонды.

В целом, с 2020 года уровень бюджетной обеспеченности и открытости отражается в консолидированном государственном бюджете государственных расходов, осуществляемых за счет всех государственных целевых фондов и средств внешнего долга, привлеченных из-за рубежа. В соответствии с международными стандартами был создан счет общего финансового баланса. В новой редакции Налогового кодекса введена ответственность государственной налоговой службы за чрезмерное взимание налогов, введены формы налогового контроля, апробированные в зарубежной практике с использованием современных методов, а также упрощенные процедуры исчисления и уплаты налогов [Кодекс, 2019].

В свою очередь, проводимые реформы требуют повышения ответственности органов местного самоуправления за своевременное финансирование расходов первого уровня, утвержденных программ и мероприятий по социально-экономическому развитию регионов, не допущение осуществления мероприятий, источник которых неясен, а также дальнейшего ужесточения бюджетной дисциплины.

Тем не менее, с 2020 года местным органам власти и местным кенгашам предоставлен ряд полномочий по эффективному формированию и рациональному использованию местного бюджета. В частности, Жокаргы Кенес Республики Каракалпакстан, Кенгаши

народных депутатов областей и города Ташкента, районов и городов соответственно: утверждает ограниченный объем бюджетных средств, выделяемых из бюджета Республики Каракалпакстан, местных бюджетов областей и города Ташкента, бюджетов районов и городов распределителям средств областного бюджета, а также ограниченный объем нормативных бюджетных трансфертов, выделяемых из бюджета Республики Каракалпакстан, региональных бюджетов областей и из бюджета города Ташкента; одобряет прогноз доходов республиканского бюджета, региональных бюджетов областей, бюджета города Ташкента, бюджетов районов и городов; принимает решения о внесении изменений в бюджет Республики Каракалпакстан, местные бюджеты областей и городов Ташкента, районов и городов.

Местные бюджеты составляют важную составляющую государственного бюджета Республики Узбекистан и являются важным финансовым ресурсом в деятельности местных органов власти. Система местных бюджетов позволяет в полной мере удовлетворять местные потребности и обеспечивает выполнение мероприятий, осуществляемых государством централизованно, тесно связанных с реализацией. Перед местным самоуправлением стоит задача увеличения доходов местного бюджета и экономии ресурсов.

В частности, в Республике в качестве основных направлений стратегии совершенствования системы управления государственными финансами на 2020-2024 годы определены следующие [Постановление, 2019]: разработку среднесрочных основ бюджета и внедрение новой системы формирования годового бюджета — «бюджет, ориентированный на результат» в целях внедрения стратегического подхода к налогово-бюджетной политике; повышение институционального потенциала и ответственности участников бюджетного процесса за обеспечение достоверности макрофискальных прогнозов; усиление бюджетных полномочий, подотчетности и ответственности распорядителей бюджетных средств и органов государственной

власти на местах; внедрение системы оценки фискальных рисков, ведения учета финансовых активов и обязательств, а также эффективного управления ими; укрепление финансовой дисциплины путем унификации стандартов бюджетного учета, совершенствования системы внутреннего контроля и аудита; обеспечение открытости, полноты и соответствия бюджетной информации международным стандартам; усиление парламентского и общественного контроля за бюджетным процессом.

Выводы и предложения

В целях повышения реальных доходов, уровня жизни и качества населения при проведении самостоятельной работы и ответственности органов местного самоуправления в целях обеспечения безусловной реализации стратегически важных инвестиционных проектов по радикальному укреплению доходной базы местных бюджетов, снижению зависимости от ассигнований бюджетов высокого уровня, модернизации и техническому обновлению жилищного фонда, основными задачами бюджетной политики страны являются обеспечение устойчивого финансирования развития регионов, резкое снижение зависимости от бюджета центра, проведение самостоятельной работы органов местного самоуправления в управлении средствами местных бюджетов путем кардинальной реформы бюджетных отношений. Чем выше налоговый потенциал регионов, тем шире возможности для реализации программ его развития, а это создаст условия для роста налогового потенциала регионов, снижения уровня зависимости местных бюджетов от вышестоящего бюджета.

Объективная оценка налогового потенциала регионов в налоговой системе страны по сбору налогов и сборов поможет скоординировать деятельность государственных органов и органов местного самоуправления всех уровней в целях финансового обеспечения. В этом процессе важное значение имеет налоговый потенциал, который сегодня рекомендуется рассматривать как один из важнейших


параметров стабильности и сбалансированности бюджетно-налоговых отношений в регионах. Знание объективную оценку налогового потенциала, механизмов его формирования и факторы, влияющие на налоговый потенциал могут сыграть важную роль в повышении эффективности антикризисных мер и в определенной степени в устранении негативных социально-экономических последствий глобального кризиса.

Оптимальная система прогнозирования доходов местного бюджета основана на данных об уровне привлекаемых доходов, а также налоговом потенциале региона. Кроме того, совершенствование методов распределения налоговых поступлений между бюджетами разных уровней неразрывно связано с точной и объективной оценкой налогового потенциала.

Исходя из выбранного метода, сущность оценки налогового потенциала регионов взаимно отличается друг от друга. По результатам данной исследовательской работы, в целях оптимизации расчета налогового потенциала рекомендуется провести работу в направлении совершенствования налоговой и статистической информационной базы, автоматизации отчетности налоговых органов, синхронизации и регулирования отчетов и данных, публикуемых различными ведомствами, а также составления налогового паспорта регионов и оперативной публикации налоговой отчетности.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР:

1. Gaspar, V., Jaramillo, L., & Wingender, M. P. (2016) Tax Capacity and Growth: Is there a Tipping Point? International Monetary Fund.
2. Gupta A.S. (2007) Determinants of tax revenue efforts in developing countries //IMF Working Paper. <https://www.imf.org/external/pubs/ft/wp/2007/wp07184.pdf>.
3. Musgrave R. (1969) Fiscal systems/New Haven: Yale university press.299 p.
4. Pessino, C., & Fenochietto, R. (2010) Determining countries' tax effort. t: <https://www.researchgate.net/publication/227439705>.
5. Piancastelli M. (2001) Measuring the Tax Effort of Developed and Developing Countries. Cross Country Panel Data Analysis // 1985/1995, Brazil, IPEA, Sep.
6. Stotsky J.G. (1997) Tax Effort in Sub-Saharan Africa //IMF Working Paper.
7. ГНК (2020) Сведения из официального сайта Государственного налогового комитета Республики Узбекистан. <https://soliq.uz/storage/files/May2020/2c9180897>.
8. Горский И.В. (1999) Налоговый потенциал в механизме межбюджетных отношений. // Финансы.. №6. С. С. 27-30.
9. Евстафьева А. Х. (2016) Налоговый потенциал региона: оценка и прогнозирование (на примере Республики Татарстан). <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=27315659>.
10. Исламкулов А.Х. (2017) Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришда солиқ потенциалдан фойдаланиш масалалари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, www.iqtisodiyot.uz.
11. Каратаев А.С. (2010) Инструментарий оценки налогового потенциала // Вектор науки ТГУ. № 4. С.226–229.
12. Концепция (2018) Указ Президента Республики Узбекистан “О Концепции совершенствования налоговой политики Республики Узбекистан” № УП-5468, от 29 июня 2018 г.
13. Министерство финансов (2018) Сведения из официального сайта Министерство финансов Республики Узбекистан. www.mf.uz.
14. Мурзина Е. А., Ялялиева Т. В., Шемякина М. С. (2019) Понятие «налоговый потенциал» и подходы к его определению.Вестник Евразийской науки /The Eurasian Scientific Journal <https://esj.today>.
15. Шабашев В. А., Маликайдаров Т.Т. (2015) Понятие налогового потенциала региона и проблемы его развития. Вестник Кемеровского государственного университета 4(64) 25-30.
16. Шалюхина М.Н. (2014) Налоговый потенциал региона: проблемы оценки, формирования и эффективного использования //Налоговый вестник. №1. С.31–34.



O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH XUSUSIYATLARI

R.Xasanov - Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti loyiha rahbari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Maqolada kambag'allikni qisqartirishning O'zbekistonga xos xususiyatlari, kambag'allik darajasini belgilashdagi holatlarni hisobga olinishi, kambag'allikni darajasini aniqlashning O'zbekistonda xos xususiyatlari dunyo tajribasida qo'llanilayotgan uslublardan farq qilishi, minimal iste'mol xarajatlari qiymatini joriy etilishi, bunda bir nechta tamoyillarga asoslanishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kambag'allik, kambag'allikni qisqartirish, iste'mol, minimal xarajatlar, daromadlar, milliy xususiyatlar, kambag'allikni qisqartirish.

Аннотация: В статье анализируются особенности снижения бедности в Узбекистане с учетом обстоятельств определения уровня бедности, особенности снижения бедности в Узбекистане отличаются от методов, используемых в мировой практике, введением минимальных потребительских затрат, основанных на нескольких принципах.

Ключевые слова: бедность, потребление, минимальные потребительские затраты, доход, национальные особенности, сокращение бедности.

Dunyo tajribasidan ma'lumki, har bir mamlakatning iqtisodiy ahvoli, rivojlanganlik darajasi va istiqbolda belgilangan vazifalardan kelib chiqib aholining minimal yashash xarajatlari belgilanadi. Bu masalada rivojlangan, rivojlanayotgan va past darajada taraqqiyotga ega mamlakatlar o'ziga xos uslublarni qo'llab keladilar. Ko'pgina vaziyatlarda iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi aholining minimal hayot kechirishi qiymatining milliy o'lchamlarini belgilab beradi. Bu o'lchamlar iqtisodning taraqqiy etishiga qarab, bosqichma bosqich sifat jihatdan o'zgarib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida kambag'al aholini qo'llab quvvatlashning kompleks choratadbirlarini ishlab chiqish, aholi iste'molining minimal qiymatini aniqlash borasida belgilab bergan vazifalari aholini manzilli himoya qilish, aholining muhtoj qatlamini turli usul va vositalar yordamida kambag'allikdan chiqarish, ularni doimiy daromad manbaiga ega bo'lishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish strategik vazifa sifatida belgilangan.

Kambag'allik — bu kishi o'zini va oilasini eng zaruriy ne'matlar bilan ta'minlashi

uchun daromadlarning yetishmasligi, ijtimoiy xizmatlar va hayotiy xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlarining chegaralanganligidir.

Kambag'allikni qisqartirishda iste'mol tarkibi va chegarasi ustuvor qaraladi. Xususan, minimal iste'mol darajasini belgilash, uning me'yorlari va unga bo'lgan yondashuvlar kambag'allik muammosi ko'lamini keltirib chiqaradi. Bunda kambag'allik darajasini belgilashda qo'yidagi holatlarni hisobga olinishi taqozo qilinadi [1]:

1. Kambag'allik darajasini belgilashda har bir mamlakat o'ziga xos vazifa va maqsadlarni ko'zda tutadi. Ayrim mamlakatlar turmush sifatini oshirishni maqsad qilib qo'ysa, boshqalari kishilarni qashshoqlik botqog'idan chiqarishni, ayrimlari esa turmush darajasining pasayib ketishini oldini olishni muhim hisoblaydilar.

2. Turli mamlakatlar milliy iqtisodining rivojlanganlik darajasidan kelib chiqib, hayot kechirish minimumini aniqlaydi. Bunda bir mamlakatda belgilangan kambag'allik mezonlari boshqasi uchun to'g'ri kelmasligi mumkin.

3. Amaldagi nochorlarni himoyalash, ularning imkoniyatlari doirasida va davlatning ko'magi ta'sirida o'zaro nisbat, ya'ni o'zini-o'zi ta'minlashi va yordamga muhtojligi qorishma shaklida olib boriladi.

4. Kambag'allikning me'yorlari belgilanadi. Bu me'yorlar iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasiga binoan shakllantiriladi. Belgilangan me'yor hayot kechirish minimumini iste'mol nuqtai nazaridan emas, balki ta'minot imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilaydi.

Kambag'allik darajasini aniqlashning O'zbekistonga xos jihati shundan iboratki, bunda kishi o'zini zaruriy iste'mol ne'matlari bilan ta'minlay olmasligi, ular xohlasada buning uddasidan chiqqa olmasligi hisobga olinadi. Chunki, jamiyat a'zosi o'zining sotsial maqomiga ko'ra yetarlicha daromadga ega bo'lmazligi tabiiy holat. Bundan tashqari, iqtisodiy holat va vaziyat ularga imkon yaratib bermaydi. Shu bilan birga, ayrim sotsial guruhlar eskidan shakllangan faoliyat turini yangicha sharoitga moslash imkoniyatiga ega emaslar. Yoxud, ayrim kasbdagi kishilar mehnat mahsuli yangidan paydo bo'lgan iqtisodiyot tarkibi va iste'mol darajasiga kerak bo'lmay qoladi. Natijada bunday subyektlar kambag'allikka yuz tutadi [2].

Kambag'allik darajasiga iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi va ishlab chiqarish sohalari ham kuchli ta'sir etadi. Eskidan qolgan iqtisodiyot tarkibi yangisi bilan almashib, iqtisodiy faollik vujudga kulguncha aholining ko'pchilik qatlami kambag'allashib bo'ladi. Kambag'allik qarmog'idan chiqish esa juda qiyin kechadi. Bunday ta'sir hududlardagi tarmoqlar tuzilishi hosilasi sifatida ham yuzaga chiqishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, kambag'allikni aniqlash turli mezonlar doirasida amalga oshiriladi. Bu mezonlar iqtisodiyotning rivojlanishi bilan o'zgarib boradi. Eng iqtisodiy og'ir sharoitda hayot kechirish minimumi asosan kishini hayotiyligini ta'minlab turishga qaratiladi. Bunday sharoitdagi mezon asosan oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol darajasiga qaratiladi. Chunki, mamlakatdagi mavjud iqtisodiy holat va yalpi milliy mahsulot miqdori juda nochor bo'lganligidan iste'mol ne'matlarining jiddiy tanqisligi hukm suradi. Masalan, Afg'onistonda bir necha o'n yillar davom etgan urush ishlab chiqarishni tamomila izdan chiqardi. Aholining asosiy qismi nafaqat kambag'al, balki qashshoqlashib qoldi [3].

Demak, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan tadbirlar — kishilarning daromad topish manbalarini kengaytirish, odamlarimizni, ayniqsa yoshlar va ayollarni tadbirkorlikka o'qitish va bozor ishtirokchisiga aylantirish, ijtimoiy ko'maklarni manzilliligi oshirish, minimal ish haqi miqdorini qayta ko'rib chiqish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarini kengaytirish hisobiga qishloq tumanlariga sanoat ishlab chiqarishini jadal rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish hamda shaharlashtirish jarayonlarini tezlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi [6].

Kambag'allikni o'lchashda dunyoning ba'zi mamlakatlari daromadlar, ba'zilar esa iste'mol usulidan foydalanishadi. Har ikki usulning afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'allik darajasini hisoblashda daromadga nisbatan iste'moldan foydalanishning asosiy 4 sababi mavjud: **birinchidan**, iste'mol darajasi real vaziyatni ifodalaydi, **ikkinchidan**, iste'mol davriy tekis taqsimlangan bo'lib, farovonlikni to'g'ri baholash imkonini beradi, **uchinchidan**, rivojlanayotgan davlatlarda uy xo'jaliklari iste'moli to'g'risidagi ma'lumotlarini ochiq-oydin aytishadi, daromadlarini yashirishlari mumkin, **to'rtinchidan**, uy xo'jaliklarida tomorqada yetishtirilgan mahsulotlar iste'mol ham mavjud. Iste'mol usuli orqali hisoblashda ushbu mahsulotlarni ham qamrab olish mumkin bo'ladi.

Xalqaro mehnat tashkiloti hisobotida norasmiy iqtisodiyoti yirik va rivojlanayotgan mamlakatlar sifatida Hindiston (88.2%), Vyetnam (76.2%), Indoneziya (85.6%) va boshqalar keltirilgan. Ushbu mamlakatlarning barchasi kambag'allikni baholashda iste'mol usulidan foydalanishadi [4].

Bugungi kunda ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'allikka qarshi kurashish va bu borada aholining "ko'zlangan" (target) guruhini aniqlash maqsadida **minimal xarajatlar** ko'rsatkichidan foydalanilmoqda. Bunda asosan, kam daromadli oilalarning iste'mol xususiyatlaridan kelib chiqib, oziq-ovqatlar, nooziq-ovqat tovarlar va xizmatlar uchun zaruriy xarajatlar miqdori belgilanadi.

Minimal iste'mol xarajatlari – bu har bir

kishi va uning oilasi uchun ma'lum davrda (kunlik, haftalik, oylik) real iste'moli uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat va nooziq-ovqat va xizmatlar minimumidir. Ushbu minimum mamlakatlar, hududlar, tuman-shaharlar va mahallalar kesimida amaldagi bozor narxlari doirasida farqlanadi. Minimallik darajasini belgilash uchun, birinchi navbatda aholining eng kambag'al qatlami iste'molining real holati aniqlanadi va shunga nisbatan minimal iste'mol qiymati belgilab olinadi.

Kambag'allik muammosi iste'mol tarkibi va darajasi orqali yuzaga chiqar ekan, buni iste'mol chegarasi bilan izohlash talab etiladi. Xususan, minimal iste'mol darajasini belgilash, uning me'yorlari va unga bo'lgan yondashuvlar kambag'allik ko'lamini keltirib chiqaradi. Bunda kambag'allik darajasini belgilashda qo'yidagi holatlarni hisobga olinishi taqozo qilinadi:

1. Kambag'allik darajasini belgilashda har bir mamlakat o'ziga xos vazifa va maqsadlarni ko'zda tutadi. Ayrim mamlakatlar turmush sifatini oshirishni maqsad qilib qo'ysa, boshqalari kishilarni qashshoqlik botqog'idan chiqarishni (iqtisodiyoti past rivojlangan mamlakatlar), ayrimlari (rivojlanayotgan mamlakatlar) esa turmush darajasining pasayib ketishini oldini olishni muhim hisoblaydilar.

2. Turli mamlakatlar milliy iqtisodining rivojlanganlik darajasidan kelib chiqib, hayot kechirish minimumini aniqlaydi. Bunda bir mamlakatda belgilangan kambag'allik mezonlari boshqasi uchun to'g'ri kelmasligi mumkin.

3. Amaldagi nochorlarni himoyalash, ularning imkoniyatlari doirasida va davlatning ko'magi ta'sirida o'zaro nisbat, ya'ni o'zini-o'zi ta'minlashi va yordamga muhtojligi qorishma (bir birini to'ldiruvchi) shaklida olib boriladi.

4. Qambag'allikning me'yorlari belgilanadi. Bu me'yorlar iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasiga binoan shakllantirilib, iste'mol minimumi nuqtai nazaridan emas, balki ta'minot imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

5. Hozirgi davrda O'zbekiston aholisi uchun minimal iste'mol xarajatlarini aniqlash uchun muhtoj aholining amalda mavjud bo'lgan iste'moli darajasini belgilab olish talab etiladi. Yangidan joriy etilgan "Temir daftar", "Ijtimoiy

reyestr", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va yana bir qancha ijtimoiy manbalar asosida kambag'allik va muhtojlik darajasini aniqlash aholining real hayot kechirish ko'lamini va miqdoriy ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini bermoqda. Vaholanki, rasmiy statistikada aholining real iste'molini aniq ifodalovchi keng qamrovli ma'lumotlar to'liq mavjud emas [5].

Kambag'allikni darajasini aniqlashning O'zbekistonda xos xususiyatlari bir nechta jihatlar bilan dunyo tajribasida qo'llanilayotgan uslublardan farq qiladi:

Birinchidan, mamlakatimiz aholisi sarf-harajatlarida qanday tovar mahsulotlar va xizmatlar iste'mol qilinishini aniqlab olish zarur.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM miqdorining kambag'allikni qisqartirishga bo'lgan imkoniyatini to'g'ri baholash darkor.

Uchinchidan, aholining iqtisodiy faolligi va biznes muhitining erkinligi faoliyat uchun shart-sharoitlar yaratib berishga qodirligini baholash kerak.

To'rtinchidan, ijtimoiy xizmatlar, ularning turlaridan aholining foydalanishidagi o'zgarishlar qay yo'sinda kechayotganligini o'rganib borish lozim.

Beshinchidan, kambag'allik darajasini shahar va qishloq aholisi turmushidagi farqlar kesimida ularga nisbatan tabaqalashgan tarzda yondashish kerak. Ushbu ta'kidlangan xususiyatlar aholining kambag'al qatlamini real vaziyatdan kelib chiqib baholashga va ularga manzilli yordam ko'rsatishga imkon beradi.

O'zbekistonda minimal iste'mol xarajatlari aholi iste'molidagi oziq-ovqat, nooziq-ovqat hamda xizmatlarning amaldagi narxlar darajasidan kelib chiqib, sarflayotgan minimal qiymati hisoblanadi. Mazkur yondoshuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1.Minimallik tamoyili. Bunda aholi tanlovi va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, muhtoj oilalar iste'mol tarkibiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar inobatga olinadi.

2. Iste'mol tarkibi tamoyili. Bunda aholining oziq-ovqat mahsulotlari iste'moliga sarflangan amaldagi xarajatlari tarkibi aniqlanadi va minimal qiymat miqdori e'tiborga olinadi.

3. Oila tarkibi tamoyili. Oila a'zolari soni, demografik holatdagi o'zgarishlarning o'ziga xosligini inobatga olgan holda nooziq-ovqat mahsulotlari turlariga nisbatan tarkibi hisobga olinadi.

4. Xizmat ko'rsatish tamoyili. Bunda oila uchun eng zaruriy xizmatlarga sarf xarajatlar miqdori va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan bepul xizmatlarni e'tiborga olish kerak bo'ladi.

5. Boqimandalikni cheklash tamoyili. Bunda kambag'al oilalarga ko'rsatiladigan yordam shunday darajada bo'lishi kerakki, u oilada boqimandalik kayfiyatining kuchayib ketishiga olib kelmasligi, ya'ni aholining boqimondachilik xulq atvorini rag'batlantirmasligi zarur.

Vaziyatga to'g'ri baho berish kambag'allik borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, kambag'allik botqog'idan qisqa davrda chiqib ketish, mamlakatimizda o'rta hol qatlamning ortib borishi uchun shart-sharoit yaratib berishi lozim [6].


O'zbekiston uzoq yillar mobaynida kambag'allik tushunchasi, yashash minimumi belgilash va bu holat bilan bog'liq yondashuvlar tor doirada ko'rib, rasman e'lon qilinmadi, faqat kam ta'minlanganlik iborasi qo'llanilib, ularga nafaqa shaklida to'lovlar berib borildi-ki, ushbu to'lovlar minimal iste'mol xarajatlarini hisobga olmagan.

Minimal iste'mol xarajatlarini belgilash orqali yondashishning O'zbekistonga xos jihati shundan iboratki, bunda kishi o'zini zaruriy iste'mol ne'matlari bilan ta'minlay olmasligi, ular xohlasada buning uddasidan chiqa olmasligi hisobga olinadi. Chunki, jamiyat a'zosi o'zining sotsial maqomiga ko'ra yetarlicha daromadga ega bo'lmashligi tabiiy holat. Bunday tashqari, iqtisodiy holat va vaziyat ularga imkon yaratib bermaydi. Shu bilan birga, ayrim sotsial guruhlar eskidan shakllangan faoliyat turini yangicha sharoitga moslash imkoniyatiga ega emaslar. Yoxud, ayrim kasbdagi kishilar mehnat mahsuli yangidan paydo bo'lgan iqtisodiyot tarkibi va iste'mol darajasiga kerak bo'lmay qoladi. Natijada bunday subyektlar kambag'allikka yuz tutadi.

Yuqorida ta'kidlangan **minimal iste'mol xarajatlari** kambag'allikni aniqlash va tegishli choralar belgilash **mezon** doirasida amalga oshirilmoqda. Bu mezon iqtisodiyotning rivojlanishi bilan o'zgarib boradi. Eng iqtisodiy og'ir sharoitda minimal iste'mol xarajatlari asosan kishini hayotiyiligini ta'minlab turishga qaratiladi. Bunday sharoitdagi mezon asosan oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlar va xizmatlar iste'moli minimumini ta'minlashga qaratiladi. Kelajakda miqdoriy ta'minot muammosi deyarli yo'q bo'lganda, davlat iste'mol miqdorini emas, balki iste'mol sifatini yaxshilashni muhim mezon sifatida qaraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ada Ferrer-I-Carbonell and Bernard M.S. Van Praag Poverty in Russia. Journal of Happiness Studies. February 2001. pp. 147-172. DOI: 10.1023/A:1011560530411 · Source: RePE
2. M.Pardayev, O. Pardayev. Mamlakatimizda kambag'allik darajasini kamaytirish yo'llari. Logistika va iqtisodiyot. 2020 u.
3. В.С.Сычева. «Бедность и её измерение», Социология: М, 2011, №14 с.128.
4. Amartya K. Sen, "Poor, Relatively Speaking," Oxford Economic Papers 35 (1983): 157; and Paul Spicker, Poverty and Social Security (London: Routledge, 1993), 54.
5. Popkin, B.M., A.K. Baturin, M. Mozhina, T. Mroz, S. Annu, I. Dmitrichev, E. Glinskaya and M. Lokshin: 1996, The Russian Federation Subsistence Income Level: The development of regional food baskets and other methodological improvements (Report to the Russian federation and also the World Bank).
6. Banerjee, A. & Duflo, E., 2011. Poor Economics: A Radical Rethinking of the Way to Fight Global Poverty.



MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTGA O'TKAZILISHINING OBEKTIV ZARURATI

M.Karimjonova - Bojxona instituti katta o'qituvchisi, PhD,

J.Nuraliyev - Bojxona instituti kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga o'tkazishning obyektiv zaruriyati va uning mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlanishida investitsion muhitni yaxshilashdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Buxgalteriya hisobining professionallashuvi, buxgalteriya hisobining xalqaro integratsiyalashuvi, buxgalteriya hisobi bo'yicha xalqaro tashkilotlar, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxona, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari

Аннотация: В статье подчеркивается объективная необходимость приведения финансовой отчетности к международным стандартам и ее роль в улучшении инвестиционного климата в развитии нашей экономики.

Ключевые слова: Профессионализация бухгалтерского учёта, международная интеграция бухгалтерского учёта, международные бухгалтерские организации, предприятия с иностранными инвестициями, международные стандарты финансовой отчетности.

Kirish

Dunyo bozoriga chiqish, xalqaro kredit olish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun moliyaviy hisobotni **Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)** asosida tuzish maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunida buxgalteriya hisobi subyektlari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qo'llashi mumkinligi belgilandi. Mamlakatimizda MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzayotgan kompaniyalar soni oshib bormoqda. Chunki, moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirishga erishish faqat MHXSlarga o'tish orqali amalga oshirilishi mumkin bo'ladi. Shu bois, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar hamda ilg'or instrumentlar va tajribalardan foydalanish kun tartibidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ushbu masalalarning kun tartibiga qo'yilishi MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzish metodologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi.

Mulkchilik va tarmoq shaklidan qat'iy nazar, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda

moliyaviy hisobotlarini milliy standartlardan xalqaro standartlar asosida tuzish muhim hisoblanib, xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni xorijiy investorlar tomonidan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishi va o'zining sarmoyasini kiritish bo'yicha engilliklar tug'diradi.

MHXSGa o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalarida mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish mumkin. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari butun jahonda moliyaviy hisobot standartlarining yaqinlashishida va yanada yaxshilanishida muhim rol o'ynadi.

MHXSGa o'tkazishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- ko'pchilik mamlakatlarda hisob va hisobotga qo'yiladigan milliy talablar uchun asos bo'lib xizmat qilish;

- hisob va hisobotga nisbatan o'z talablarini ishlab chiqayotgan alohida mamlakatlar uchun xalqaro etalon sifatida ishlatilishi (sanoati

rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda endi rivojlanib borayotgan bozorlar uchun);

- fond birjalari va tartibga soluvchi organlar tomonidan moliyaviy hisobotni MHXSga mos ravishda tuzilishini talab qilgan hollarda;

- kapital bozorlari uchun standartlar ishlab chiqishda to'lig'icha MHXSga asoslanishga qaror qilgan Yevropa Komissiyasi kabi milliy organlar tomonidan ishlatishi;

- MHXS talab qilinmaydigan mamlakatlarda ham kompaniyalar soni ortganligi tufayli foydalanilishi.

Buxgalteriya hisobi ma'lum bir xo'jalik yurituvchi subyekt to'g'risida moliyaviy ma'lumotlarni aniqlash, qayta ishlash va moliyaviy hisobot shaklida faoliyat yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga qiziquvchi hamda foydalanuvchilarga ma'lumotni yetkazib berishni amalga oshiradigan axborot tizimidir. Buxgalteriyaning maqsadi – turli foydalanuvchilarni ma'lumotga bo'lgan ehtiyojini, ushbu ma'lumotni olish uchun eng kam sarf-xarajatlar bilan qondirishdir. O'z-o'zidan ma'lumki qarorlarni qabul qilish uchun axborot tizimdan foydalanish natijasida olinishi mumkin bo'lgan iqtisodiy naflar ushbu tizimga ketgan xarajatlardan ustun bo'lishi lozim.

Demak, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari predmeti bo'lib, xalqaro standartlar asosida pul ifodasida aks ettiriladigan xo'jalik mablag'lari, shu mablag'lar manbalari, ularning xo'jalik faoliyati va moliyaviy natijalari bo'lib hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moddiy va nomoddiy aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromad va xarajatlar, foyda va zararlar hamda ularning harakati bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining obyektlari hisoblanadi.

Aktivlar — avvalgi davrlarda sodir etilgan hodisalar natijasida olingan va korxona tomonidan nazorat qilinadigan, ularni foydalanishdan kelajakda iqtisodiy naf olinishi kutiladigan resurslardir.

Majburiyatlar – bu avvalgi davrlarda sodir etilgan hodisalar natijasida paydo bo'lgan korxonaning joriy qarzi, ushbu qarzlarni qaytarilishi natijasida korxonaning iqtisodiy nafni o'z ichiga

olgan resurslarni kamayishiga olib keladi.

Xususiy kapital – bu barcha majburiyatlarni ayirgandan keyin korxonaning aktivlardagi bo'lgan ulushi.

Foyda — bu xo'jalik subyektiga ta'sir etadigan asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat, hodisalar sharoitlar natijasida kapitalning ko'payishi bo'lib, xususiy kapitalga to'lanadigan kapital bundan mustasnodir.

Zararlar – bu asosiy faoliyat va barcha xo'jalik muomalalari, hodisalar, sharoitlar natijasida xususiy kapitalning kamayishi bo'lib, xarajatlar yoki xususiy kapitalning taqsimlanishi natijasidagi kamayish bundan mustasnodir.

Foyda faoliyat natijalarini o'lchashda yoki boshqa ko'rsatkichlarni, ya'ni investitsiyani olib kelgan foydasi, bir aksiyaga to'g'ri keladigan foyda kabilarni asosi sifatida foydalanadi. Foydani o'lchash bilan bevosita bog'liq elementlar – bu daromadlar va xarajatlardir.

Daromadlar – bu aktivlarni kelib tushishi yoki ko'payishi yoxud majburiyatlarni kamayishi shaklida vujudga keladigan va pirovard natijasida xususiy kapitalni oshiradigan iqtisodiy naflarni ko'payishi, ammo aksiyador kapitalga ta'sischi tomonidan to'lanadigan badallar bundan mustasnodir.

Xarajatlar — bu aktivlarni sarflanishi yoki yemirilishi yoxud majburiyatlarni ko'payishi shaklida vujudga keladigan va pirovard natijasida xususiy kapitalni kamaytiradigan iqtisodiy naflarni kamayishi, ammo aksiyador kapitalni ta'sischi orasida taqsimlanishi bundan mustasnodir.

Ilmiy adabiyotlar va normativ hujjatlar sharhi

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotimizni barcha jabhalarida bo'lgani kabi buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyati sohasida ham ulkan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Keyingi yillar mobaynida, xalqaro standartlarga javob beruvchi buxgalteriya hisobi tizimini yaratish borasida ko'pgina islohotlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda buxgalteriya hisobidan foydalanuvchilar doirasi ancha ko'payib borayotganligi, xalqaro integratsiya

jarayonlari chuqurlashayotganligi, moliya bozori va ayniqsa kapital bozorlarni rivojlantirishda sarmoyalar, ishchi kuchi va valyutalarni xorijiy davlatlar o'rtasida erkin harakatlanishi buxgalteriya hisobini jahon andozalariga mos holda tashkil etishni yanada qattiqroq talab etmoqda. Bu esa, mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha sohalari samarali rivojlanishi uchun xo'jalik subyektlarning moliyaviy holatini bilish borasida "Buxgalteriya hisobi va audit" fanini bo'lajak iqtisodchi mutaxassis va bojxonachilarga o'qitish dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son qarorida [1] 2020 yil 1-yanvardan boshlab auditning xalqaro standartlari asosida auditorlik tekshiruvlarining tashkil etishi belgilab berilgan. Shuningdek, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida tuzish bilan mamlakatlar o'rtasida hamkorlikni va investitsiya muhitini yaxshilashda muhim vosita sifatida xizmat qilishi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qaroriga muvofiq 2021 yil 1 yanvardan boshlab, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashi belgilangan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari – moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun hujjatlar to'plami, moliyaviy hisobotlarning tuzilishini tartibga soluvchi reglament bo'lib, tashqi foydalanuvchilar tomonidan biror-bir tashkilotga nisbatan iqtisodiy qaror qabul qilish uchun foydalaniladi. Ya'ni, oddiy misol tariqasida keltirsak, bu xorijiy investorlarni mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tashkilotlarning (kompaniya, korporatsiya, aksiyadorlik jamiyatlari) aksiyalari, qimmatli qog'ozlari va boshqa turdagi investitsiya jalb qilishi mumkin bo'lgan moddiy boyliklarning

istiqbolda o'sishi yoki pasayishini tahlil qilishi uchun zarur axborotlar bilan ta'minlash mumkin bo'ladi [2].

Ushbu qarorga muvofiq quyidagi vazifalar belgilangan [3]:

- aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishi va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi, qonun hujjatlarida MHXSga o'tishning ertaroq muddatlari nazarda tutilgan yuridik shaxslar bundan mustasno ekanligi;

- 2021-yil yakuniga qadar buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida "MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot" fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to'g'risida hujjatga yoxud "Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)", "Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ASSA)", "Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)" va "Xalqaro moliyaviy hisobot bo'yicha diplom (DipIFR)" sertifikatlaridan biriga ega kamida uch nafar mutaxassis miqdorida MHXSni sifatli qo'llash uchun yetarli bo'lgan buxgalteriya xizmati xodimlari bilan ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi 2020-yildan boshlab, davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalarining MHXS asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashga o'tish jadvali har yili tasdiqlanishi va rasmiy veb-saytida e'lon qilinishini ta'minlasin;

- shunday tartib o'rnatildiki, unga muvofiq moliyaviy hisobotni ixtiyoriy ravishda MHXSga muvofiq tayyorlaydigan tadbirkorlik subyektlari buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot taqdim etishdan ozod etilishi belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi MHXSni joriy etish bo'yicha vakolatli organ etib belgilandi va unga quyidagi funksiyalar yuklatildi:

- MHXS sohasida mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha jahonning muvaffaqiyatli tajribalarini ommalashtirish, shu jumladan buxgalteriya hisobi va audit sohasida qayta

tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlarini ya'ni akkreditatsiyadan o'tgan o'quv markazlari tomonidan sohaga oid oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini bosqichma-bosqich xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish yuzasidan buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro tashkilotlar sertifikatlangan diplomli buxgalterlar xalqaro assotsiatsiyasi bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirish;

- rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasi asosida o'quv jarayonining sifatini, imtihonlarni o'tkazish va natijalarini baholashning shaffofligini ta'minlovchi MHXS bo'yicha sertifikatlashning samarali tizimini joriy etish, shuningdek, MHXS sohasida talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni akkreditatsiyadan o'tgan o'quv markazlarida o'qitish bo'yicha tashkiliy tadbirlarni amalga oshirishda har tomonlama ko'maklashish;

- buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSga muvofiq uygunlashtirish;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Buxgalteriya hisobi va audit uslubiyoti boshqarmasi tuzilmasida vazirlikning boshqaruv xodimlari cheklangan soni doirasida uchta shtat birligidan iborat moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishni muvofiqlashtirish va e'lon qilinadigan moliyaviy hisobotlar sifatining tashqi nazorati bo'limi tashkil etish belgilangan.

Ushbu qarorga muvofiq ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini va mazkur sohada kadrlar tayyorlashning zamonaviy usullarini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Adabiyotlarni o'rganish asosida xulosa qilish mumkinki, MHXSga o'tkazish jarayonini bir qancha bosqichlarga ajratish mumkin.

Bunga har bir kompaniya o'z imkoniyatlari va professionallik darajasida yondashadi. Fikrimizcha, har qanday bajariladigan ishni shartli ravishda uchta bosqichga ajratishimiz mumkin, masalan birinchi bosqich shu ishni amalga oshirish uchun tayyorgarlik ko'rish, keyin ikkinchi bosqichda uni amalga oshirish va so'nggi uchinchi bosqichda natijaga erishish va uni foydalanuvchilar va buyurtmachilarga yetkazish bosqichlariga ajratish maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan kelib chiqadigan bo'lsak, MHXS asosida o'tkazish jarayonini ham shartli ravishda tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish hamda natijaga erishish va uni taqdim etish bosqichlariga ajratishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi (1-2-rasmlar).

BHXS (IAS) 1-son "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish" standarti umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish asosini xo'jalik subyektining oldingi davrlardagi moliyaviy hisobotlari hamda boshqa xo'jalik subyektlarining moliyaviy hisobotlari bilan qiyosiylikni ta'minlash maqsadida belgilaydi. U moliyaviy hisobotlarni taqdim etishga nisbatan umumiy talablarni, ularning tuzilishiga oid ko'rsatmalarni hamda ularning mazmuniga doir minimal talablarni o'rnatadi.

Xo'jalik subyektini mazkur standartni umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlashda va taqdim etishda qo'llashi lozim bo'ladi. Boshqa MHXSlari muayyan operatsiyalar va boshqa hodisalarni tan olish, baholash va oshkor etish bo'yicha talablarini belgilaydi.




1-rasm. Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga o'tkazish bosqichlari

[Маълумотлар асосида муаллифлар ишланмаси]



Tayyorgarlik ko‘rish jarayoni -MHXS bo‘yicha hisob siyosatini ishlab chiqish, ko‘rsatkichlarning nomlanishi va atamalarning xalqaro standartlarga muvofiq keladigan glosariylar yaratish, moliyaviy hisobot taqdim qilinadigan valyutani belgilash, inflyatsiya jarayonini kuzatish, MHXS bo‘yicha maxsus dasturlarni sotib olish.



MHXS o‘tkazish hamda natijaga erishish jarayoni - tayyorgarlik ishlari bo‘yicha farqlarni aniqlash, axborot yig‘ish, buxgalteriya balansini, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hamda xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotlarni, izoh va tushuntirishlarni MHXS asosida ishlab chiqish.



MHXS asosida taqdim etish jarayoni - MHXS asosida boshlang‘ich buxgalteriya balansini tuzish, tuzilgan hisobotlarni xorijiy valyutalarga muvofiqlashtirish va ularni axborot foydalanuvchilarga taqdim etish.

2-rasm. Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga o‘tkazish jarayonlaridagi vazifalar [Маълумотлар асосида муаллифлар ишланмаси]

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida umumiy masalalar

Moliyaviy hisobotlar — xo‘jalik subyektining moliyaviy holati va moliyaviy natijalarining tartibga solingan holda ifodalanishidir. Moliyaviy hisobotlarning maqsadi keng ko‘lamdagi foydalanuvchilar uchun iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda foydali bo‘lgan xo‘jalik subyektining moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul oqimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ta’minlashdan iboratdir. Moliyaviy hisobotlar rahbariyat tomonidan unga ishonib topshirilgan resurslar boshqarilishining natijalarini ham aks ettiradi. Ushbu maqsadga erishish uchun, moliyaviy hisobotlar xo‘jalik subyektiga tegishli bo‘lgan quyidagi jihatlar to‘g‘risida ma’lumotlarni ta’minlaydi:

- aktivlar;
- majburiyatlar;
- kapital;
- daromad va xarajatlar, jumladan foyda va zararlar;
- mulk egalari tomonidan ularning mulk egalari sifatida amal qilishidagi qilingan qo‘yilmalar va ularga taqsimlanadigan summalar;
- pul oqimlari .

Ushbu ma’lumotlar, izohlardagi boshqa ma’lumotlar bilan birga, moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga xo‘jalik subyektining kelgusi pul oqimlarini va xususan, ularning muddatini va aniqliligini oldindan taxminan bilishda yordam beradi. Moliyaviy hisobotlarning to‘liq to‘plami quyidagilarni qamrab oladi:

- davr oxiridagi moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot;
- davr uchun foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot;
- davr uchun kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobot;
- davr uchun pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot;
- izohlar, ya’ni muhim hisob siyosatlarining va boshqa tushuntirish ma’lumotlarining qisqa bayonini qamrab olgan izohlar;
- oldingi davr boshiga moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot, qachonki xo‘jalik subyektining hisob siyosatini retrospektiv tarzda qo‘llasa, yoki o‘zining moliyaviy hisobotlaridagi moddalarni retrospektiv tarzda qayta hisoblashni amalga oshirsa, o‘zining moliyaviy hisobotlaridagi moddalarni qayta tasniflagan taqdirdagina amalga oshiradi.

Xo‘jalik subyektining mazkur standartda

foydalanilgan hisobot nomlaridan tashqari nomlardan foydalanishi mumkin. Masalan, xo‘jalik subekti “foйда yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot” o‘rniga “umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot” nomidan foydalanishi mumkin.

Moliyaviy hisobotlar xo‘jalik subyektining moliyaviy holatini, moliyaviy natijalarini va pul oqimlarini haqqoniy tarzda taqdim etishi lozim. Haqqoniy taqdim etish operatsiyalarning, boshqa hodisalarning va sharoitlarning oqibatlarini konseptual asosda keltirilgan aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlarning ta‘riflariga va tan olish mezonlariga muvofiq haqqoniy taqdim etishni talab etadi. MHXSlarni, zarur bo‘lganda qo‘shimcha ma‘lumotlarni oshkor etish bilan birga, qo‘llash haqqoniy taqdim etishni ta‘minlaydigan moliyaviy hisobotlarga olib keladi deb ko‘zda tutiladi.

Moliyaviy hisobotlari MHXSlarga muvofiq bo‘lgan xo‘jalik subekti izohlarda bunday muvofiqlikni aniq va shartsiz ta‘kidlashi lozim. Moliyaviy hisobotlar MHXSlarning barcha talablariga muvofiq bo‘lmaguncha, xo‘jalik subekti ularni MHXSlarga muvofiq deb ta‘kidlamasligi lozim.

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash paytida, rahbariyat xo‘jalik subyektini faoliyatini uzluksiz davom etishi qobiliyatini baholashi lozim. Qachonki rahbariyat xo‘jalik subyektining faoliyatini tugatishni yoki savdoni to‘xtatishni mo‘ljallayotgan bo‘lmasa yoki bunday choralarni amalga oshirishdan boshqa amaliy muqobil choralar mavjud bo‘lmagan holat yuzaga kelmasa, xo‘jalik subyektini moliyaviy hisobotlarni faoliyatning uzluksizligi asosida tayyorlashi lozim. Agar rahbariyat, baholashni amalga oshirayotganda, xo‘jalik subyektini faoliyatini uzluksiz davom etishi qobiliyati to‘g‘risida ahamiyatli shubha tug‘dirishi mumkin bo‘lgan hodisalar yoki sharoitlarga tegishli ahamiyatli noaniqliklardan xabardor bo‘lsa, xo‘jalik subekti ushbu noaniqliklarni oshkor etishi lozim. Agar xo‘jalik subekti moliyaviy hisobotlarni faoliyatning uzluksizligi asosida tayyorlamasa, u ushbu fakti, moliyaviy hisobotlar qaysi asosda tayyorlanganligini hamda xo‘jalik subyektini faoliyatning uzluksizligini ta‘minlay olmaydi

deb hisoblanishining sababi bilan birga, oshkor etishi lozim.

Xo‘jalik subyektini o‘zining, pul oqimlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlaridan tashqari, moliyaviy hisobotlarini buxgalteriya hisobining hisoblash usuli asosida tayyorlashi lozim.

Buxgalteriya hisobining hisoblash usuli qo‘llanilganda, xo‘jalik subyektini moddalarni aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromadlar va xarajatlar (moliyaviy hisobotlar elementlarini) sifatida tan oladi, qachonki ular Konseptual asosda keltirilgan ushbu elementlarning ta‘riflariga va tan olish mezonlariga to‘g‘ri kelish lozim bo‘ladi.

Xo‘jalik subyektini o‘xshash moddalarning har bir ahamiyatli turkumini alohida taqdim etishi lozim. Bir biridan farq qiladiganli xususiyatga yoki vazifaga ega bo‘lgan moddalarni, ular ahamiyatsiz bo‘lmasa, xo‘jalik subekti alohida taqdim etishi lozim.

Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining nomlanishini quyidagi ma‘lumotlar asosida ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi (1-jadval).

MHXSGa o‘tish muammolari

Bugungi kunda O‘zbekiston xalqaro investitsiya bozorlariga chiqish, shuningdek jahondan sarmoyalar jalb qilishni tezlatish va jadallashtirish yo‘liga o‘tgan. Shu sababdan ham MHXSGa o‘tish uchun tizimli ishlar amalga oshirildi. O‘ylaymizki, mazkur jarayon qisqa muddat ichida oson kechmaydi.

Mutaxassislar va darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalari yetishmovchiligi muammosi mavjudligi haqidagi bahslar kuzatilyapti, lekin vaziyat tahlil qilinganda bu maydon butkul bo‘m-bo‘sh emasligini ko‘ramiz. Buxgalterlar, auditorlar professional uyushmalarining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda, shuningdek Moliya vazirligi nazorati ostida o‘tkazgan o‘quv loyihalari va buxgalterlarni sertifikatlash tizimlari O‘zbekistonda 90-yillarning o‘rtalaridan buyon davom etib kelgan edi. Shuningdek, 2000-yillar boshidan audit va konsalting xalqaro shirkatlari bo‘lmish “katta to‘rtlik” (PwC, Ernst & Young, Deloitte, KPMG) MHXS va Auditning Xalqaro andozalari talablariga binoan O‘zbekistonda faoliyat yuritib kelmoqda.

Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining nomlanishi [6]¹

T/R	Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari raqami	Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартларининг номи
1	MHXS 1	“Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo‘llash”
2	MHXS 2	“Aksiyaga asoslangan to‘lov”
3	MHXS 3	“Biznes birlashuvlari “
4	MHXS 4	“Sug‘urta shartnomalari”
5	MHXS 5	“Sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat “
6	MHXS 6	“Foydali qazilmalar zaxiralarini qidirish va baholash”
7	MHXS 7	“Moliyaviy instrumentlar: ma‘lumotlarni ochib berish”
8	MHXS 8	“Operatsion segmentlar”
9	MHXS 9	“Moliyaviy instrumentlar”
10	MHXS 10	“Jamlangan (konsolidatsiyalashgan) moliyaviy hisobotlar”
11	MHXS 11	“Birgalikdagi faoliyat bo‘yicha kelishuvlar”
12	MHXS 12	“Boshqa tadbirkorlik subyektlarida ishtirok etish to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ochib berish”
13	MHXS 13	“Haqqoniy qiymatni baholash”
14	MHXS 14	“Ta‘rif tuzatishlarini keyinga qoldirish hisobi”
15	MHXS 15	“Xaridorlar bilan shartnomalar tuzish bo‘yicha daromad”

¹ Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: O‘quv qo‘llanma. D.Ye.Norbekov, A.N.To‘rayev, Sh.Sh.Rahmonov; - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019.-379 b.

Xulosa va takliflar

Xulosa sifatida bizning fikrimizcha, korxonalarning buxgalteriya hisobotini xalqaro standartlar asosida tayyorlash hamda taqdim etish bugungi kunning obyektiv zaruriyatiga aylangan bo‘lib, aks holda, bu bir necha nomuvofiqliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Misol uchun, biron bir “A” korxona xitoylik “B” korxonadan uskuna buyurtma qildi. “B” korxona ushbu uskunani logistika kompaniyasi orqali yuklab yo‘lga chiqardi va o‘zining moliyaviy hisobotida uskunani sotganligi haqida ma‘lumotni ko‘rsatdi hamda uskunani tashkilot balansidan chiqardi. Ammo, uskuna yo‘lda bo‘lganligi va xaridor uni hali olmaganligi sababli “A” moliyaviy hisobotida ushbu uskunani sotib olganligi haqida ma‘lumotni ko‘rsatmaydi va balansiga kirim qilmasligi natijada, global iqtisodiyotda ushbu uskuna yo‘qolib qolish ehtimoli mavjud.

Shunga o‘xshash oddiy misollarni ko‘p keltirish mumkin va shu kabi nomuvofiqliklar

bo‘lmasligi uchun moliyaviy hisobotning yagona xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlash maqsadga muvofiq.

Buxgalteriya hisobining yangi milliy standartlarini ishlab chiqish va amaldagi milliy standartlarga o‘zgartishlar kiritish hamda MHXSni chuqur o‘rganish, uni amalda qo‘llash uchun «Buxgalteriya hisobi» va «Audit» ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlarni tayyorlash zarurdir.

Fikrimizcha, Buxgalteriya hisobi va audit fanlari bo‘yicha xorijiy oliy ta‘lim muassasalari amaliyotida joriy etilgan zamonaviy o‘quv adabiyotlarni sotib olish, jumladan elektron kutubxonani yaratish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.
2. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish afzalligi nimada? <http://www.adolatgzt.uz/tribune/5884>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.



TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING TOVAR NOMENKLATURASIDAGI AYRIM JIHATLAR

*M.Mirsagatov - Bojxona instituti katta o'qituvchisi, texnika fanlari nomzodi,
R.Murzayev - Toshkent viloyati bojxona boshqarmasi "Nazarbek" TIF bojxona posti boshlig'i*

Annotatsiya: Maqolada tovarlarning TIF TN bo'yicha kodlarini to'g'ri aniqlashning muhimligi yoritilgan. O'zbekiston Respublikasining va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining TIF TNlaridagi Talqin etishning asosiy qoidalarining birinchi qoidasi xalqaro konvensiya me'yorlari asosida tahlil qilingan. Mazkur qoidadagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish zarurligi ko'rsatilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining TIF TNdagi ushbu qoidaga o'zgartirish kiritish yuzasidan aniq takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli bojxona, raqamli kod, Tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasi, Uyg'unlashtirilgan tizim, Talqin etishning asosiy qoidalari, pozitsiya nomi, izohlar.

Аннотация: В статье рассматривается важность правильного определения кодов товаров по ТН ВЭД. На основе норм международной конвенции, проанализировано первое правило Основных правил интерпретации ТН ВЭД Республики Узбекистан и ТН ВЭД Содружества Независимых Государств. Определены недостатки в этом правиле, которые подлежат устранению. Приведены конкретные предложения по внесению изменений в данное правило ТН ВЭД Содружества Независимых Государств.

Ключевые слова: цифровая таможня, цифровые коды, Товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности, Гармонизированная система Основных правил интерпретации, позиция, примечания.

Oxirgi yillarda raqamli iqtisodiyotni, shu jumladan raqamli bojxonani rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Raqamli iqtisodiyotni joriy etilishi davlat xizmatlari tizimini rivojlantirishga hamda ularning ochiqligi va samaradorligini ta'minlashga, tadbirkorlik muhitining shaffofligini oshirish asosida biznes uchun qulay sharoitlarni yaratishga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyot doirasida davlat sektorida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, elektron xizmatlarning rivojlanishi va infratuzilmaga kiritiladigan investitsiyalar xususiy sektorda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan kengroq foydalanishga turtki beradi va uning boshqa sohalarga ta'sirini kuchaytiradi.

Raqamli bojxonada sun'iy intellekt elementlari joriy etilib, bojxona ishiga oid ma'lumotlarni raqamlashtirish taqozo etiladi. Ma'lumotlarni raqamlashtirilishi nafaqat ularni to'plash va tahlil qilish, balki ular asosida muayyan tadbirlarni amalga oshirishni yoki qarorlar qabul qilishni sun'iy intellekt yordamida avtomatik tarzda

bajarish imkonini beradi [1-4].

Bu borada, chegaradan olib o'tilayotgan tovarlarni raqamli kodlar bilan ifodalash imkonini beruvchi, Tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasi (TIF TN) muhim vosita bo'la oladi [5].

TIF TNda tovarlar ma'lum qoidalar asosida raqamli kodlar bilan ifodalanadi. Ammo, ayrim holatlarda ushbu qoidalarni to'g'ri qo'llashda xatoliklarga yo'l qo'yilishi, tovarning kodini aniqlashda to'g'ri kodga tegishli raqamlar o'rniga boshqa raqamlar belgilanishi kuzatilmoqda. Tovarning TIF TN bo'yicha raqamli kodini noto'g'ri belgilanishi esa raqamli bojxona samarasining pasayishiga sabab bo'ladi. Shu bois, tovarlarni TIF TN bo'yicha kodini to'g'ri belgilash katta ahamiyatga ega.

Tovarlarning TIF TN bo'yicha kodini aniqlash TIF TNni talqin etishning asosiy qoidalariga binoan amalga oshiriladi. Bunda, ushbu qoidalarni va TIF TNdan foydalanishda ishlatilayotgan atamalarni to'g'ri qo'llash tovar kodini aniqlashning asosiy omillaridan

hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining TIF TN rus tilida ishlab chiqilgan va shunday joriy etilgan. Talqin etishning asosiy qoidalarining birinchi qoidasi quyidagi tahrirga ega:

“Названия разделов, групп и подгрупп приводятся только для удобства использования ТН ВЭД; для юридических целей классификация товаров в ТН ВЭД осуществляется исходя из текстов товарных позиций и соответствующих примечаний к разделам или группам и, если такими текстами не предусмотрено иное, в соответствии со следующими положениями:”.

Talqin etishning asosiy qoidalarida “текст товарной позиции” atamasi qayd etilgan bo'lsa-da, TIF TNning o'zida ushbu atama qo'llanilmagan. Bunday noaniqlik esa, tovarning TIF TN bo'yicha kodini mustaqil aniqlashda qoidaning mazmunini to'liq tushunmaslikka va natijada xatolikka olib kelishi mumkin.

Aslida, ushbu qoida O'zbekiston Respublikasining TIF TNga qayerdan olingan? O'zbekiston Respublikasining TIF TNda tovarlarning to'liq kodi o'nta raqamdan iborat. Ushbu TIF TN “Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining yagona Tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasi to'g'risida kelishuv” (Moskva, 1995-yil 3-noyabr) asosida ishlab chiqilgan bo'lib, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining Tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasining (keyingi o'rinlarda - MDH TIF TN) o'zi “Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimi to'g'risidagi xalqaro konvensiya”ga (Bryussel, 1983-yil 14-iyun) binoan Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimi (Uyg'unlashtirilgan tizim) asosida ishlab chiqilgan [6-8].

Uyg'unlashtirilgan tizim Jahon bojxona tashkiloti tomonidan ingliz (va fransuz) tilida ishlab chiqilgan bo'lib, tovarlar oltita raqamli kodlar bilan ifodalangan. MDHning TIF TNda tovarlar to'qqizta raqamli kodlar bilan ifodalangan. Bunda, Uyg'unlashtirilgan tizimni rus tiliga o'girish va oltita raqamli kodlarga uchta raqam qo'shish yo'li bilan MDHning TIF TN ishlab chiqilgan. Shuningdek, yuqorida qayd

etilgan konvensiyaning 3-moddasiga binoan, Uyg'unlashtirilgan tizimni talqin etishning asosiy qoidalari (General rules for the interpretation of the Harmonized system) rus tiliga o'girilgan hamda MDHning TIF TN uchun talqin etishning asosiy qoidalari sifatida qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasining TIF TNdagi talqin etishning asosiy qoidalari esa, xalqaro kelishuvga binoan, MDHning TIF TNdan olingan.

Uyg'unlashtirilgan tizim to'g'risida xalqaro konvensiyadagi ushbu birinchi qoidaning ingliz tilidagi asl tahriri quyidagicha:

“The titles of Sections, Chapters and sub-Chapters are provided for ease of reference only; for legal purposes, classification shall be determined according to **the terms of the headings** and any relative Section or Chapter Notes and, provided such **headings or Notes** do not otherwise require, according to the following provisions:”.

Ushbu tahrirdagi “the terms of the headings” atamasiga amaldagi TIF TNda aniq nom berilgan, ya'ni “наименование позиции”. Shuningdek, qoidaning oxirgi qismida keltirilgan “headings or Notes” jumlasiga esa “pozitsiyalar yoki izohlar” ma'nosini bildiradi. Qoidaning amalda bo'lgan, rus tiliga o'girilgan shaklida esa ushbu so'zlar o'rniga mavhum bo'lgan “tekstlar” so'zi qayd etilgan.

Ushbu kamchiliklar bartaraf etilsa, TIF TNni talqin etishning asosiy qoidalarining birinchi qoidasi quyidagi tahrirga ega bo'ladi:

“Названия разделов, групп и подгрупп приводятся только для удобства использования ТН ВЭД; для юридических целей классификация товаров в ТН ВЭД осуществляется исходя из **наименований товарных позиций** и соответствующих примечаний к разделам или группам и, если такими **товарными позициями или примечаниями** не предусмотрено иное, в соответствии со следующими положениями:”.


Mazkur tahrirda qoidaning asosiy ikki qismi, tovarlarni TIF TN kodi qanday aniqlanishini belgilovchi va ushbu qoida qachon qo'llanilmasligini ko'rsatuvchi qismlari bir-biriga uyg'unlikda bo'ladi.

Bayon etilganlardan kelib chiqib, MDHning

TIF TNni talqin etishning asosiy qoidalarining birinchi qoidasiga yuqorida qayd etilgan o'zgartirishlarni kiritish taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umarov O.S., "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №3, may-iyun, 2018. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/12_Umarov.pdf.
2. Nigmanov E., Hamroyev U., Sevinov J., O'zbekiston bojxona axborotnomasi, 2020, №2, 3-8 bet.
3. Цифровая таможня – гарантия прозрачности во внешней торговле. <https://uzdaily.uz/ru/post/56731>.
4. "Raqqamli bojxona va uning rivojlanish istiqbollari" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. <https://bojxona.uz/uz/news/view/4731>.
5. Товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан, версия 2017 года. Министерство внешней торговли Республики Узбекистан, Государственный таможенный комитет Республики Узбекистан, Ташкент, 2017 год, стр. 18.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimi to'g'risidagi xalqaro konvensiyaga qo'shilish haqida" 1998-yil 29-avgustdagi 687-I-son qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 9-son, 187-modda.
7. Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimi to'g'risidagi xalqaro konvensiya. <https://lex.uz/docs/2122372>.
8. Товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности Содружества Независимых Государств. <https://docs.cntd.ru/document/9035084>.



ISTE'MOL TOVARLARI BOZORINING IQTISODIY-EKOLOGIK XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO TAJRIBASINI MILLIY AMALIYOTGA TATBIQ ETISH (TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH)

*Sh. Muratova - Bojxona instituti professori,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent*

Annotatsiya: Maqola tashqi savdoda texnik jihatdan tartibga solish tushunchasining mazmunini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, Jahon savdo tashkiloti va Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlari tajribasida texnik to'siqlardan foydalanish tendensiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, SWOT-tahlil asosida milliy iqtisodiyotda texnik to'siqlardan foydalanishning ijobiy va salbiy tomonlari yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: tashqi iqtisodiy faoliyat, notarif tartibga solish, import, eksport, texnik jihatdan tartibga solish, texnik to'siqlar, JST, YeOI Bojxona ittifoqi, HACCP.

Аннотация: статья посвящена исследованию содержания концепции технического регулирования во внешней торговле, проанализированы тенденции использования технических барьеров в опыте Всемирной торговой организации и стран Евразийского экономического союза. Также на основе SWOT-анализа были выделены положительные и отрицательные аспекты использования технических барьеров в национальной экономике.

Ключевые слова: внешнеэкономическая деятельность, нетарифное регулирование, импорт, экспорт, техническое регулирование, технические барьеры, ВТО, таможенный союз ЕАЭС, HACCP.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asrning boshi dunyo xo'jalik faoliyati ko'lamining o'sishi hamda ilmiy-texnologik taraqqiyotning kengayishi bilan izohlanadi. Shuning uchun butun dunyoni insonlar va mamlakatlar iqtisodiy faoliyatining o'zaro bog'liqligi arenasi deb atash mumkin. Shuningdek, dunyoda bugungi kunda tashqi iqtisodiy faoliyat, xususan tashqi savdo tez rivojlanmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish maqsadida ikki guruh usullari ishlatiladi – boj-tarif va notarif tartibga solish usullari. Hozirgi vaqtda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda boj-tarif usullari rolining pasayishi sharoitida notarif choralar ko'rish alohida ahamiyat kasb etmoqda. GATT (General Agreement on Tariffs and Trade)/Jahon savdo tashkiloti (keyingi o'rinlarda JST)ning talqiniga muvofiq, notarif usullar – bu bojxona tarifidan tashqari tovarlarni import va eksport qilishda amal qiladigan barcha choralar, ya'ni tovar va xizmatlarning bojxona chegaralari orqali erkin harakatlanishiga to'sinlik qiladigan

choralardir [1].

Texnik jihatdan tartibga solish tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning notarif usullariga taalluqlidir. Ular mamlakat ichki bozoriga ma'lum tovarlarning kirib kelishini cheklash orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga hissa qo'shadilar. Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy jahon iqtisodiyotida notarif tadbirlarni qo'llash amaliyoti yetarlicha xilma-xillik bilan ajralib turadi. Shunisi qiziqki, davlatlar tomonidan savdodagi bunday toifadagi himoya choralari toifasidan tashqari JSTning qoidalariga zid kelmaydi va asosiy tamoyillariga muvofiq, davlatlar notarif choradan foydalanishni voz kechishga da'vat etiladi, ammo JSTning normativ hujjatlarida to'g'ridan-to'g'ri taqiq mavjud emas.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda notarif cheklovlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari ko'plab olimlarning ilmiy ishlarida, shu jumladan I.I.Dyumulen, Ye.V.Drobot, Ye.O.Dmitriyeva, V.V.Spiridonova, T.N.Melnik,

Ye.S.Pugachevskaya, V.V.Kilin, Ye.A.Koshman [5,6,7,8,9,10,11] tomonidan o'rganilgan. Biroq, tashqi savdoda texnik jihatdan tartibga solishdan foydalanish nazariyasi va amaliyoti yetarlicha o'rganilmagan bo'lib qolmoqda. Shu sababli, tashqi iqtisodiy faoliyatni notarif tartibga solish choralaridan biri sifatida tashqi savdoda texnik jihatdan tartibga solishdan foydalanish maqsadlari va xususiyatlarini o'rganish qiziqish uyg'otadi.

Tashqi savdoda texnik jihatdan tartibga solish tushunchasi. Har bir davlat texnik jihatdan tartibga solishni joriy qilish huquqiga ega, bu huquq odamlarning sog'lig'i va xavfsizligini, hayvonlar va o'simliklarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish va mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlash kabi maqsadlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Muayyan mahsulotlarning mamlakatga olib kirilishini cheklash uchun texnik to'siqlar yaratiladi.

Texnik to'siqlar – bu tovarlarning turli davlatlarning ichki bozorlariga olib kirilishi uchun qo'shimcha xarajatlar va vaqtni talab qiladigan xalqaro va milliy standartlar talablaridagi farqlar.

Mualliflar Yu.G.Kirillov, I.A.Konovalov, V.V.Kuznetsov fikricha, texnik to'siqlar – biror bir davlatning chet el tovarlariga nisbatan o'z ichki bozorlariga olib kirilishida texnik talablar bilan bog'liq barcha cheklovlar va nazorat choralarini qo'llashi natijasida ma'lum bir to'siqlarni keltirib chiqarishi holati hisoblanadi [12]. Ushbu ta'rifdan kelib chiqadiki, tashqi savdodagi texnik to'siqlar milliy sanoat standartlarini qo'llash, tovarlarning sifat standartlarini va ba'zi ma'muriy rasmiyatchiliklarni qo'llash natijasida yuzaga keladigan to'siqlardir.

Savdoda texnik to'siqlar ko'pincha import qiluvchi mamlakatning ma'lum texnik talablariga javob bermaydigan mahsulotlarni olib kirishni taqiqlash sifatida ifodalanadi.

Notarif choralar tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlar to'plamining ajralmas qismi hisoblanadi. Shuning uchun, istisnosiz, ular o'zlarining murojaatlari qonuniyligiga asoslangan huquqiy asosga ega bo'lishlari kerak. Tashqi savdoda texnik to'siqlarning huquqiy asosiga uchta

darajadagi hujjatlar kiradi:

- xalqaro shartnomalar;
- integratsion birlashmalar doirasida shartnomalar;
- milliy qonunchilik doirasidagi shartnomalar.

JST doirasida Savdodagi texnik to'siqlar to'g'risidagi kelishuv [2] amal qiladi. Ushbu kelishuvning maqsadi xalqaro savdoda diskriminatsiya (kamsitilmaslik) va savdo uchun asossiz to'siqlarni yaratishni bartaraf etishdir. Xavfsizlik choralari va sog'liqni saqlash tegishli tan olingan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgandan ko'ra og'irroq bo'lmasligi kerak. Bundan tashqari, kelishuv texnik reglament va standartlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan.

Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi (keyingi o'rinlarda YeOI) Bojxona ittifoqida 2010-yil 18-noyabrda "Texnik jihatdan tartibga solishning yagona tamoyillari va qoidalari to'g'risida"gi, 2008-yil 25-yanvardagi "Uchinchi mamlakatlarga nisbatan notarif tartibga solishning yagona choralari to'g'risida"gi bitimlar qabul qilingan. Bu borada O'zbekiston Respublikasida ham 2009-yil 23-aprelda qabul qilingan "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi 213-son qonun hamda 2021-yil 2-iyundagi "Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6240-son farmon mavjud.

Demak, texnik jihatdan tartibga solish tashqi savdo uchun, import uchun to'siqdir. Biroq, texnik jihatdan tartibga solishdan foydalanadigan davlat uchun ular milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga va uning xavfsizligini oshirishga hissa qo'shadilar. Texnik to'siqlar GATT-1994 to'g'risidagi bitimga muvofiq texnik to'siqlarni qo'llashning qonuniy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- milliy xavfsizlik talablari;
- savdo-sotiqdagi firibgarlikning oldini olish;
- odamlar salomatligi va xavfsizligini, hayvonlar va o'simliklarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish [13].

Savdodagi texnik to'siqlar to'g'risidagi bitim nafaqat tovarlarga, balki ularni ishlab chiqarish (qayta ishlash) jarayonlariga ham tegishli.

JST a'zolari tashqi savdoga texnik to'siqlarni qo'llashda savdoda sun'iy cheklovlar yaratish ehtimolining oldini olish uchun milliy muomala va eng ko'p qulaylik yaratish tartibi tamoyillariga rioya qilishlari shart.

Tashqi savdo uchun texnik to'siqlarning mohiyatini tashkil etadigan choralarni ko'rib chiqamiz.

Birinchidan, bu texnik reglamentlar – tovarlarning xususiyatlari belgilanadigan hujjatlar, shuningdek ularga rioya qilish majburiy bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish jarayonlari va usullari. Ular texnologiya, qadoqlash, markalash va yorliqlarni qo'yish talablarini o'z ichiga oladi. Texnik reglament boshqa texnik to'siq choralaridan – standartdan farqli ravishda qonun kuchiga ega, ya'ni uni qo'llash majburiydir.

Yevropa ittifoqining barcha texnik reglamentlari va ulardagi o'zgarishlar YEOIIning texnik reglamentlarini ishlab chiqish, qabul qilish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi to'g'risidagi Nizomda belgilangan tartibda ishlab chiqiladi va qo'llaniladi [3]. Texnik reglamentlar faqat mahsulotlarning yagona ro'yxatiga kiritilgan mahsulotlar uchun ishlab chiqilgan bo'lib, ularga majburiy talablar YeOII Bojxona ittifoqi doirasida belgilangan. 2012-yilda Bojxona ittifoqi doirasida a'zo davlatlar texnik jihatdan tartibga solish yagona tizimini yaratishga kelishgan va muvofiqlik deklaratsiyasini majburiy shakl deb hisoblashgan.

Hozirgi kunda YeOII tomonidan 45 ta reglament qabul qilindi, ulardan 37 tasi kuchga kirgan [4], masalan, quyidagi kabi texnik reglamentlar:

- pirotexnika mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida;
- shaxsiy himoya uskunalarining xavfsizligi bo'yicha;
- qadoqlash xavfsizligi to'g'risida;
- bolalar va o'smirlar uchun mahsulotlarning xavfsizligi bo'yicha;
- o'yinchoqlarning xavfsizligi to'g'risida;
- don xavfsizligi to'g'risida;
- oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida;
- sut va sut mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida va boshqalar.

Keyingi texnik to'siq – bu standart, ya'ni

tovarlarga yoki tegishli ishlab chiqarish jarayonlariga taalluqli qoidalar yoki xususiyatlarni o'z ichiga olgan hujjat. Texnik reglamentlardan farqli ravishda standartlarga ixtiyoriy ravishda rioya qilinadi.

Texnik reglamentlar singari standartlar ham fan yutuqlariga asoslangan bo'lishi va ilmiy asosga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, bu kabi import qilingan texnik to'siq tovarlari uchun ular tovar ishlab chiqarilgan mamlakatdan qat'iy nazar bir xil bo'lishi kerak.

Standart, asosan, mahsulot sifatini belgilaydi. Eng ko'p ishlatiladigan standartlashtirish tizimi ISO 9000. ISO 9000 seriyali standartlar Xalqaro standartlashtirish tashkilotining texnik qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan. Standartlar sifatni to'liq boshqarish nazariyasi g'oyalari va qoidalariga asoslangan. Dunyoning 190 dan ortiq mamlakatlari tomonidan milliy standartlar sifatida qabul qilingan ISO 9000 seriyasining standartlari har qanday korxona uchun, ularning mulk shakli va faoliyat sohasidan qat'iy nazar amal qiladi. Ushbu tizimga rioya qilish korxonaga boshqa mamlakatlarga eksport qilinayotgan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari yetarli bo'lmaganligi sababli sotishda qiyinchiliklarga duch kelmasliklari uchun ma'lum kafolatlar olish imkonini beradi. Ushbu standartga qo'shimcha ravishda HACCP (ing. Hazard Analysis and Critical Control Points – oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligini boshqarish tizimi)dan foydalanadi. HACCP mahsulot xavfsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omillarni muntazam ravishda aniqlaydigan, baholaydigan va boshqaradigan konsepsiyadir.

Tizim xavfli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida nazoratni ta'minlaydi. HACCP tizimini joriy etishda ishlab chiqaruvchi nafaqat o'z mahsulotini va uni ishlab chiqarish usullarini o'rganibgina qolmay, balki ushbu tizimni xomashyo yetkazib beruvchilarga ham qo'llashi shart. HACCP oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni kamaytirishga mo'ljallangan.

YeOIIning “Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risida”gi texnik reglamentiga

muvofig, ishtirokchi mamlakatlar korxonalari HACCP tizimini tatbiq etishlari shart.

HACCP tizimi – bu korxonani oziq-ovqat mahsulotlarini bozorga chiqarishda himoya qilish va ishlab chiqarish jarayonlarini biologik, kimyoviy, fizik va boshqa ifloslanish xavflaridan himoya qilish uchun ishlatiladigan samarali boshqaruv usuli. HACCP tizimiga muvofiqlikni sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlaridan kelib chiqadigan kasalliklarning oldini olishning eng samarali usuli sifatida aniqlash mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, milliy texnik reglamentlar, standartlar, muvofiqlikni baholash protseduralari sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Masalan, xorijiy qonunchilikda texnik reglamentlarni turlicha chiqarish mumkin, bu ishlab chiqaruvchilar uchun qo'shimcha qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shunday qilib, AQSH, Isroil va Xitoyda texnik reglamentlar majburiy standartlar deb nomlanadi. Biroq, bu ularning huquqiy mohiyati va maqsadlarini hech qanday o'zgartirmaydi.

JST davlatlarida texnik to'siqlardan foydalanish tendensiyalari tahlili. Tashqi savdoda texnik to'siqlarni qo'llashni JSTga a'zo bo'lgan bir nechta davlatlar misolida batafsil ko'rib chiqamiz. Yuqorida aytib o'tilganidek, texnik to'siqlar nafaqat tovarlarga, balki tovarlarni ishlab chiqarish (qayta ishlash) jarayonlariga ham tegishli. Misol tariqasida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Braziliya, Yaponiya, Meksika va Turkiya mamlakatlari tanlandi (1-jadval).

1-jadval ma'lumotlariga muvofiq, deyarli barcha mamlakatlar texnik to'siqlarni joriy etadi va ularning qaysi mamlakatlarga nisbatan joriy etilganligini ko'rish mumkin. Umuman olganda, bugungi kunda dunyoda 2632 ta choralar amal qilmoqda, ammo mavjud texnik to'siqlardan tashqari mamlakatlar kelgusida kuchga kirishi mumkin bo'lgan texnik to'siqlarni ham ishlab chiqmoqdalar.

Texnik reglamentlar va standartlar YeOIIda ham amal qiladi. YeOII mamlakatlari tomonidan qanday choralar va qaysi mamlakatlarga nisbatan qo'llanilishini, shuningdek qarshi choralarni ko'rib chiqamiz (2-jadval).

2-jadvalga ko'ra, YeOII mamlakatlari JST davlatlari bilan taqqoslaganda texnik to'siqlardan

notarif tartibga solishning chorasi sifatida faol foydalanmayotganligini ko'rish mumkin.

Tashqi savdoda texnik to'siqlardan foydalanish muammolari va istiqbollari. So'nggi paytlarda tashqi savdoda texnik to'siqlarni qo'llash masalalari mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan katta qiziqish uyg'otdi. Texnik to'siqlarga bunday e'tibor bir necha omillarga bog'liq. Birinchidan, mamlakatlarning tashqi savdosi tobora tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda va raqobat, shu jumladan adolatsiz raqobat o'sib bormoqda. Ikkinchidan, ishlab chiqarishning kengayishi bilan past sifatli mahsulot ishlab chiqarish xavfi ortadi.

Zamonaviy sharoitlarda texnik to'siqlarning maqsadi mamlakat ichki bozoriga ayrim tovarlar oqimini cheklash, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi. Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy vazifalaridan biri xorijiy tovarlarning mamlakatga erkin oqimi va ularni cheklash o'rtasidagi maqbul muvozanatni topishdir.

Savdodagi texnik to'siqlarning ijobiy tomonlariga qaramay, ushbu notarif chorani qo'llash davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatishning salbiy tomonlariga ham ega. Tashqi savdoda texnik to'siqlardan foydalanishning kuchli va zaif tomonlarini "SWOT-tahlil" yordamida tahlil qilaylik (3-jadval).

O'tkazilgan SWOT-tahlil texnik jihatdan tartibga solishning butun mohiyatini aniq ko'rsatib beradi. Hukumatning barcha choralari singari tashqi savdodagi texnik to'siqlar ham o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Shu munosabat bilan tashqi savdoda texnik to'siqlarni qo'llashda davlatlar duch keladigan asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

- xorijiy tovarlarni ichki bozorlarga olib kirishni cheklash;
- tashqi savdoda boshqa mamlakatlarning diskriminatsiyaga uchrashi (kamsitilishi).

Texnik to'siqlardan foydalanishning yuqoridagi muammolarini hal qilish bilan doimiy ravishda shug'ullanish kerak, chunki bitta noto'g'ri qadam ushbu chorani mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlaydigan o'lchovdan

1-jadval

JST davlatlarida amal qiladigan tashqi savdodagi texnik to'siqlar [14]

Mamlakat	Boshqa mamlakatlarga nisbatan qo'llaniladigan choralar	Mazkur mamlakatga nisbatan qo'llaniladigan choralar
Yevropa Ittifoqi	Barcha oziq-ovqat mahsulotlariga uchun qo'llaniladigan markirovkalashga qo'yiladigan talablar (13.03.2011-yildan barcha mamlakatlarga)	23.06.2004-yildan Argentina uchun (zaytun moyiga qo'yiladigan talablar)
	Yangi uzilgan meva va sabzavotlarga qo'yiladigan talablar (27.10.2013-yildan barcha mamlakatlarga)	13.06.2012-yildan Argentina uchun (grafik mahsulotlar – siyohga qo'yiladigan talablar)
	Genetik jihatdan o'zgartirilgan jo'xori changini saqlagan asalga qo'yiladigan talablar (06.03.2013-yildan Argentina, Braziliya, Kanada, Meksika, AQSH, Urugvay uchun)	
Braziliya	Jo'ja, o'rdak va g'oz ishlab chiqarishga talablar (01.09.2003-yildan barcha mamlakatlar)	01.07.1998-yildan Yevropa Ittifoqi (asbest)
	Baliq, mollyuska va qisqichbaqasimonlardan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga talablar (12.01.2006-yildan barcha mamlakatlar)	14.06.2017 yildan Ekvador (inson iste'moli uchun qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari)
Yaponiya	Zaharli va zararli moddalarga qo'yiladigan talablar (01.08.2010-yildan barcha mamlakatlar)	30.10.2013-yildan Hindiston (po'lat va po'lat mahsulotlari)
	Guruch, guruch mahsulotlari va tarkibida ingridiyent sifatida bo'lgan guruch mahsulotlari uchun talablar (15.02.2009-yildan barcha mamlakatlar)	27.11.2012-yildan Koreya Respublikasi (avtomobil shinalari)
	Elektr tovarlari va elektr materiallariga qo'yiladigan talablar (15.10.2013-yildan barcha mamlakatlar)	05.11.2009-yildan Yevropa Ittifoqi (tarkibida organik birikmalarni saqlagan mahsulotlar)
Meksika	Parfyumeriya va kosmetika mahsulotlariga qo'yiladigan talablar (18.01.2012-yildan barcha mamlakatlar)	10.11.2016 yildan Braziliya (shaxsiy parvarish mahsulotlari, kosmetika, parfyumeriya markirovkasi)
	Alkogolli ichimliklarga qo'yiladigan talablar (05.11.2014-yildan Chili, AQSH, Yevropa Ittifoqi)	15.06.2016-yildan Ekvador (alkogolli ichimliklar)
	Teri, charm mahsulotlari va poyabzalga qo'yiladigan talablar (27.03.2014 yildan Yevropa Ittifoqi)	
Turkiya	O'simlik moyini ishlab chiqarishga qo'yiladigan talablar (01.01.2016-yildan barcha mamlakatlar)	13.06.2012-yildan Braziliya (tamaki mahsulotlari)
	Alkogolli ichimliklar va tamaki mahsulotlariga qo'yiladigan talablar (09.11.2007-yildan AQSH)	19.03.2014-yildan Kolumbiya (oddiy va egilgan po'lat sim)
	Farmatsevtika mahsulotlari uchun qo'yiladigan talablar (06.03.2013-yildan AQSH, Yevropa Ittifoqi, Shveysariya)	15.06.2011-yildan Yevropa Ittifoqi (xavfli kimyoviy moddalar)

2-jadval

YEOH mamlakatlarida amal qiluvchi savdodagi texnik to'siqlar [14]

Mamlakat	Boshqa mamlakatlarga nisbatan qo'llaniladigan choralar	Mazkur mamlakatga nisbatan qo'llaniladigan choralar
Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston	O'yinchoqlar ishlab chiqarishga qo'yiladigan talablar (14.07.2017-yildan Yevropa Ittifoqi, Ukraina, AQSH)	
	Farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishga qo'yiladigan talablar (14.07.2017-yildan Yevropa Ittifoqi, Ukraina, AQSH)	
Rossiya	Syementni sertifikatlash qoidalari (08.11.2017 yildan Yevropa Ittifoqi, Meksika, Ukraina)	29.03.2017 yildan Yevropa Ittifoqi (keng assortimentdagi kimyoviy moddalar, jumladan kosmetika)
	Bolalar va o'smirlar uchun mahsulotga qo'yiladigan talablar (08.11.2017-yildan Yevropa Ittifoqi, Norvegiya, Ukraina)	01.07.2008-yildan Xitoy (maishiy gaz uskunalari)
	Alkogolli ichimliklar uchun talablar (14.06.2017-yildan Argentina, Yevropa Ittifoqi, Meksika, AQSH, Ukraina)	22.03.2017 yildan Yevropa Ittifoqi (parrandachilik)
Armaniston	Parranda tuxumlarini ishlab chiqarishga qo'yiladigan talablar (01.11.2012-yildan barcha mamlakatlar)	Ma'lumot yo'q
Belorussiya	Ma'lumot yo'q	Ma'lumot yo'q

3-jadval

Tashqi savdoda texnik to'siqlardan foydalanishni SWOT-tahlili

S — kuchli tomonlari	W — zaif tomonlar
1) Tashqi savdoda texnik to'siqlar mahsulotlarning xavfsizligini ta'minlash va u bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari, ya'ni import qiluvchi mamlakatni sifatli tovarlardan himoya qilish. 2) Texnik to'siqlar bozor tuzilmasi, alohida korxonalar va tarmoqlar taqqoslama raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatadi. 3) Texnik to'siqlar milliy xavfsizlik darajasini oshiradi, mamlakatning xalqaro bitimlar va kelishuvlar doirasida qabul qilingan majburiyatlarini bajarilishini ta'minlaydi.	1) Texnik reglamentlar va standartlarni ishlab chiqishda biznes-hamjamiyatning manfaatlari hisobga olinmaydi. 2) Standartlar va texnik reglamentlar o'rtasidagi minimal munosabatlar. 3) Korrupsiya tashqi savdoda texnik to'siqlarni joriy etish va ulardan foydalanishning mutlaqo barcha elementlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa mamlakatda amaldagi texnik qoidalarga yoki standartlarga muvofiq soxta sertifikatlar ostida tovarlarni olishga hissa qo'shishi mumkin.
O — imkoniyat	T — tahdidlar
1) Har qanday mamlakat eksport tovarlari sifatini oshirish va sog'liqni muhofaza qilish uchun texnik to'siqlarni qo'llashi mumkin. 2) Texnik to'siqlarni kamaytirish savdo aylanmasini oshirishi mumkin. 3) Texnik jihatdan tartibga solishning milliy tizimini maksimal darajada xalqaro savdo sohasi bilan uyg'unlashtirishga intilish.	1) Texnik to'siqlar ataylab savdo uchun to'siqlar yaratish uchun, ya'ni mamlakatlar bozoriga chiqishni va raqobatbardoshlikni cheklavchi vosita sifatida qo'llaniladi. 2) Tashqi savdoda texnik to'siqlardan foydalanish alohida mamlakatlarga nisbatan diskriminatsiya vositasi hisoblanadi.

tovar oqimining cheklovchi omiliga aylanishiga olib kelishi mumkin.

Rasmiy holda texnik to'siqlar iste'molchilarni sifatsiz tovarlardan himoya qilish vazifasi bilan rag'batlantiriladi va asoslanadi, bu boshqa narsalar qatori odamlar hayoti va sog'lig'i, hayvonlar va flora, umuman, atrof-muhitga tahdid soladi. Biroq, amalda texnik to'siqlar o'z ishlab chiqarishini himoya qilish uchun, ayniqsa, mashinasozlik, uskunalar, transport vositalari, oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek kimyoviy, shu jumladan farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishda qulay vosita bo'lib qoladi.

Ushbu muammolarning yechimi haqiqatan ham yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tomonidan import qiluvchi mamlakatning barcha talablariga muvofiq bo'lishi mumkin. Mamlakat o'z savdo siyosatining kelishilgan chegaralarda saqlanishini ta'minlashi kerak. Bu tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilarga, eksport va import qiluvchilarga o'z bizneslarini bashorat qilinadigan va shaffof muhitda olib borishlariga, mamlakatlarga esa o'zlarining ijtimoiy va ekologik maqsadlariga erishishlariga imkon beradi.

Shu munosabat bilan ta'kidlash mumkinki, texnik to'siqlarning muvaffaqiyatli ishlashi faqat davlat va ishlab chiqaruvchilar – eksport va import qiluvchilarning o'zaro ta'siri natijasida mumkin bo'ladi, har ikki tomon ham bir-birlari bilan uchrashishi kerak. Davlat faqat milliy xavfsizlikka chindan ham tahdid soladigan tovarlarni cheklashi kerak va ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarilgan va yetkazib beriladigan mahsulotlar sifatiga rioya qilishlari, biron bir tomon talablari va standartlarini chetlab o'tmasliklari kerak.

Diskriminatsiya va chet el tovarlari oqimini cheklash muammosini hal qilish uchun texnik to'siqlardan foydalanishning aniq belgilangan qoidalarini yaratish kerak, ya'ni qachon va qanday hollarda, qanday sharoitlarda va qanday asoslarda texnik nazorat choralarini qo'llash mumkinligi, boshqacha qilib aytganda:


- xalqaro darajadagi me'yorlar (qoidalar) va standartlarni birlashtirish va uyg'unlashtirish;
- o'zaro milliy normalarni (qoidalar) va standartlarni tan olish;

- texnik to'siqlarni qo'llash bo'yicha umumiy xalqaro huquqiy qoidalarini belgilash;
- mavjud milliy standartlar va qoidalarga sanoat ishlab chiqarishni moslashtirish.

Xulosa o'rnida ta'kidlash zarurki, tashqi savdoda texnik to'siqlardan foydalanish salbiy jihatlar mavjud bo'lishiga qaramay, tashqi savdoni notarif tartibga solishning ijobiy ko'rsatkichidir, chunki milliy xavfsizlikni sifatsiz mahsulotlar va adolatsiz raqobatdan himoya qilish birinchi o'rinda turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 1994-yildagi Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuv. [Elektron manba]. URL: <http://docs.pravo.ru/document/view/20677726> (murojaat sanasi: 30.06.2021 y.).
2. Savdoda texnik to'siqlar to'g'risidagi kelishuv (15.04.1994 y. Marokashda tuzilgan). [Elektron manba]. URL: <http://www.consultant.ru/cons/cgi/online.cgi?req=doc; base=INT; n=16460#05915907633440229> (murojaat sanasi: 30.06.2021 y.).
3. Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqining texnik reglamentlarini ishlab chiqish, qabul qilish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi to'g'risida: Yevrosiyo iqtisodiy komissiyasi Kengashining 20.06.2012-yildagi 48-sonli qarori (18.10.2016-yildagi tahrirda). Yevrosiyo iqtisodiy komissiyasining rasmiy sayti. [Elektron manba]. URL: <http://www.eurasiancommission.org> (murojaat sanasi: 30.06.2021-y.).
4. Bojxona ittifoqining texnik reglamentlarini ishlab chiqish rejasi va Bojxona ittifoqining texnik reglamentlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida: Yevrosiyo iqtisodiy komissiyasi Kengashining 2014-yil 1-oktyabrda 79-son qarori. Yevrosiyo iqtisodiy komissiyasining rasmiy sayti. [Elektron manba]. URL: <http://www.eurasiancommission.org>
5. Дмитриева Е.О. Современная политика в области нетарифного регулирования внешнеторговой деятельности. // Экономические отношения. – 2014. – № 2(8). – С.49-55.
6. Дробот Е.В., Дмитриева Е.О. Практические аспекты применения инструментов нетарифного регулирования внешнеэкономической деятельности в условиях членства России в ВТО и интеграции в Таможенный союз. // Экономические отношения. – 2013. – № 2(6). – С.70-73.
7. Дюмулен И.И. Международная торговля: тарифное и нетарифное регулирование. - Москва: Всероссийская академия внешней торговли Министерства экономического развития Российской Федерации, 2015. – 578 с.
8. Спиридонова В.В. Обеспечение функционирования единой системы нетарифного регулирования. // Экономические отношения. – 2016. – № 3. – С.62-66.
9. Мельник Т.Н., Пугачевская Е.С. Нетарифное регулирование в странах ЕС. // Вестник Киевского национального торгового-экономического университета. – 2014. – № 2(94). – С.15-28.
10. Килин В.В. Таможенно-тарифное и нетарифное регулирование внешнеторговой деятельности России в условиях таможенного союза ЕврАзЭС и ВТО. // Управленец. – 2014. – № 4(50). – С. 20-28.
11. Кошман Е.А. Нетарифное регулирование: роль таможенных органов. // Студент: наука, профессия, жизнь: материалы II всероссийской студенческой научной конференции с международным участием. Ответственный редактор С.Г. Шантаренко. 2015. – С.472-476.
12. Кириллов Ю.Г., Коновалов И.А., Кузнецов В.В. Запреты и ограничения внешнеторговой деятельности. / Учебное пособие. — Омск: Омский государственный технический университет, 2015. – 192 с.
13. Баклаков П.А. и др. Запреты и ограничения внешнеторговой деятельности. / Учебное пособие. — СПб.: Интермедия, 2014. – 924 с.
14. I-TIP Goods: Integrated analysis and retrieval of notified non-tariff measures. World Trade Organization. [Электрон манба]. URL: <https://i-tip.wto.org/goods/default.aspx?language=en>.



BOJXONA MAQSADLARI UCHUN PAXTA VA POLIEFIR ARALASHMALI MATOLAR TADQIQOTI

F.Xakimova - Bojxona instituti katta o'qituvchisi,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

M.Xusanova - Markaziy bojxona laboratoriyasi
katta inspektori

Annotatsiya: Maqolada paxta va poliefir aralashmali matolarni tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (TIF TN) bo'yicha tasniflash paytida yuzaga keladigan muammoli masalalar ko'rilgan. Unda paxta va poliefir aralashmali matolarni TIF TN bo'yicha kodlarini bojxona maqsadlari uchun to'g'riligini aniqlashda bojxona ekspertizasining uslubiy asoslari keltirilgan. Paxta va poliefir aralashmali matolar tarkibini kimyoviy, shuningdek fizik-kimyoviy tahlil usullari bilan aniqlash algoritmi va yuqorida keltirilgan mahsulotlar uchun ushbu tadqiqot usullarini takomillashtirish takliflari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi, infraqizil spektrometr, identifikatsiya belgilari, paxta va poliefir aralashmali matolar, umumiy tarkibni aks ettirish usuli uchun infraqizil spektrometr.

Аннотация: В статье рассматриваются проблемы, возникающие при классификации хлопчатобумажных и полиэфирных смесовых тканей по Товарной номенклатуре внешнеэкономической деятельности (ТН ВЭД). Приведены методические указания по проведению таможенной экспертизы по определению правильности кодов ТН ВЭД для хлопчатобумажных и полиэфирных смесовых тканей для таможенных целей. Разработаны алгоритм определения состава хлопчатобумажных и полиэфирных смесовых тканей химическими, а также физико-химическими методами анализа и предложения по совершенствованию этих методов исследования вышеуказанных изделий.

Ключевые слова: Номенклатура товаров внешнеэкономической деятельности, инфракрасный спектрометр, опознавательные знаки, ткани хлопчатобумажные и полиэфирные смесовые, инфракрасный спектрометр для метода отражения общего состава.

Jahonda inson va texnika ehtiyojlari uchun ishlab chiqariladigan to'qimachilik mahsulotlarining turlari kun sayin ko'payib bormoqda. Bunga keyingi vaqtda turli xossa va xususiyatlarga ega bo'lgan yangi tola va iplarning yaratilishi sabab bo'lmoqda. Ishlab chiqarishning rivojlanishiga mos ravishda olinayotgan tayyor buyumlarning sifatini oshirish va nazorat qilish, assortimentni kengaytirish va yangilash masalalasi doimiy ravishda dolzarb bo'lib turibdi.

Bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonlarida tovarlarning TIF TN kod raqamlarini to'g'ri aniqlash eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, tovarlarning tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (TIF TN) kod raqamlari asosida

bojxona to'lovlari to'liq undiriladi. Tovarlarni TIF TN kod raqamlarini tahlil qilishda bojxona ekspertiza muhim hisoblanib, bunda ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, organoleptik, fizik-kimyoviy va boshqa ko'rsatkichlari hamda tovarlarni ishlab chiqarish jarayonlariga doir muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Kimyoviy ekspertiza orqali deyarli har qanday obyektни tahlil qilish mumkin. Ushbu turdagi tekshirishlar matolarning kimyoviy tarkibini, fizik-kimyoviy va fizik-mexanik xususiyatlarini o'rganishga imkon beradi. Shu bilan birga mahsulot sifatini nazorat qilish va sinovlarni o'tkazishda avtomatlashtirilgan usul va uslublarni joriy qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Tovarlarni identifikatsiya qilish davrida, ularning markirovkasi va yozuvlari bo'lsa (mato)

turiga qarab tarkibini aniqlash katta muammo tug'dirmaydi. Biroq hech qanday ma'lumot bo'lmasa, ayniqsa fizik jihatdan ular bir-biriga o'xshash tovarlar bo'lsa, tarkibi nimadan iborat ekanligini aniqlash muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Matolarning alohida turlari uchun ma'lum bir rang, tiniqlik, yuza xarakteri, yaltirash, taranglik, egiluvchanlik va boshqa shu kabi xossalar xos bo'lib, ularni tashqi ko'rinishi material yoki mahsulot namunasini bilish, hamda mato tabiati to'g'risidagi dastlabki tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

Shuningdek tabiiy va kimyoviy tolalarning tarkibiy tuzilishi orqali uning TIF TN kodini aniqlash muhim vazifa hisoblanadi. Bu usul va uslublar to'qimachilik buyum va materiallarini ishlab chiqarish va foydalanish jarayonida yuzaga keladigan turli tashqi ta'sir natijalarini laboratoriya sharoitida modellashtirish imkoniyatini berishi kerak.

Tovarlarni TIF TN kod raqamlarini aniqlashda ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, organoleptik, fizik-kimyoviy va boshqa ko'rsatkichlarini tahlil qilish muammoni yechishning asosiy konsepsiyasi hisoblanadi.

Mazkur masala yechimi yuzasidan bir qator olimlar tadqiqotlar olib borgan. Xususan rus olimlari A.F.Shepelev [1], O.N.Zuyeva [2], N.A.Babkina [3] va yana ko'plab olimlar yengil sanoat tovarlari tola va iplarni mikroskopik ko'rinishi, tarkibi, kelib chiqishi, to'qimachilik matolarini xarakteristikasi va ularni klassifikatsiyasi, noto'qima matolarni xarakteristikasi va ularni klassifikatsiyasi, trikotaj matolarini xarakteristikasi va ularni klassifikatsiyasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Shu qatorda bir qator o'zbek olimlari, jumladan Karimkulov K.M., Askarov M.A. [4], Sattorov M.O., Jo'rayev Z.B., Yusupov R.K., Bakirov N. [5], Kamoliddinzoda N.J., G'afurov J.Q., Fayzullayev Sh.R., Tuychiyev I.I., Mavlyanberdiyeva G.G., Axunbabayev U.O., Xasanova S.X. [6,7] tomonidan paxta va poliefir bo'yicha izlanishlar olib borilib, to'qimachilik materiallari, to'qimachilik tolalar va iplari, gazlamalar, trikotaj mahsulotlari, noto'qima

matolar va boshqa to'qimachilik mahsulotlarini organoleptik tavsiflari, xususiyatlari, struktura tuzilishi kabi ko'rsatkichlari bo'yicha klassifikatsiyalash o'rganib chiqilgan.

Mazkur olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar to'qimachilik matolarini TIF TN kod bo'yicha klassifikatsiyalashda muhim hisoblanadi. Biroq bu ma'lumotlar tovarning TIF TN kodining aniq raqamini belgilashda yetarli bo'lmaydi. Shundan kelib chiqqan holda to'qimachilik mahsulotlarining kimyoviy takibi bo'yicha qo'shimcha miqdoriy analizlar olib borish muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi [8].

Har qanday tovarning TIF TN kodini aniqlashda uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish dastlabki vaziflardan hisoblanadi. Paxta va poliefir aralashmali matolar TIF TN kod raqamlarini tahlil qilishning dastlabki bosqichi ham mazkur materiallarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdan boshlanadi:

a) paxta bu tabiiy tola bo'lib, chigit sirtidan ajratib olingan momiq hisoblanadi. Paxta tolasining 92-96% ini, daraxtlarning esa 40-60% ini sellyuloza tashkil kiladi. Eng toza sellyuloza paxtadan olinadi. Buning uchun paxta tolasini bir necha marotaba 1% li NaOH eritmasi bilan ishlanadi, natijada 99,85 % li toza sellyuloza olinadi.

Sellyulozani yog'ochdan olish uchun, yog'och qipig'ini kalsiy bisulfit $\text{Ca}(\text{HSO}_3)_2$ eritmasida 160-180°C da, 6-8 atmosfera bosimida qizdiriladi, natijada sellyulozadan boshqa barcha moddalar erib ketadi, ya'ni sellyuloza ajralib qoladi. Bu sellyulozadan har xil qog'ozlar, sintetik tolalar va boshqa bir qator organik birikmalar olinadi.

Shuningdek, paxta tolali matolarni tayyorlashda unga kimyoviy moddar bilan ishlov berilgan bo'lishi mumkin. Jumladan, ishqoriy sellyulozani monoklor sirka kislota bilan eterifikatsiya qilinsa, suvda eriydigan sellyuloza efiri-karboksimetilsellyuloza (KMS) hosil bo'ladi. KMS asosida tayyorlangan kompozitsiya (glitserin va OP-10 bilan birga) to'qimachilik sanoatida ip yigirish jarayonida paxta tolasini boyitishda, ya'ni zararlangan tolalarni davolashda ishlatiladi.

Bundan tashqari, ipli gazlamalarni, jun, ipak, polimerlarni, sun'iy va sintetik tolalarni

bo'yashda, boshqa bo'yoqlarga pigment sifatida qo'shishda azobo'yoqlar ishlatiladi. Ba'zan bo'yoq tola bilan kimyoviy bog' hosil qiladi. Materialni to'g'ridan-to'g'ri bo'yoq eritmasiga botirib olish usulida ham bo'yaladi.

Tabiiy ipak va jun tolalari kislotali bo'yoqlar bilan to'g'ridan-to'g'ri bo'yaladi. Paxta tolasini to'g'ridan-to'g'ri bo'yash uchun avval tanin bilan qayta ishlanadi, so'ng bo'yaladi.

Ba'zi xolatlarda matoning bo'yog'ini mustahkamlovchi moddalar (protravalar) ishtirokida olib boriladi. Mahkamlovchi moddalar bo'yash jarayonida ham material bilan, ham bo'yoq bilan bog' hosil qiladi. Bunday moddalar sifatida alyuminiy atsetat, temir xlorid, temir, xrom va qo'rg'oshin oksidlari ishlatiladi. Bir xil bo'yoq bilan turli mahkamlovchilar ishtirokida matolarni har xil rangga bo'yaladi.

Paxta, jun va ipak-tabiiy polimerlar hisoblanadi, sun'iy polimerlar tabiiy polimerlarni kimyoviy qayta ishlash bilan olinadi.

Xom ashyosiga qarab kimyoviy tolalar uchta asosiy guruhga tavsiflanadi:

- Sun'iy tolalar tabiiy moddalardan polimerlarni ajratib olish va ularga kimyoviy ta'sir ko'rsatish orqali olinadi. Masalan, sellyuloza, kazein, oqsillar.

- Sintetik tolalar past molekulyar og'irlikdagi birikmalardan (monomerlar) sintez reaksiyalari natijasida olingan (polimerlanish va polikondensatlanish) sintetik organik polimerlardan tayyorlanadi.

- Mineral tolalar- noorganik birikmalardan ham tolalar olinadi.

b) Poliefir kimyoviy tola xisoblanadi. Poliefir tolalari (lavan, tesil, terilen, dakron) makromolekulasi quyidagichadir: $\text{NO}\{\text{SN2-SN2-OOS-(S6N4)-SOO}\}_p\text{-SN2-SN2-ON}$

Poliefir tolasi polidispers tuzilishli, qattiq zanjirli bo'lib, u kristallanish xususiyatiga ega. Tolaning ichki tuzilishi yuqori darajadagi tartibga ega. Tuzilishning zichligi va gidrofil guruhlarining yo'qligi sababli u gidrofob tola hisoblanadi. 65% nisbiy namlikda tola 0,4% namlikni, 100% namlikda esa 0,6-0,8% namlikni yutadi. Suvli muhitda tola matlaqo bo'kmaydi. Yuqori darajada elektr zaryadini to'plash xossasiga ega. Bu xossalar tolani bo'yalishi va

mexanik ishlash sharoitlarini yomonlashtiradi.

Poliefir termoplastik tola bo'lib, uning yumshash harorati $258-260^{\circ}\text{S}$ ga teng, organik erituvchilarda eriydi. Ba'zi reaktivlar ta'sirida Poliefir tolalar (benzoy va salitsil kislota) bo'kadi va bu hol bo'yash jarayonida qo'llaniladi. Xo'l holatda ham Poliefirning uzilishdagi cho'zilish qiymati o'zgarmaydi.

Tarkibida paxta va poliefir tolalardan iborat to'qimachilik matolarning TIF TN kodini tahlil etishda kimyoviy yo'l bilan ularni eritgan holda quyidagi ketma-ketlikda miqdoriy analiz qilinadi.

- kimyoviy tahlil uchun namuna matoning butun xususiyatini o'zida aks ettiradigan eng kichik birlikda, eng kam miqdori 1 gramm olinadi. Olingan namuna doimiy og'irlikka ega bo'lguncha quritiladi va maxsus analitik tarozida tortiladi.

- tayyorlangan namuna 300ml.li Erlenmeyer kolbasiga solinadi. Namunaga nisbatan 100 hajm miqdorda $23-25^{\circ}\text{S}$ temperaturadagi 70 %li sulfat kislota moddasi qo'shiladi va aralashma 10 daqiqa davomida suv vannasida aralashtirilib turiladi. Paxta tolalari eritmada eriydi.

- shisha filtr yordamida eritma vakuumli filtrlash jarayonidan o'tkaziladi. Voronkada qolgan tolalar oldingi hajmdagi va $23-25^{\circ}\text{S}$ temperaturada 70 %li sulfat kislotada yuviladi, so'ngra suv bilan yuviladi.

- tolalar stakanga solinadi va ammiakning suvli eritmasi bilan (taxminan 1%) taxminan 50 hajm namuna miqdorida neytral holatga keltiriladi. Yana bir bor vakuum orqali filtrlash jarayonidan o'tkaziladi va voronkada qolgan tolalar suv bilan yuviladi.

- qolgan tolalar $105\pm 3^{\circ}\text{S}$ issiqlikdagi quritish kamerasida 60 daqiqa davomida quritiladi va analitik tarozida tortiladi. Tortish jarayonidan so'ng tolalarni qayta tekshiriladi.

Tolalarni tekshirish uchun tortib bo'lingan namunaning tolalari ajratilib KBr tabletkalari yoki maxsus pristavkada infraqizil spektrlari olinadi. Mikroskop yordamida tolalar tarkibida paxta tolalari mavjudligi tekshiriladi. Tekshirilganda namuna tarkibidagi paxta tolalari eriganiga ishonch hosil qilinadi.

Erigan moddaning massasini aniqlash quyidagi formula orqali aniqlanadi:

Mer.mod=Mnam. – Mqol.

Erigan moddaning foizlardagi ulushi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Mer.\%} = (M_{\text{эр.мод.}} * 100\%) / M_{\text{(нам.)}}$$

Bu yerda:

Mer.mod – erigan moddaning massasi(gr).

Mnam. – namunaning massasi(gr).

Mqol. – qoldiq massasi(gr).

Mer.% – erigan moddaning ulushi (%).

Paxta va poliefir aralashmali matolarning TIF TN kod raqamlarini tahlil qilish algoritmi quyidagi bosqichlar ketma-ketligidan iborat deb

qaraladi.

1-bosqich: Namunalarni va hujjatlarni ko'zdan kechirish va o'rganish.


Taqdim etilgan namuna ekspertlar tomonidan ko'zdan kechiriladi va o'rganiladi. Ko'zdan kechirish vaqtida namuna turli rangli rasm tushirilgan mato (tkan) ekanligi aniqlanishi mumkin (1-rasm).

2- bosqich: Spektral analiz.

Namunaning tarkibini o'rganish maqsadida "Agilent Technologies

Cary 630" markali infraqizil spektrometrda tekshiriladi va spektri olinadi (2-rasm).

Olingan spektrga ko'ra namuna tarkibidagi iplari sellyuloza va poliefir moddalari spektriga mos kelishi lozim.




1-rasm. Taqdim etilgan namunaning ko'rinishi



Agilent Technologies

Sample ID: tkan kamufraj st 1
Sample Scans: 32
Background Scans: 32
Resolution: 8
System Status: Good
File Location: C:\Program Files\Agilent\MicroLab PC\Results\FileLocation\namuna tkan kamufraj st 1_2020-01-22T12-10-27.a2r

Method Name: Library Search Demo ATR Library
User: user
Date/Time: 01/22/2020 12:10:27 PM
Range: 4000 - 650
Apodization: Triangular



Quality	Library	CAS#	Name
0.92557	ATR Demo Library (19)		Cellulose Filter Paper
0.92426	ATR Demo Library (53)		Cellulose Filter Paper
0.89035	Agilent Polymer Handheld ATR Library (12)		Cellulose Filter Paper
0.88647	Agilent Polymer Handheld ATR Library (13)		Cellulose Paper Filter W 40 Ashless

1/22/2020 12:10:45 PM


page 1 of 3



Agilent Technologies

Sample ID: namuna tkan kamufraj st 2
 Sample Scans: 32
 Background Scans: 32
 Resolution: 8
 System Status: Good
 File Location: C:\Program Files\Agilent\MicroLab PC\Results\FileLocation namuna tkan kamufraj st 2_2020-01-22T12-11-54.a2r

Method Name: Library Search Demo ATR Library
 User: user
 Date/Time: 01/22/2020 12:11:54 PM
 Range: 4000 - 650
 Apodization: Triangular



Quality	Library	CAS#	Name
0.89990	ATR Demo Library (53)		Cellulose Filter Paper / Polyester Fibers,
0.87182	ATR Demo Library (19)		Polyester Fibers,
0.85187	Agilent Polymer Handheld ATR Library (13)		Cellulose Paper Filter W 40 Ashless
0.84582	Agilent Polymer Handheld ATR Library (12)		Polyester Fibers

1/22/2020 12:12:10 PM

page 1 of 3

2-rasm. Namunaning “Agilent Technologies Cary 630” markali infraqizil spektrometrda tekshirilgan spektri.

3- bosqich: Mikroskopik analiz.

Namunani qanday iplardan tayyorlanganligini va ayrim tolalar tabiatini aniqlash uchun namunalar mikroskopda kattalashtirilib ko‘riladi (3-rasm).

Tadqiqot natijasiga ko‘ra namunaning iplari tolali iplardan iborat bo‘lib, paxta va poliefir tolalaridan iboratligi tekshiriladi (4-rasm).

4- bosqich: Kimyoviy analiz.

Namunaning tarkibidagi poliefir va paxta miqdorini aniqlash uchun namuna kimyoviy usulda eritilib ko‘riladi.


Tadqiqot natijasiga ko‘ra namuna tarkibidagi paxta miqdori (masalan 48% (± 2)) va poliefir tolalari miqdori (masalan 52% (± 2)) foizlarda aniqlanadi.

5- bosqich: Namunalarning yuza zichligi bo‘yicha analiz.


Namunaning aniq o‘lchamli shakli kesib olinib, “Sartorius Secura

224-10 RU” markali analitik tarozida o‘lchanadi va yuza zichligi aniqlanadi.

Hisob-kitobga ko‘ra namunaning o‘rtacha yuza zichligi 190 (± 3) g/m² ga to‘g‘ri keldi.



3-rasm. Pishganlik darajasi xar xil bo‘lgan paxtaning mikroskopik tuzilishi:
 1) O‘ta pishgan paxta tolasi;
 2) Pishgan paxta tolasi;
 3) Xom raxta tolasi.



4-rasm. Poliefir tolalarining mikroskopik tuzilishi:
 1) Ko‘ndalang ko‘rinishi; 2) Tepadan ko‘rinishi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, tovarlarni TIF TN kod raqamlarini tahlil qilish algoritmi amaliyotga tatbiq etilganda kutilgan natijalar beradi.


Jumladan, O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasi Markaziy bojxona laboratoriyasida paxta va poliefir aralashmali

matolar namunasini tarkibi mazkur usulda infraqizil spektroskopiya metodi orqali o'rganildi.

Analiz orqali TIF TN kodlari miqdoriy parametrlar, xususan paxta va poliefir tolalarining foizlardagi moqdori, sirt tarangligi hamda matoning zichligi hal qiluvchi rol o'ynashi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бабкина Н.А. Товароведение, экспертиза в таможенном деле и товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности”// Учебно-методические пособие. Благовещенск. 2020. С.111.
2. Шепелев А.Ф. Товароведение и экспертиза текстильных и швейно- трикотажных товаров. Ростов-на-Дону: Феникс, 2012. 342 с.
3. Зуева О.Н. Проблемы идентификации флокса как текстильного материала при проведении камеральных таможенных проверок// Вестник российской таможенной академии. 2019.№ 3. стр.53-59.
4. Каримкулов К.М., Аскарлов М.А. Исследование целлюлозы хлопкового линта с применением таможенной химической экспертизы // Журнал «Пластические массы» 2013.ю №3. Стр.35-37.
5. Sattorov M.O., Jo'rayev Z.B., Yusupov R.K., Bakirov N. “To'qimachilik materiallarini TIF TN kodlari bo'yicha tasniflash va identifikatsiyalash” bo'yicha amaliy qo'llanma. “Hayot nashr”. Andijon.2020. 194 bet.
6. N.J.Kamoliddinzoda, J.Q.G'afurov, Sh.R.Fayzullayev. Pnevмомеханик yigirish mashinasida aralash ip olishni optimallashtirish.\\ “To'qimachilik iplarini chuqur qayta ishlashning innovatsion yechimlari”. Respublika miqyosidagi ilmiy-texnikaviy anjuman materiallari to'plami. Toshkent, 2019. 190-195 betlar.
7. Tuychiyev I.I., Mavlyanberdiyeva G.G., Axunbabayev U.O., Xasanova S.X. To'qimachilik sanoati uchun poliefir va o'rta tolali paxta tolalar aralashmasidan yuqori nomerli ip-kalava ishlab chiqarishning yangi texnologiyasi // NAUKA I INNOVATSIONNOE RAZVITIE jurnali. Toshkent.2020. № 2.105-112 betlar.
8. GOST ISO 1833-12-2011. Межгосударственный стандарт. Материалы текстильные. Количественный химический анализ // <https://docs.cntd.ru/document/1200101184>. (data obrasheniya 04.11.2021)



JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV TADBIRLARINI O'TKAZISH BILAN BOG'LIQ AYRIM MULOHAZALAR

V.Karimov - O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori,

M.Do'stov - Bojxona instituti Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti boshlig'i, dotsent

Annotatsiya: Maqolada tezkor-qidiruv faoliyatining nazariy va huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar yoritilgan.

Kalit so'zlar: tezkor-qidiruv faoliyati, tezkor-qidiruv tadbirlari, tezkor-qidiruv qonunchiligi, tezkor bo'linmalar.

Аннотация: В статье освещены предложения по дальнейшему совершенствованию теоретических и правовых основ оперативно-розыскной деятельности.

Ключевые слова: оперативно-розыскная деятельность, оперативно-розыскные мероприятия, оперативно-розыскное законодательство, оперативные подразделения.

Tezkor-qidiruv faoliyati davlatning vakolatli organlari tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqiy tartibotni ta'minlash maqsadida huquqiy faoliyatning maxsus turi sifatida amalga oshirib kelinadi. Tezkor-qidiruv faoliyati huquqni muhofaza qilish faoliyati boshqa turlari (ma'muriy-huquqiy, jinoiy-huquqiy, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya) bilan bir qatorda jinoyatchilikka qarshi kurashning davlat-huquqiy turlaridan biri hisoblanadi va bunda yuklatilgan vazifalarni samarali hal etish borasida maxsus kuchlar, vositalar va tezkor-qidiruv tadbirlari kabi muhim imkoniyatlardan foydalaniladi.

Tezkor-qidiruv faoliyatini huquqiy tartibga solishni har tomonlama takomillashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurashda mazkur faoliyatning samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrda qabul qilingan "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuni muqaddam nazariya va amaliyotga ma'lum bo'lmagan tushuncha va atamalarini kiritdi. Qonunda 16 ta tezkor-qidiruv tadbirlari o'z aksini topgan bo'lib, ularni qonunning asosiy qismi, o'zagi deb hisoblash mumkin. Ammo, o'tkazilgan tadqiqot va amaliyot tajribasi guvohlik berishicha

qonunning ayrim qoidalari, xususan muayyan tezkor-qidiruv tadbirlarining mazmun-mohiyati, ularni o'tkazish asoslari va shartlari, tashkiliy-taktik jihatlari hanuzgacha mukammallikdan yiroq bo'lib, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tezkor bo'linmalari amaliy faoliyatida ayrim nomuvofiqliklar kelib chiqishiga sabab bo'layotgani va ayni vaqtda ularni takomillashtirish zaruriyati mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu esa mazkur faoliyatda qonuniylikni ta'minlash tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish bilan bog'liq masalalarni tadqiq qilishdan oldin, tezkor-qidiruv faoliyatining qonunda berilgan tushunchasini tahlil qilish va uni aniqlashtirish zaruriyati mavjud bo'lib, bu tushuncha mazkur faoliyatning yangi, hozirgi zamon darajasidagi mazmun-mohiyatini to'liq aks ettirishi lozim. Mazkur faoliyatning qonunda berilgan tushunchasiga ko'ra, "Tezkor-qidiruv faoliyati – Qonun bilan maxsus vakolat berilgan davlat organlarining tezkor bo'linmalari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazish orqali amalga oshiriladigan faoliyat turidir". Ya'ni, bu holda faoliyatning mazmuni, **maxsus vakolat berilgan subyektlar tomonidan faqat tezkor-qidiruv tadbirlarini** o'tkazish bilan cheklangan.

Fikrimizcha, tezkor-qidiruv faoliyatining Qonunda berilgan tushunchasi mukammal emas va bu faoliyatning mazmunini qisman ifoda etadi va faoliyatning umume'tirof etilgan asosiy institutlarini qamrab olmaydi. Xususan, Qonunda berilgan tushunchadan kelib chiqadigan bo'lsak, unda tezkor-qidiruv tadbirlari qatoriga kirmaydigan, lekin faoliyatning asosiy yo'nalishlarini o'z ichiga oluvchi tezkor harakatlarni o'tkazish taqiqlanadi deb tushunish mumkin. Shuningdek, tushunchada tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad o'z ifodasini topmagan.

Tezkor-qidiruv faoliyatiga oid adabiyotlarni tahlil qilish natijalari ko'rsatishicha, hozirgi kunda soha olimlari o'rtasida tyezkor-qidiruv faoliyati tushunchasi va mohiyatini belgilashda yakdillik mavjud emas. Xususan, rossiyalik olimlar A.V.Fedorov va A.V.Shaxmatovlar [1] tezkor-qidiruv faoliyatining tushunchasini shakllantirishda, faoliyatning maqsadini jinoyatchilikka qarshi kurashish vazifalari bilan, S.I.Zaxarsev [2] esa fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, huquq va erkinliklarini, mulkini, jamiyat va davlat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan himoyalash vazifalari bilan bog'lashgan. Rossiya Federatsiyasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 6-moddasida tezkor-qidiruv tadbirlarining to'liq ro'yxati berilgan bo'lib, ular o'n to'rttani tashkil etadi. Ushbu Qonunning "tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish asoslari" deb ataluvchi 7-moddasi ikkinchi qismida jinoiy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan oltita asoslar o'z aksini topgan (davlat sirlarini tashkil etuvchi ma'lumotlardan foydalanishga ruxsat berish; tezkor-qidiruv faoliyatida ishtirok etish yoki ushbu faoliyat natijasida olingan materiallar bilan tanishishga ruxsat berish; xususiy detektiv va qo'riqlash faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsat berish va h.k.). Ya'ni, yuqoridagi olimlarning taklif etgan tushunchalari ham tezkor-qidiruv faoliyatining maqsadini to'liq qamrab olmagan, chunki yuqorida qayd etilganlarga ko'ra tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish asoslari faqat jinoyatchilikka qarshi kurash bilan cheklanmagan.

Yuqoridagi fikrdan kelib chiqadigan bo'lsak, quyidagicha xulosa qilish mumkin: a) tezkor-

qidiruv faoliyati faqat tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazish orqali amalga oshiriladi va shu sababli tezkor-qidiruv faoliyatining boshqa yo'nalishlari bu faoliyatga aloqasi yo'q; b) tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazmasdan tyezkor-qidiruv faoliyatining pirovard natijalariga erishib bo'lmaydi; v) tezkor-qidiruv faoliyatining mohiyati ushbu 16 ta tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish bilan cheklangan.

Albatta tezkor-qidiruv faoliyatining mohiyatini bunday tushunish, uning haqiqiy tutgan o'rniga ham Qonunning mohiyatiga ham muvofiq kelmaydi, chunki mazkur faoliyat boshqa keng qamrovli imkoniyatlarga egadir. Fikrimizcha, yuqoridagi kabi chalg'ishlar va nomutanosibliklarni oldini olish maqsadida Qonunning 3-moddasida berilgan tushuncha aniqlashtirishni va qonunning boshqa moddalariga moslashtirishni talab qiladi.

Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq tezkor-qidiruv faoliyati faqat tezkor-qidiruv tadbirlaridan iborat emas, balki uning asosiy institutlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish (14-modda); fuqarolarni maxfiy hamkorlikka jalb qilish (12-modda); axborot ta'minoti va tezkor hujjatlashtirish (18-modda); axborot muhofazasini ta'minlash (20-modda); tezkor-qidiruv faoliyatini moliyaviy ta'minlash (24-modda), tezkor-qidiruv faoliyati ustidan nazorat o'rnatish (25-27-moddalar) va h.k.

Shuningdek, tezkor-qidiruv faoliyatining mazmun-mohiyati va tashkiliy-taktik jihatlarini to'liq ifoda etuvchi xususiy belgilarining asosiylari qatoriga, fikrimizcha, quyidagilarni kiritish mumkin: tezkor-qidiruv faoliyatining davlat-huquqiy tavsifdaligi; vazifalarning maxsusligi; maxsus me'yoriy-huquqiy tartibga solinishi; muayyan prinsiplar asosida amalga oshirilishi; faoliyatning nafaqat tezkor-qidiruv tadbirlari, balki maxsus vositalar, usullar va tashkiliy-taktik shakllarni qo'llash bilan bog'liq boshqa imkoniyatlari orqali amalga oshirilishi; maxsus vakolatga ega subyektlar tomonidan amalga oshirilishi; faoliyatning maxsus taktikasi mavjudligi; maxsus moliyaviy va moddiy-

texnik ta'minoti; faoliyat ustidan maxsus nazorat o'rnatilganligi.

Yuqorida qayd etilgan mulohazalardan kelib chiqib, tezkor-qidiruv faoliyatining tushunchasini quyidagi tahrirda berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: *“Tezkor-qidiruv faoliyati – Qonun bilan maxsus vakolat berilgan davlat organlarining tezkor bo‘linmalari tomonidan mazkur faoliyat vazifalarini hal qilish maqsadida oshkora va nooshkora usullar, vositalar, shakllar va tezkor-qidiruv tadbirlari uyg‘unligida amalga oshiriladigan faoliyat turidir”*. Ya’ni, ushbu tushunchaning xususiy belgilari sifatida: a) faoliyatning Qonun bilan maxsus vakolat berilgan davlat organlarining tezkor bo‘linmalari tomonidan (Qonunning 10-moddasi); b) tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal qilish maqsadida (4-modda); v) oshkora va nooshkora usullar, vositalar, tashkiliy-taktik shakllar va tezkor-qidiruv tadbirlari uyg‘unligida (9-modda) amalga oshirilishini keltirish mumkin.

Tezkor-qidiruv tadbirlari mazkur faoliyatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanishi sababli, uning tushunchasini aniqlab olish umuman tezkor-qidiruv faoliyati uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu tushunchani Qonunda berilmaganligi uning jiddiy kamchiliklaridan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Rossiyalik soha olimlari (V.A.Ilichev, G.I.Kozirev, I.A.Klimov, V.I.Mixaylov, A.V.Fedorov, A.Yu.Shumilov va boshqalar) o‘z ilmiy ishlarini muayyan tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishni huquqiy tartibga solish masalalariga bag‘ishlaganlar.

O‘zbekistonlik olimlar A.A.Xamdamov, T.R.Saitbayev, S.N.Gordeev, R.T.Rashitxodjayevlar tomonidan 2015-yilda chop etilgan *“O‘zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga sharh”* da tezkor-qidiruv tadbirlariga quyidagicha ta’rif berilgan *“Tezkor-qidiruv tadbirlari – “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunda mustahkamlangan razvedka-izlov xususiyatiga ega bo‘lgan, vakolatli subyektlar tomonidan normativ-huquqiy hujjat talablariga muvofiq o‘tkaziladigan hamda asosan oshkora vosita va usullarni nooshkora vosita va usullar bilan uyg‘unlashtirgan holda qo‘llashga asoslangan*

hamda tyezkor-qidiruv faoliyati masalalarini hal qilish uchun zarur faktik ma’lumotlarni bevosita aniqlashga qaratilgan chora va harakatlar tizimi”[3]. Lekin, fikrimizcha, ushbu tushunchaning bahsli jihati shundan iboratki u juda keng qamrovli ifodalangan bo‘lib, unda aynan tezkor-qidiruv tadbirlariga xos bo‘lgan alohida xususiy belgilari, ya’ni ularni o‘tkazish asoslari va shartlari o‘z aksini topmagan. Binobarin, tezkor-qidiruv faoliyatining tezkor-qidiruv tadbirlaridan tashqari boshqa yo‘nalishlariga ham aynan ushbu ta’rifni berish mumkin. Shuningdek, yuqoridagi ta’rifda *“tezkor-qidiruv masalalari”* degan jumla tushunarsiz bo‘lib, uni *“tezkor-qidiruv vazifalari”* bilan almashtirish lozim, chunki Qonunning 4-moddasida tezkor-qidiruv faoliyatining asosiy vazifalari ifodalangan.

Rossiyalik olimlar V.I.Mixaylov va A.V.Fedorovlar tezkor-qidiruv tadbirlariga quyidagicha ta’rif bergan: *“Tezkor-qidiruv tadbirlari — maxsus vakolat berilgan shaxslar tomonidan tyezkor-qidiruv faoliyati qonunchiligida nazarda tutilgan asoslar va tartibda muayyan tezkor tekshiruv ishjildi yoki dastlabki materiallar bo‘yicha tadqiqot predmetiga kiruvchi ma’lumotlarni qo‘lga kiritish borasidagi tadbirlar (tadbirlar majmui)”*. Ya’ni, ushbu ta’rif *“ma’lumotlarni qo‘lga kiritish”* bilan cheklangan. Ta’kidlash joizki, ayrim hollarda tezkor-qidiruv tadbirlari nafaqat ma’lumotlarni qo‘lga kiritish, balki boshqa maqsadlar uchun ham o‘tkaziladi. Masalan, jinoyatchilarni ushlash uchun qulay sharoit yaratish; ko‘maklashuvchi shaxslar xavfsizligini ta’minlash va h.k.

Tyezkor-qidiruv tadbirlarining tushunchasini tadqiq etish borasida A.Yu.Shumilov ham munosib hissa qo‘shgan bo‘lib, u o‘zining *“Tezkor-qidiruv faoliyatining yuridik asoslari”* nomli monografiyasida tezkor-qidiruv tadbirlariga quyidagicha tushuncha bergan: *“Tezkor-qidiruv tadbirlari – tyezkor-qidiruv faoliyatida qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborotni qo‘lga kiritish usullari”*[4]. Ushbu tushuncha ham tezkor-qidiruv tadbirlarining barcha xususiy belgilarini ifoda etmaydi. Chunki ko‘maklashuvchi shaxsdan axborot olish jarayoni ham tezkor-qidiruv faoliyatida qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgani holda biz uni tezkor-qidiruv

tadbirlari deb hisoblay olmaymiz. Tezkor-qidiruv tadbirlarini tyezkor-qidiruv faoliyatining boshqa yo'nalishlaridan farqlovchi xususiy belgilaridan biri, bu tezkor-qidiruv tadbirlarining Qonunda belgilangan asoslar va shartlarga binoan o'tkazilishidir. Yuqoridagi tushunchada esa bunday xususiy belgilar mavjud emas.

Ushbu tushunchadan tashqari A.Yu.Shumilov *“tezkor-qidiruv tadbirlari tarkibi”* to'g'risida fikr bildirgan. Ya'ni, u tezkor-qidiruv tadbirlari tarkibini tasniflashda jinoyat qonunchiligida mavjud bo'lgan jinoyat tarkibi (obyekt, obyektiv tomoni, subyekt, subyektiv tomoni)ni asos qilib olgan. Uning fikricha tezkor-qidiruv tadbirlari tarkibini aniqlab olmasdan turib, tezkor-qidiruv tadbirlarini bir-biridan farqlash yoki tezkor xodimning harakatini tezkor-qidiruv tadbirlari sifatida baholash qiyinchilik tug'diradi. Ushbu qarashlarning bahsli ekanligini asoslash uchun quyidagi fikrlarni keltiramiz: avvalambor, jinoyat huquqida jinoyat tarkibi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishning majburiy sharti hisoblanadi. Ya'ni, bunda gap aynan jinoyat, noqonuniy, ijtimoiy xavfli qilmish to'g'risida borsa, tezkor-qidiruv tadbirlari tarkibi to'g'risida esa gap tezkor bo'linmalarning nafaqat qonuniy harakatlari, balki ular uchun o'tkazilishi majburiy bo'lgan harakatlar to'g'risida boradi. Bu majburiyat *“Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida”*gi Qonun, Jinoyat-protsessual kodeksi va tezkor xodimlarning mansab vazifalaridan kelib chiqadi. Shu bois ham A.Yu.Shumilovning nuqtai-nazarini shubha ostiga qo'yish mumkin. Albatta bu borada soha olimlari tomonidan hozirgi kunda tegishli ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilishiga ehtiyoj mavjud.

Hozirgi kunda mamlakatimiz soha mutaxassislari orasida tezkor-qidiruv tadbirlarining mazmun-mohiyati, tushunchasi, asosiy belgilari va tuzilishini aniqlashtirish xususida yagona nuqtai-nazar shakllantirilmagan. Bu boradagi ayrim chop etilgan adabiyotlarni hisobga olmaganda umuman chuqur ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmagan. Chop etilgan adabiyotlarda ham bir qator xatolik va kamchiliklar uchraydi. Masalan, mualliflar A.K.Zakurlyayev va Yu.S.Pulatovlarning *“Tezkor-*

qidiruv faoliyati” o'quv qo'llanmasidagi mavjud ayrim nomuvofiqliklar bunga misol bo'la oladi. O'quv qo'llanmada tezkor-qidiruv tadbirlariga quyidagicha tushuncha berilgan: *“Tezkor-qidiruv tadbirlari – bu tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda o'tkaziladigan, to'liq ro'yxati tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risidagi Qonunda belgilangan aniq harakatlar, tezkor-qidiruv faoliyatining tarkibiy elementlarini o'zida ifodalaydi, bu elementlar jamuljam holda tyezkor-qidiruv faoliyatini tashkil etadi”* [5]. Ya'ni, bu tushunchani sharhlaydigan bo'lsak tezkor-qidiruv tadbirlari tezkor-qidiruv faoliyatining tarkibiy elementlarini o'zida ifoda etadi va ushbu elementlar tezkor-qidiruv faoliyatini tashkil etadi deb xulosa qilingan. Fikrimizcha, bu yerda mualliflar yanglish holda tezkor-qidiruv faoliyatining tarkibiy elementlari sifatida 16 ta tezkor-qidiruv tadbirlariga ishora qilishgan ko'rinadi. Tushunchaning yana bir kamchiligi unda tezkor-qidiruv tadbirlarining xususiy belgilari bo'lgan ularni o'tkazish asoslari va shartlarining mavjud emasligi hamda tezkor-qidiruv tadbirlarining o'tkazishdan ko'zlangan maqsad ifodalanmagan. Shuningdek, o'quv qo'llanmada bir qator tezkor-qidiruv tadbirlariga berilganta'riflar va ularni o'tkazish tartiblari jiddiy xatoliklardan xoli emas. Xususan, *“Niqoblangan operatsiya”* tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish tartibi va unga tegishli vazifalarni ifodalashda, mualliflar, tezkor-qidiruv faoliyatining qariyb barcha vazifalarini sanab o'tganlar. Bunday yondoshuv mazkur tadbirning mazmun-mohiyatini umuman o'zgartirib yuborishi hamda amaliyot tezkor xodimlarida mazkur tezkor-qidiruv tadbirlari to'g'risida noto'g'ri tasavvur yaratilishiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan hamda tezkor-qidiruv qonunchiligi talablaridan kelib chiqib, tezkor-qidiruv tadbirlari tushunchasini quyidagicha ifodalash mumkin: *Tezkor-qidiruv tadbirlari – bu tyezkor-qidiruv faoliyatining tarkibiy qismi bo'lib, vakolatli subyektlar tomonidan qonunda belgilangan asoslar va shartlarga binoan oshkora va nooshkora usullar va vositalar uyg'unligida o'tkaziladigan, tyezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan o'zaro mushtarak tadbirlar majmuidir.*

Tyezkor-qidiruv tadbirlarining ushbu tushunchadan kelib chiqadigan xususiyatlari quyidagicha: a) tezkor-qidiruv tadbirlari tezkor-qidiruv faoliyatining tarkibiy qismi hisoblanishi; b) tezkor-qidiruv tadbirlarining qonunda belgilanganligi; v) tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishdan ko'zlangan maqsad (tezkor-qidiruv faoliyati vazifalarini hal qilish); g) tezkor-qidiruv tadbirlari faqat maxsus vakolatga ega subyektlar tomonidan amalga oshirilishi; d) tezkor-qidiruv tadbirlarining Qonunda belgilangan asoslar va shartlarga binoan o'tkazilishi; y) tezkor-qidiruv tadbirlarining oshkora, nooshkora usullar va vositalar uyg'unligida o'tkazilishi.

Tezkor-qidiruv tadbirlarilarini o'tkazish jarayonida qonuniylikni ta'minlash bilan bog'liq kuzatiladigan yana bir muammo, bu ayrim tezkor-qidiruv tadbirlarining prokuror bilan kelishgan holda o'tkazilishi bilan bog'liq masala bo'lib, Qonunning 16-moddasida qayd etilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish shartlarida *“tekshirish uchun xarid qilish, nazorat ostida olish va nazorat ostida yetkazib berish prokuror bilan albatta kelishilgan holda amalga oshiriladi”* degan talab mustahkamlangan. Buning sababi shundaki, yuqoridagi uchta tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish ochiq savdoda sotilishi taqiqlangan yoki muomalada bo'lishi cheklangan predmetlar, moddalar va mahsulotlarni (masalan, qurol, portlovchi modda, giyohvand vositalar va h.k.) noqonuniy aylanishi bilan bog'liqdir. Ya'ni, bu talab muayyan jinoyatni fosh etish maqsadida muomalasi cheklangan yoki taqiqlangan predmetlarni nazorat ostida xarid qilgan shaxsni javobgarlikka tortilishdan saqlash uchun muayyan hududdagi prokuror bilan avvaldan kelishib qo'yishni nazarda tutadi.

Ammo, hozirgi kundagi amaliyot tajribasi guvohlik berishicha ushbu masalada ham qonuniylikni ta'minlash nuqtai-nazaridan ayrim kamchiliklar kuzatilmoqda. Ayni paytda Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti organlariga yuklatilgan dolzarb vazifalardan biri, bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tovarlar narxlarini manipulyatsiya qilish, ularga bo'lgan sun'iy tanqislik va ajiotaj talabni vujudga keltirish, shuningdek, sifatsiz yoxud qalbakilashtirilgan

dori vositalari va tibbiyot buyumlari muomalaga chiqarilishi bilan bog'liq g'ayrihuquqiy harakatlarni oldini olishga qaratilgan tadbirlar o'tkazish hisoblanadi. Mazkur vazifalar ijrosi bo'yicha Departamentning tezkor bo'linmalari bir qator tezkor-qidiruv tadbirlari, shu jumladan, *“tekshirish uchun xarid qilish”* tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishmoqda. Ma'lumki, bu tadbirlar jarayonida xarid qilinayotgan mahsulotlar ochiq savdoda sotilishi taqiqlangan yoki muomalada bo'lishi cheklangan predmetlar, moddalar va mahsulotlar qatoriga kirmaydi va bu holda prokuror bilan kelishish mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Lekin, *“Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida”*gi Qonunda ham, sohaviy normativ-huquqiy hujjatlarda ham bu holat huquqiy tartibga solinmagan. Shu bois, bu borada yuzaga kelgan vaziyatga aniqlik kiritish maqsadida Qonunning 16-moddasi beshinchi xatboshisidagi jumlaning quyidagi tahrirda berish taklif qilinadi: *“Tekshirish uchun xarid qilish, nazorat ostida olish va nazorat ostida yetkazib berish, **basharti ochiq savdoda sotilishi taqiqlangan yoki muomalada bo'lishi cheklangan predmetlar, moddalar va mahsulotlarni o'tkazish bilan bog'liq bo'lsa, prokuror bilan albatta kelishilgan holda amalga oshiriladi**”*.

Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish jarayonida inson huquq va erkinliklariga rioya etish hamda qonuniylikni ta'minlash vazifalarini samarali hal qilish uchun tezkor-qidiruv tadbirlarni tasniflash masalasi muhim ahamiyatga ega. Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda tezkor-qidiruv fanida tezkor-qidiruv tadbirlarining yagona mukammal tasnifi yo'q. Yuqorida qayd etilgan A.K.Zakurlayev va Yu.S.Pulatovlar tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish tartibiga ko'ra quyidagicha tasniflaydi: 1) fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlariga bo'lgan munosabatga qarab; 2) yashirinlik darajasiga qarab; 3) texnika vositalaridan foydalanilishiga qarab; 4) foydalanilayotgan tezkor-texnika kuchlari va vositalarining taalluqliligiga qarab. Ushbu tasniflash mukammallikdan yiroq bo'lib, unda tezkor-qidiruv tadbirlarini xususiy belgilari bo'yicha farqlashning deyarli imkoni yo'q.

K.K.Goryainov, Yu.F.Kvasha va K.V.Surkovlar tezkor-qidiruv tadbirlarini

tasniflashning quyidagi variantini taklif qilishgan: a) qidiruvga moslashtirilgan kriminalistik usullar (so‘rov; ma‘lumotlar to‘plash; qiyosiy tekshiruv uchun namunalar yig‘ish; tekshirish uchun xarid qilish; predmetlarni va hujjatlarni tekshirish; tezkor kuzatuv; shaxsning aynanligini aniqlash; turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini va transport vositalarini tekshirish; tezkor eksperiment); 2) qidiruvga xos bo‘lgan razvedik usullar (pochta, kuryerlik jo‘natmalarini, telegraf xabarlarini va boshqa xabarlarini nazorat qilish; telefonlar va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitish; aloqaning texnik kanallaridan axborot olish); 3) razvedik operatsiyalar (tezkor kiritish va nazorat ostida yetkazib berish)[6].

A.Yu.Shumilov esa tezkor-qidiruv tadbirlarini uchta toifaga bo‘lib tasniflaydi: *birinchi toifaga (oddiy) fuqarolarning huquqlarini cheklamaydigan tezkor-qidiruv tadbirlari*: so‘rov; ma‘lumotlar to‘plash; qiyosiy tekshiruv uchun namunalar yig‘ish; tekshirish uchun xarid qilish; predmetlarni va hujjatlarni tekshirish; tezkor kuzatuv; shaxsning aynanligini aniqlash; turar joylarni va boshqa joylarni, binolarni, inshootlarni, joyning uchastkalarini va transport vositalarini tekshirish; tezkor kiritish; nazorat ostida yetkazib berish; aloqaning texnik kanallaridan axborot olish (fuqarolarning shaxsiy hayotiga aralashmasdan); *ikkinchi toifa* (fuqarolarning huquqlarini cheklaydigan) tezkor-qidiruv tadbirlari qatoriga tezkor eksperimentdan tashqari qolgan barcha tezkor-qidiruv tadbirlarini kiritadi; *uchinchi (maxsus) toifaga* esa tezkor eksperimentni kiritadi.

Yuqoridagi olimlarning ayrim mulohazalariga qo‘shilgan holda, ta‘kidlash joizki, ulardagi umumiy kamchilik, fikrimizcha, bu ularning tezkor-qidiruv tadbirlarining nomlanishi va ularni namunaviy rejaga binoan tizimlashga bo‘lgan urinishlari deb hisoblash mumkin. Shu bois, tezkor-qidiruv tadbirlarini avvalambor boshqa, ya‘ni qonuniylilikni ta‘minlashga hissa qo‘shuvchi alohida muhim asoslarga binoan tasniflash to‘g‘ri bo‘lar edi.

Fikrimizcha, tezkor-qidiruv qonunchiligi va amaliyot tajribasidan kelib chiqib, tezkor-

qidiruv tadbirlarini shartli ravishda uchta guruhga bo‘lib tasniflash maqsadga muvofiq: a) tezkor bo‘linma xodimlari tashabbusi bilan o‘tkaziladigan va sanksiyalash talab qilinmaydigan (so‘rov; ma‘lumotlar to‘plash; qiyosiy tekshiruv uchun namunalar yig‘ish; predmetlar va hujjatlarni tekshirish; shaxsning aynanligini aniqlash; joylar, binolar, inshootlarni. joy uchastkalarini va transport vositalarini tekshirish; b) tezkor bo‘linma rahbarining qarori asosida o‘tkaziladigan (tekshirish uchun xarid qilish; nazorat ostida olish; tezkor kuzatuv; tezkor kiritish; nazorat ostida yetkazib berish; niqoblangan operatsiya; tezkor eksperiment); v) prokuror sanksiyasi asosida o‘tkaziladigan (turar joylarni tekshirish; pochta, kuryerlik jo‘natmalari va telegraf xabarlarini nazorat qilish; telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish; abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olish) tezkor-qidiruv tadbirlari [7].

Bunday tasniflashning asosi sifatida, *birinchidan*, tezkor-qidiruv tadbirlarining murakkabligiga ko‘ra; *ikkinchidan*, tezkor-qidiruv faoliyatining kuchlari va vositalaridan foydalanish imkoniyatlariga ko‘ra; *uchinchidan*, bu jarayonda fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga daxl qilinish darajasiga ko‘ra; *to‘rtinchidan*, mansabdor shaxslarning tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishga ruxsat berish vakolatlariga ko‘ra va *beshinchidan*, tezkor-qidiruv tadbirlari natijalaridan jinoyat protsessida foydalanish imkoniyatlariga ko‘ra tizimlash qulay deb hisoblash mumkin.

“Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasi birinchi qismida “turar joy daxlsizligi, yozishmalar, telefon orqali so‘zlashuvlar va boshqa so‘zlashuvlar, aloqa tarmoqlari orqali uzatiladigan pochta, kuryerlik jo‘natmalari va telegraf xabarlarini sir saqlanishi huquqlarini cheklovchi, shuningdek abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olishga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarining o‘tkazilishiga prokuror sanksiyasi asosida yo‘l qo‘yilishi” o‘z aksini topgan. Ta‘kidlash joizki, ushbu tadbirlar, agar

shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilishni ta'minlash uchun haqiqiy ma'lumotlarni boshqa yo'l bilan olish imkoni bo'lmasa, istisno choralar sifatida amalga oshirilishi mustahkamlab qo'yilgan.

Bu boradagi xorijiy davlatlar tajribasi dalolat berishicha, Amerika Qo'shma Shtatlari, aksariyat Yevropa va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarda bu kabi tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishga sud qarori orqali yo'l qo'yiladi. Ma'lumki, hozirgi kunda mamlakatimizda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi yettita davlat organi faoliyat ko'rsatadi va ularning ikkitasi (Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Majburiy ijro byurosi) prokuratura tizimiga kiradi. Qonunning 21-moddasida tezkor bo'linmalar (shu jumladan, prokuratura tizimiga kiruvchi) tomonidan o'tkaziladigan ayrim tezkor-qidiruv tadbirlariga prokurorlar sanksiya berishi belgilab qo'yilgan. Fikrimizcha, bunday nomuvofiqliklarni bartaraf etish hamda faoliyatda o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tamoyiliga rioya qilishni ta'minlash maqsadida ushbu tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishga sanksiya berishni sud


idoralariga o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Shu munosabat bilan, "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasi birinchi qismidagi jumlaning quyidagi tahrirda berish taklif qilinadi: *"Yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar va boshqa so'zlashuvlar, pochta, kuryerlik jo'natmalari, telegraf xabarlar hamda aloqa tarmoqlari orqali uzatiladigan boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqlarini, shuningdek uy-joy daxlsizligi huquqini cheklovchi tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazilishiga sud qarori asosida yo'l qo'yiladi"*. Chunki, hozirda sud-huquq islohotlari doirasida jinoyat-protsessual qonunchiligiga yuqoridagi tezkor-qidiruv tadbirlariga o'xshash bo'lgan tergov harakatlari (pochta-telegraf xabarlarini xatlab qo'yish, murdani ekskumatsiya qilish)ni o'tkazishga sanksiya berish sud vakolatiga o'tkazildi.

Ta'kidlash lozimki, "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonunning tegishli moddalariga yuqorida taklif etilayotgan o'zgartish va qo'shimchalarning kiritilishi tezkor-qidiruv tadbirlarining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga va bu jarayonda qonuniylilikni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Федоров А.В., Шахматов А.В. Правовое регулирование содействия граждан органам, осуществляющим оперативно-розыскную деятельность. – М., 2005. – С. 102.
2. Захарцев С.И. Оперативно-розыскные мероприятия. –С.Петербург, «Юридический центр пресс. 2004. –С 59.
3. Xamdamov A.A., Saitbayev T.R., Gordeev S.N., Rashidxodjayev R.T. O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonuniga sharh. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B. 68.
4. Шумилов А.Ю. Юридические основы ОРД. – М., 1999. – С. 125.
5. Zakurlayev A.K., Pulatov Yu.S. Tezkor-qidiruv faoliyati: O'quv qo'llanma. – T.: TDYUU, 2014. – B. 76.
6. Горяинов К.К., Кваша Ю.Ф., Сурков К.В. Федеральный закон об оперативно-розыскной деятельности: Комментарий. – М., 1997. – С. 274.
7. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrda "Tezkor qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'RQ—344-son qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOJXONA ORGANLARI TOMONIDAN SURISHTIRUV HARAKATLARINI O'TKAZISH MASALALARI

X.Ismoilov - Bojxona instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada jinoyat protsessida bojxona organlari tomonidan ishni sudga qadar yuritishning asosiy shakllaridan biri bo'lgan surishtiruv instituti va unga oid normalar tahlil qilingan. Bundan tashqari huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: surishtiruv, jinoyatga oid ariza va xabarlar, tergov harakatlari, jinoyat ishini qo'zg'atish, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish, bojxona surishtiruvi.

Аннотация: В данной статье освещены вопросы проведения таможенными органами дознавательные работы подведомственных уголовных дел. Кроме того в статье анализируется правоприменительные вопросы в уголовном судопроизводстве.

Ключевые слова: дознания, следственные действие, возбуждение уголовных дел, отказ о возбуждении уголовного дела, дознания в таможенных органах.

Dunyo mamlakatlarining rivojlanish bosqichlari, xalqaro munosabatlarni kengayishi, integratsion jarayonlarni tezlashishi, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirilishi bir qancha xorijiy mamlakatlar tomonidan jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlari normalarini takomillashtirishga, jinoyat protsessiga jalb etiladigan fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini so'zsiz ta'minlash maqsadida ilg'or xalqaro standartlar va xorijiy amaliyotni implementatsiya qilishga qaratilgan sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirishlariga sabab bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, mamlakatimiz jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida uning normalarini takomillashtirish bo'yicha ham sezilarli o'zgarishlar yuz berayotganligini ta'kidlashimiz lozim.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsning ishi sudga qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmasligi belgilangan [1]. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, fuqarolarning huquq va erkinliklarini taminlash uchun Jinoyat protsessual qonun hujjatlarida ham gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda

isbotlangunga va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 6 sentabrdagi "Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni bilan milliy qonunchiligimizda sudga qadar ish yuritishning surishtiruv shakli joriy etildi [2].

Surishtiruv deganda O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual qonunchiligi talablaridan kelib chiqib, og'ir va o'ta og'ir turdagi jinoyatlar toifasiga kirmaydigan ayrim turdagi jinoyatlar bo'yicha tergovning qisqa muddatli ish yuritish shaklini, shu bilan birga kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari o'tkaziladigan jinoiy protsessual faoliyatni tushunish mumkin [3]. Surishtiruv hozirda MDH, Sharqiy Yevropa, Hindixitoy va Yaqin Sharq mintaqalarining ayrim davlatlarida sudgacha tergov o'tkazishning shakli sifatida amalda mavjud.

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 6 sentabrdagi O'RQ-442-son Qonuni bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarga binoan, surishtiruv O'zbekistonda ham jinoyat ishini tergov qilishning mustaqil shakliga aylandi[4].

Ya'ni bir qator jinoyatlar bo'yicha jinoyat ishlari surishtiruvdan dastlabki tergovga yuborilmaydi. Hozirgi kunda Jinoyat kodeksida mavjud 154 ta tarkibdan iborat ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarning 98 tasi bo'yicha sudgacha ish yuritishning ana shunday soddalashtirilgan tartibi joriy etildi. Surishtiruv shaklida tergov o'tkazish Rossiya Federatsiyasida 93 ta, Qozog'istonda 120 ta, Belarusda 36 ta jinoyat tarkiblari bo'yicha amalga oshiriladi[5].

Natijada ilgari barcha jinoyat ishlari bo'yicha majburiy bo'lgan dastlabki tergov endi faqat alohida jinoyat tarkiblari bo'yicha majburiy tartibda amalga oshiriladigan bo'ldi.

Jinoyat ishini ayblov dalolatnomasi bilan prokurorga va keyinchalik tasdiqlagan holda sudga yuborish bilan tugatiladigan surishtiruv ko'rinishidagi dastlabki tergov muddati bir oy qilib belgilangan.

Hozirda jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv ichki ishlar organlari, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Majburiy ijro byurosi, Milliy gvardiya hamda Davlat bojxona qo'mitasi va uning joylardagi bo'linmalari surishtiruvchilari tomonidan olib boriladi[6]. Ya'ni bojxona organlariga ham surishtiruv shaklida tergov qilish vakolati berilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 381²-moddasiga ko'ra, Davlat bojxona qo'mitasi hamda uning joylardagi bo'linmalari tomonidan Jinoyat kodeksining 130-moddasi (pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish) birinchi va ikkinchi qismlari, 130¹-moddasi (zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish), 184-moddasi (soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash) birinchi va ikkinchi qismlari, 244³-moddasi (diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish), 244⁴-moddasi (uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish) birinchi qismi hamda 250¹-moddasi (pirotexnika buyumlarining

qonunga xilof muomalasi) birinchi qismida nazarda tutilgan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha surishtiruv shaklidagi tergov harakatlari o'tkazish vakolati berilgan[7].

Shu bilan birga Jinoyat kodeksining 167-moddasi (O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish) birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyat bo'yicha, agar bojxona organi tomonidan ish qo'zg'atilgan bo'lsa, unga doir ishlar bo'yicha surishtiruv ham bojxona organi tomonidan olib boriladi.

Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining 237-moddasi (Yolg'on xabar berish) birinchi qismida, 238-moddasi (Yolg'on guvohlik berish) birinchi va ikkinchi qismlarida, 239 (Surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor qilish) va 240-moddalarida[6] (Jinoyat protsessini yuritish qatnashchilarining o'z zimmasidagi vazifani bajarishdan bo'yin tovlashi) nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha surishtiruv ushbu ish qo'zg'atilishiga sabab bo'lgan jinoyat, agar bojxona organining tergoviga tegishli bo'lgan taqdirda, ushbu organ tomonidan olib borilishi belgilangan.

Xalqaro tajribada bojxona organlari tomonidan jinoyatlarni tergov qilish amaliyoti ko'plab davlatlarda mavjud. Masalan, AQShda ikki turdagi bojxona xizmati mavjud bo'lib, ulardan Immigratsiya va bojxona xizmati (ICE-Immigration Customs Enforcement) tergov sohasida juda katta vakolatlarga ega organ hisoblanadi. Jumladan, Immigratsiya va bojxona xizmati ommaviy qirg'in qurollarini tarqatish, terrorizm, odam savdosi va kontrabandasi, qurol-yarog' kontrabandasi, narkotik moddalar savdosi va kontrabandasi, hujjatlar va daromadlar fribgarligi, soxta immigratsiya va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni tayyorlash, foydalanish va sotish, inson huquqlari buzilishi, transmilliy uyushgan jinoiy faoliyat, pul yuvish va yirik miqdordagi valyuta kontrabandasi kabi moliyaviy jinoyatlar, kiberjinoyat, seks-turizm va bolalar ekspluatatsiyasi, tijorat fribgarligi va intellektual mulk o'g'irligi kabi savdo jinoyatlari, kontrafakt dori vositalari va boshqa tibbiyot buyumlari kontrabandasi, ommaviy marketing fribgarligi, san'at o'g'irligi, viza

xavfsizligi, xalqaro madaniyat va antikvariatga oid jinoyatlar kabilarning tergovini amalga oshiradi va mamlakat Milliy xavfsizlik kotibiga hisobot beradi[8].

Hozirda Yevropa Ittifoqining a'zo mamlakatlaridan biri Latviya Respublikasida bojxona idoralari Moliya vazirligi huzuridagi Davlat daromadlari xizmati tarkibida bo'lib, uning Soliq va bojxona politsiyasi deb nomlanuvchi tuzilmasi Latviya jinoyat protsessual qonunchiligiga ko'ra, 11 ta tergov organlaridan biri hisoblanadi. U soliq, bojxona va moliya sohasidagi huquqbuzarliklar yuzasidan jinoyat ishini qo'zg'atish, gumonlanuvchini ushlash, ushlab turish, barcha zarur tergov harakatlarini olib borish va ishni sudga yuborish vakolatlariga ega. Soliq va bojxona politsiyasining respublika bo'yicha uchta hududiy tuzilmasi bo'lib, ularga bojxona idoralarida aniqlangan jinoyat alomatlari bor barcha huquqbuzarlik holatlari yuzasidan xabar berilishi va to'plangan hujjatlar o'z vaqtida taqdim etilishi shart.

MDH doirasida esa Rossiya Federatsiyasi va Ozarbayjon Respublikasi bojxona organlarining ushbu yo'nalishdagi faoliyatini misol qilib keltirish mumkin. Xususan, Rossiya Federatsiyasida bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlash hamda naqd pul vositalari kontrabandasi jinoyatlari bo'yicha (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 194 va 200¹-moddalar) bojxona organlari surishtiruvchilari tomonidan tergov shaklidagi surishtiruv o'tkaziladi. Ozarbayjon Respublikasi Bojxona kodeksiga ko'ra, bojxona organlari surishtiruv organi hisoblanib, Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat qonunchiligining 207-moddasi (Ozarbayjon Respublikasi hududiga badiiy, tarixiy va arxeologik boyliklarni qaytarmaslik) hamda 209-moddasida (Bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlash) ko'rsatilgan jinoyatlar bo'yicha sudgacha soddalashtirilgan ko'rinishdagi tergov o'tkazadilar.

Bojxona organlari tomonidan surishtiruv shaklidagi tergovni amalga oshirishda protsessual hujjatlarni to'g'ri va sifatli rasmiylashtirish, tergov harakatlari har tomonlama, to'liq, ob'ektiv o'tkazish, dalillar to'plash har bir bojxona

xodimiga qo'shimcha mas'uliyat yuklaydi.

Shu sababli huquqni muxofaza qiluvchi organlarining jinoyat-protsessual faoliyatiga oid ilmiy-nazariy va yuridik adabiyotlarni, jinoyat protsessining muhim bosqichi sifatida surishtiruv olib borish, bu boradagi surishtiruv, tergov amaliyotini hamda mavjud statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, shuningdek, xorijiy mamlakatlar jinoyat protsessual qonunchiligini o'rganish asosida o'z taklifimizni keltirib o'tishni lozim deb topdik.

Jumladan, mutaxassis jinoyat protsessining "Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar" deb nomlangan ishtirokchilaridan bo'lib, maxsus bilimlarga ega shaxs hisoblanadi. Mutaxassisning vazifasi o'z faoliyati davomida dalillarni topish, to'plash, mustahkamlash, baholashga, ekspert oldiga qo'yilgan savollarni shakllantirishga va ekspertning xulosalarini baholashda ekspertiza tayinlagan organga yordam berishdan iboratdir. Ekspert va mutaxassisning jinoyat protsessidagi funksiyasi bir-biriga yaqindir. Ammo, mutaxassisning huquqiy maqomi ekspertniki kabi jinoyat protsessida to'liq yoritilmagan. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi JPK 69-moddasi "Tergov va sud muhokamasini o'tkazishda dalillarni topish va mustahkamlashda surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yordam berish uchun mutaxassis chaqiriladi" shaklida berilgan. Ammo, bazi holatlarda mutaxassis ekspert hulosasi va unda qo'llanilgan tadqiqot usullarining to'g'riligini aniqlashda surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yordam berishini ham e'tirof etish kerak. Shu sababli ushbu normalarga qo'shimcha "dalillarni baholash" jumlasini ham kiritish maqsadga muvofiq. Ya'ni JPK 69-moddasining 1-qismi quyidagi tahrirda bayon qilinishi maqsadga muvofiq:

«69-modda. Mutaxassis


Tergov va sud muhokamasini o'tkazishda dalillarni topish, baholash va mustahkamlashda surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yordam berish uchun mutaxassis chaqiriladi. Mutaxassis sifatida shifokor, pedagog hamda zarur bilim va malakaga ega bo'lgan boshqa shaxslar chaqirilishi mumkin".

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual qonunchiligidagi bojxonaga oid jinoyatlarda surishtiruv masalalarini tahlil qilish uchun zamonaviy

xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani o'rganish zamon talablariga mos bo'lgan bojxona organi xodimlarini tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 6-sentabrdagi "Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan o'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-442-son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.
3. Jinoyat protsessual huquqi. Umumiy qism. Toshkent. 2017 yil. IIV Akademiyasi.
4. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 6 sentabrdagi "Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi 442-son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.
5. <https://proacademy.uz/uz-lat/news/view?alias=582>
6. Bojxona organlarining huquqni muxofaza qilish faoliyati. Darslik. Kollektiv avtorlik. Toshkent. 2021 yil.
7. O'zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz. (<https://lex.uz/docs/-111460>)
8. O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.



VOYAGA YETMAGANLARNING MA'MURIY HUQUQBUZARLIK UCHUN JAVOBGARLIGI

F.Qarshiboyev - Bojxona instituti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada voyaga yetmaganlarning ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarligi bilan bog'liq ayrim masalalari haqida so'z yuritiladi. Tegishli tavsif va tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: Ma'muriy huquqbuzarlik; ma'muriy javobgarlik; voyaga yetmaganlarning ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarligi.

Аннотация: В статье даётся некоторые аспекты ответственности несовершеннолетних за административные правонарушения. Предоставлены выводы и предложения по решению данной проблемы.

Ключевые слова: Административное правонарушение; административное ответственность; ответственность несовершеннолетних за административные правонарушения.

Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda bir oddiy haqiqat barchamiz uchun ayonki, oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz – ya'ni mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi xam-bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishishiga bog'likdir. Shuning uchun ham yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiylaridan biri yoshlar tarbiyasiga bo'lgan e'tibordir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bu ta'lim va fan sohasini rivojlantirish hamda yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish bo'lib, bundan ko'zlangan asosiy maqsad jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishdir.

Respublikamizda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilayotganligiga

qaramasdan amaliyotda ayrim yoshlar tomonidan huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etish, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilish, diniy aqidaparastlik yoki turli zararli oqimlar, guruhlar ta'siriga tushib qolish kabi salbiy holatlar uchrab turibdi. Ushbu salbiy holatlarning oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-mart kuni "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2833-sonli qarori qabul qilindi[1]. Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) hokimliklari huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarni tegishincha Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar etib qayta tashkil etildi hamda Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar to'g'risidagi Nizom va Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining tarkibi tasdiqlandi. Tumanlar (shaharlar) komissiyalari o'zlariga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik

to'g'risidagi kodeksiga muvofiq komissiyalar vakolatiga kiritilgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadilar.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 247-moddasiga asosan Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha tuman (shahar) idoralararo komissiyalari voyaga yetmagan shaxslar tomonidan ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 194-moddasida nazarda tutilganidan bo'lak sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadilar. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 61, 116¹, 116², 125, 125¹, 126, 127, 128, 128¹, 128², 128³, 128⁴, 128⁵, 128⁶, 129, 130, 131, 132, 133, 134, 135, 135¹, 136, 137, 138, 183, 185, 220, 221 — moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar mazkur ishlar kelib tushgan organ (mansabdor shaxs) ishni shu komissiyalar qarab chiqishi uchun topshirgan hollardagina ko'rib chiqadilar. Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar voyaga yetmaganlarning ota-onalari yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslarga taalluqli Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 47-moddasi birinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ham ko'rib chiqadilar. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida voyaga yetmaganlar javobgarligining alohida tartibi belgilangan. Xususan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 14-moddasiga asosan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar to'g'risidagi nizomda nazarda tutilgan quyidagi choralar qo'llaniladi:

-voyaga yetmaganga jabrlanuvchidan uzr so'rash majburiyatini yuklash to'g'risida tuman (shahar) sudiga taqdimnoma kiritish;

-ogohlantirish chiqarish;

-o'n besh yoshga to'lgan voyaga yetmagan zimmasiga, agar u mustaqil ish haqiga ega bo'lsa va zarar miqdori belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan ortiq bo'lmasa yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash yoki uni bartaraf etish

majburiyatini yuklash yoki belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan ortiq bo'lmagan moddiy zararni o'z mehnati bilan qoplash majburiyatini yuklash to'g'risida tuman (shahar) sudiga taqdimnoma kiritish;

-o'n olti yoshga to'lgan va mustaqil ish haqiga ega bo'lgan voyaga yetmaganga O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan hollarda va miqdorlarda jarima solish;

-voyaga yetmaganni o'z ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yoxud jamoat tarbiyachilari nazoratiga, shuningdek ularning roziligi bilan mehnat jamoasi yoki nodavlat notijorat tashkiloti kuzatuviga topshirish;

-voyaga yetmaganni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to'g'risida sudga iltimosnoma yuborish[2].

O'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 61, 116¹, 116², 116³, 125, 125¹, 126, 127, 128, 128¹, 128², 128³, 128⁴, 128⁵, 128⁶, 129, 130, 131, 132, 133, 134, 135, 135¹, 136, 138, 183, 185, 185², 185³, 194, 209¹, 218, 220, 221 -moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan taqdirda, ular umumiy asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortiladi. Sodir etilgan huquqbuzarlik xususiyatini va huquqbuzarning shaxsini hisobga olgan holda mazkur shaxslarga nisbatan (Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 194-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslar bundan mustasno) ishlar voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha tuman (shahar) idoralararo komissiyalari ixtiyoriga berilishi mumkin, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 61-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarning ishlari esa shu komissiyalarga berilishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan moddalar tahlilidan ko'rinib turibdiki, Voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi idoralararo komissiyalarning ma'muriy qonunchilikni qo'llash faoliyatida kollizion normalar mavjud, ularni hal etish uchun ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikka o'zgartish va


qo‘shimchalar kiritilishi talab etiladi. Masalan: O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 247-moddasida 61-moddada nazarda tutilgan huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha tuman (shahar) idoralararo komissiyalari mazkur ishlar kelib tushgan organ (mansabdor shaxs) ishni shu komissiyalar qarab chiqishi uchun topshirgan hollardagina ko‘rib chiqadilar deb belgilangan [5]. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksining 14-moddasi 2-qismida esa 61-moddada nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarning ishlari esa shu komissiyalarga berilishi lozim deb belgilangan. Tahlildan ko‘rinib turibdiki, ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 14-moddasi mazkur kodeksning 247-moddasiga zid kelmoqda, ushbu ziddiyatni bartaraf etish

uchun O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 14-moddasi 2-qismidan **“Ushbu Kodeksning 61-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarning ishlari esa shu komissiyalarga berilishi lozim”** degan so‘zlarni chiqarib tashlash maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida bayon etilgan ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritishga doir tavsiyalar, eng avvalo ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari normalarini to‘la va aniq amalga oshirishga qaratilgan. Shu bilan birga, ushbu taklifni ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga kiritilishi amaliyotda qonunlarni buzilishini oldini olishga hamda Voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug‘ullanuvchi idoralararo komissiyalarning faoliyatini takomillashtirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi “2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-6155-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-2833-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.
4. Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralararo komissiyalar to‘g‘risidagi nizom // O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.



ПРОБЛЕМЫ ПРАВОВОЙ РЕГЛАМЕНТАЦИИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Ш.Якубов - студент 4-го курса Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема правового регулирования такого нового явления для общества и права, как искусственный интеллект. Статья раскрывает содержание понятия вышеуказанного термина и показывает перспективы развития этой отрасли. Автором предложены добавить изменения в существующую нормативно-правовую базу для лучшего соответствия изменениям в мире технологий и создания благородной почвы для дальнейшей цифровизации общества.

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt kabi jamiyat va huquq uchun yangi omilni huquqiy tartibga solish muammosi ko'rib chiqiladi. Maqolada mazkur atamaning mazmun-mohiyati ochib berilgan va ushbu sohaning rivojlanish istiqbollari ko'rsatilgan. Muallif texnologiya olamidagi o'zgarishlarga yaxshiroq moslashish va jamiyatni yanada raqamlashtirishni tezlashtirish uchun qulay zamin yaratish maqsadida mavjud me'yoriy-huquqiy bazaga o'zgartirishlar kiritishni taklif qiladi.

Ключевые слова: искусственный интеллект, новые технологии, нормативно-правовая база, цифровизация экономики, положительные эффекты, причинение вреда, теоретические основы цифрового права.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, yangi texnologiyalar, me'yoriy-huquqiy baza, iqtisodiyotni raqamlashtirish, ijobiy ta'sirlar, zarar, raqamli huquqning nazariy asoslari.

Искусственный интеллект (далее - ИИ) можно использовать в различных сферах деятельности для создания и реализации новых возможностей человека в целях освобождения человека от монотонной, рутинной работы путем автоматического создания программного обеспечения, для автоматизации различных видов деятельности (в том числе юридической), поддержки в принятии решений и развития коммуникационных процессов.

За последние годы в нашей стране поэтапно формируется нормативно-правовая база данного важного сегмента цифровой экономики. В соответствии со Стратегией «Цифровой Узбекистан — 2030» и в целях создания благоприятных условий для ускоренного внедрения технологий ИИ и их широкого применения в стране, обеспечения доступности и высокого качества цифровых данных, подготовки квалифицированных кадров в указанной сфере принято Постановление Президента Республики Узбекистан от 17.02.2021 г. «О мерах по созданию условий для ускоренного внедрения технологий искусственного интел-

лекта» [1]. Данным документом утверждена Программа мер по изучению и внедрению данных технологий в 2021–2022 гг., основными направлениями которой являются:

- разработка Стратегии развития искусственного интеллекта;
- выработка нормативно-правовой базы;
- широкое применение технологий ИИ;
- создание отечественной экосистемы инновационных разработок в области ИИ;
- создание условий для разработчиков программного обеспечения с применением технологий ИИ в доступе к цифровым данным;
- формирование инвестиционной привлекательности научных работ и разработок в области ИИ;
- обеспечение доступа отечественных предприятий и специалистов к информационным ресурсам и компетенциям в области ИИ;
- развитие международного сотрудничества в области ИИ и технологий его применения.

Следует отметить, что внедрение ИИ ускорит цифровизацию экономики, стимулируя развитие информационной-телекоммуника-

ционной инфраструктуры государства и общества. Среди отраслей, в которых внедряются продукты данной «сквозной» технологии и выстраиваются процессы с участием систем ИИ, можно назвать сельского хозяйства, банковскую и финансовую систему, таможенную и налоговую сферу, сферу транспорта, энергетики, здравоохранения и фармацевтику.

В сельском хозяйстве с помощью ИИ может способствовать повышению эффективности процессов селекции и урожайности, снижение затрат на ремонт за счет прогнозирования поломок техники. В транспорте – через использование беспилотных транспортных средств, оптимизацию маршрутов с учетом прогнозирования транспортных потоков, обеспечение безопасности вождения за счет предупреждения опасных ситуаций, и прогнозирования неисправностей. В торговле искусственный интеллект используется для снижения воздействия человеческого фактора, прогнозирования спроса и поведенческой модели покупателя, роботизации складов, автоматизированной доставки товаров покупателю. В банковской сфере – для оценки кредитоспособности заемщиков, разработки новых банковских продуктов, создания чат-ботов, в том числе голосовых систем обработки запросов клиентов, повышения безопасности операций.

В медицине технологии ИИ позволяют усовершенствовать диагностику, разработку новых лекарственных средств, проводить хирургические операции с использованием робототехники, сокращать продолжительность лечения благодаря точному использованию инструментов в зависимости от данных пациента. В сфере образования – в качестве приложений-репетиторов, для создания индивидуальных уроков, автоматизированной оценки знаний, анализа поведения обучающихся и профессиональных навыков учителей.

В настоящий момент в мире сложились два основных подхода в отношении правовой регламентации использования ИИ. Первый называется юридическим или легалистским – Legalistic Approach. Он состоит в том, чтобы исходить из существующей правовой систе-

мы и формулировать перечни проблемных вопросов, возникающих из-за использования роботов и связанных с ответственностью, конфиденциальностью, кибербезопасностью. Второй подход (технологический) предусматривает «движение» от технологических изменений: появления беспилотников, роботов – личных помощников, экзоскелетов и т. д. Сторонники технологического подхода настаивают на вторичности права [2].

Для примера, в действующем законодательстве Российской Федерации к объектам гражданских прав, наряду с вещами и иным имуществом, относятся цифровые права. Они представляют собой вид имущественных прав и указываются наряду с интеллектуальными правами, в связи с чем ряд исследователей не относят цифровые объекты к объектам защиты авторских прав. Согласно ст. 141.1 Гражданского кодекса Российской Федерации они определяются как обязательственные и иные права, осуществление, распоряжение которыми и ограничение которых возможны только в информационной системе, и в силу этого указанные права имеют весьма ограниченное применение. Поэтому вне правового регулирования остается целый ряд аспектов, связанных с использованием этих прав за пределами цифровой среды, например, использование результатов осуществления прав (обобщения и анализа больших данных, результатов машинного обучения и др.).

Для поступательного и успешного развития цифровой экономики на основе мирового опыта важно выработать единый универсальный подход к признанию цифровых технологий, продуктов и прав объектами гражданских правоотношений. Он должен быть основан на следующих методологических положениях: признание цифрового продукта или явления объектом гражданских прав не должно основываться на установлении его материальной сущности или экономической ценности [3]. Как правило, цифровые объекты обладают комплексной правовой природой и могут быть одновременно рассмотрены как с позиции интеллектуальных, так и с позиции вещных (имущественных) прав; в оценке

цифровых технологий следует основываться на правовой модели, максимально приближенной к юридической сущности отношений и способной обеспечить баланс частных и публичных интересов в цифровом обороте; в выработке универсального подхода к регулированию цифровых технологий как объекта гражданских прав необходимо исходить из объективной эмансипации цифрового права от традиционных правовых институтов.

С учетом указанного предлагается в ст. 81 Гражданского кодекса Республики Узбекистан предусмотреть в качестве объектов гражданских прав «цифровые права». Видится возможным определить в ст. 98 Гражданского кодекса Республики Узбекистан порядок и условия использования информации субъектами гражданского права и защиты прав на нее, а также предусмотреть в отдельной статье Гражданского кодекса понятие цифровых прав, их обладателей, порядок перехода и защиты цифровых прав.

Следует также отметить проблему причинения вреда системами ИИ жизни и здоровью человека, ответственности за вред, причиненный системами ИИ.. Неверный алгоритм, заложенный в систему ИИ, может привести к существенному ущербу. Для выработки конкретных регуляторных решений требуется использовать риск-ориентированный подход, основанный на оценке размера потенциального вреда указанным ценностям с учетом вероятности его наступления по сравнению с потенциальным положительным эффектом от внедрения технологий ИИ и робототехники, необходимости принятия мер по минимизации соответствующих рисков [4].

Однако сам факт использования систем ИИ и робототехники не должен являться основанием для установления регуляторных ограничений. В условиях дальнейшего развития цифровой экономики возникает потребность в разработке новых основ правового регулирования цифровых технологий и легитимации новых имущественных и личных неимущественных отношений.

Наиболее значимыми вопросами применения систем ИИ гражданских правоотноше-

ниях являются вопросы гражданско-правовой ответственности за вред, причиненный системами ИИ, а также вопросы охраноспособности результатов творческой деятельности с применением систем ИИ [2]. Требуется дальнейшая проработка института гражданско-правовой ответственности без вины в случае причинения вреда системами ИИ, имеющими высокую степень автономности при принятии ими решений, в том с точки зрения определения лиц, которые будут нести ответственность за их действия, а также возможности использования иных способов, позволяющих возместить причиненный действиями систем ИИ вред (например, страхование ответственности т. д.).

Можно отметить ряд современных технологий, востребованных в области юридической и смежных видах деятельности:

1) Lawyer-to-Lawyer Networks – юридическая сеть, один тип сетей профессиональных услуг с возможностью доступа и расширения ресурсов, доступных каждому участнику для предоставления услуг своим клиентам;

2) Document Automation and Assembly (DIY Legal Forms and Contracts) – проектирование систем и рабочих процессов, которые помогают в создании электронных документов. Они включают в себя логические системы, которые используют текстовые блоки, чтобы собрать новый документ, а также разработку шаблонов договоров, бланков;

3) Practice Management (Case Management for Specific Practice Areas and Legal Billing) – управление юридической практикой и выставление счетов, применение программного обеспечения для обмена информацией, файлами между клиентом и юристом, списки контактов, календари, перечни переговоров, реестры дел);

4) Legal Research – правовые поисковые системы, основанные на передовых технологиях ИИ, получения и обработки данных. По сути, это процесс выявления и поиска информации, необходимой для принятия юридических решений, который предусматривает установление источников права или уполномоченного государственного органа в данной

юрисдикции, анализ обзоров законодательства, юридических словарей, юридических трактатов и юридических энциклопедий, практических и иных данных;

5) Predictive Analytics and Litigation Data Mining – анализ данных с помощью статистических или математических методов, методов интеллектуального анализа данных, анализируя текущие и предшествующие факты в целях построения перспектив развития той или иной ситуации, например, проводится оценка рисков или потенциала, связанного с конкретным набором условий в целях принятия решений о возможных сделках;

6) Electronic Discovery – процесс обнаружения, фиксации, предоставления информации, содержащейся на цифровых носителях: файлы (текстовые, видео, аудио), электронные письма, которые могут быть доказательствами в судебном или административном процессе, при этом важно установить и сохранить истинное содержание файла, его временные и технические параметры;

7) Online Dispute Resolution (ODR) – технология, используемая преимущественно в интернете, для разрешения споров вне суда посредством альтернативной процедуры;

8) Data Security Technologies – это технологии безопасности данных, предназначенные для защиты конфиденциальной информации, которыми обмениваются при передаче данных клиент/сервер, которая может предусматривать административный контроль, фактическую безопасность, организационные стандарты и другие методы защиты, которые ограничивают доступ неавторизованным пользователям или процессам.

По уровню решаемых задач элементы юридической технологии можно классифицировать на основные (базовые), вспомогательные (факультативные), технические. Основные направлены в конечном итоге на достижение определенного значимого социального результата, возникновение новых и развитие существующих институтов посредством применения юридической техники (судопроизводство, институт сделок, нормотворчество) [5].

Итак, к положительным аспектам (преимуществам) использования ИИ можно отнести: возможность принятия рациональных и оперативных решений, основанных на конкретных данных с минимальной субъективностью и усмотрением при их вынесении; устранение «нерациональной избыточности»; реорганизацию, оптимизацию устаревших бюрократических структур, систем и процедур; создание новых и инновационных рабочих мест; снижение зависимости от энергоносителей; новые достижения в здравоохранении, промышленности, государственном управлении и других сферах.

Риски (угрозы) внедрения ИИ предусматривают: сокращение/оптимизацию рабочих мест, рост безработицы; рост киберпреступности и появление ее новых форм; правовые проблемы ответственности (в том числе изменений современного деликтного и контрактного законодательства); определенная степень недоверия и этические проблемы интегрирования ИИ в общественную жизнь; повышение степени неравенства; «конфликт с алгоритмом» и экзистенциальная угроза человечеству.

Актуальной видится разработка концептуальных теоретических основ цифрового права (в том числе Концепции развития регулирования отношений в сфере технологий искусственного интеллекта и робототехники) во взаимосвязи с постулатами права устойчивого развития и интеграционного конституционализма. Очевидна необходимость целостного законодательного регулирования, учитывающего специфику применения технологий ИИ и робототехники в различных сферах общественной жизни. Требуется уточнения и установления система единых этических и правовых принципов использования ИИ с разработкой универсального понятийно-категориального аппарата.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР:

1. Постановление Президента Республики от 17 февраля 2021 года № ПП-4996 Узбекистан “О мерах по созданию условий для ускоренного внедрения технологий искусственного интеллекта” //Национальная база данных Законодательство Республики Узбекистан - www.lex.uz.
2. Vadinsky, O An overview of approaches evaluating intelligence of artificial systems / O. Vadinsky // Acta informatica pragensia. – 2018. - No 7-1. – С. 74-103
3. Морхат П.М. Искусственный интеллект: правовой взгляд: Научная монография / РОО «Институт государственно-конфессиональных отношений и права». – М.: Буки Веди, 2017. – 257 с.
4. Кузнецова, А. В. Искусственный интеллект и информационная безопасность общества : монография / А. В. Кузнецова, С. И. Самыгин, М. В. Радионов ; ред. П. С. Самыгин. - М. : Русайнс, 2016. - 117 с.
5. Филипова И.А.Правовое регулирование искусственного интеллекта: учебное пособие, 2-е издание, обновленное и дополненное – Нижний Новгород: Нижегородский госуниверситет, 2022. – 275 с.



Bosishga 28.12.2021 yilda ruxsat etildi.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8.
O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining
Bojxona instituti matbaa bo'limi bosmaxonasida nashr etildi.
Guvohnoma reestr raqami № 10-4462. 29.10.2019 yil.
Manzil: Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Qozirobod 2-tor qo'chasi 118.

Mazkur sohaviy jurnal bojxona idoralari o'rtasida bepul
tarqatish uchun mo'ljallangan bo'lib, obuna ko'zda tutilmagan.

